O‘ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI
ilmiy-nazariy, metodik jurnali

TAHRIRIYAT HAY’ATI:

Bosh muharrir:
Madraximova Feruza Ruzimbayevna (p.f.d., dots.)

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Matyoqubov Hikmat Shuhratovich (PhD., dots.)

Tahririyat a’zolari:
D.N.Abdullayev – t.f.d. dots.
S.R.Davletov – t.f.d. prof.
S.M.Matkarimova – t.f.d. dots.
I.S.Abdullayev – i.f.d. prof.
B.Ruzmetov – i.f.d. prof.
J.X.Ataniyozov – i.f.d. prof.
R.M.Matkarimov – p.f.d. prof.
I.Saifnazarov – f.f.d. prof.
M.S.Xajiyeva – f.f.d. prof.
E.R.Ro‘ziyev - p.f.d. prof.
M.S.Salayeva - p.f.d.prof.
M.O.Atajanova - f.f.d.
S.U.Xodjaniyazov - p.f.d.,dots.
D.T.Xudayberganov -i.f.d.dots.
S.T.Davlatova – t.f.d. dots.
U.I.Abdullayev – t.f.d. dots.
M.M.Matyakubova – t.f.n.dots.
D.Q.G‘oyipov – f.f.d. dots.
A.D.O‘rozboyev – f.f.d. dots.
B.B.Nurullayeva – ps.f.n. dots.
E.X.Zoyirov – f.f.d. dots.
O.E.Xayitov – ps.f.d. dots.
Q.P.Qobulov – ps.f.d. dots.
D.A.Urazboyeva – ps.f.d. dots.
X.R.Matyakubov – p.f.n.dots.
J.Q.Yusubov – PhD, dots.
X.X.Matyakubov – PhD, dots.
D.Atamuradova – PhD.
Z.Y.Adilov – PhD.
Z.K.Abidova – PhD.
Y.A.Karimov - PhD.
M.I.Jakbarova – PhD.

1 (13), 2025

Muassislar:
Urganch davlat pedagogika instituti,
Ziyo scientific center MCHJ

Jurnal xalqaro **ISSN 2181-3418**-son raqami bilan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yilning 5-mayida **№1612**-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

Jurnal OAK Rayosatining 2024-yil 27-sentabrdagi 361-son qarori bilan jurnal **filologiya va psixologiya fanlari** bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal yiliga 12 marta chop etiladi.

Jurnaldan olingan materiallarga “O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart.
Mualliflardan kelgan qo‘lyozma materiallar egalariga qaytarilmaydi.

Tahririyat bilan aloqa:
E-mail: ziyo.scientific@bk.ru
Sayt: www.re-search.uz
Manzil: O‘zbekiston, 220100, Urganch shahri, Gurlan ko‘chasi, 1-uy.

MUNDARIJA

FILOLOGIYA	
Yusupov S. Sh. Qoraqalpog‘istondagi antroponim komponentli nekrotoponimlar.....	3
Xajiyeva D. A. Zamonaviy o‘zbek romanchiligi taraqqiyoti va unda inson ruhiyatining aks ettirilishi…….	9
Kamilova N. S. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Sofiya” hikoyasida diniy motivlarning badiiy sintezi……	17
Xajiyeva D.A., Quralova K. Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni……	25
Allanazarova N. B. Comparative study of sentence structures in english and uzbek languages…….	30
Davlatmuratov S. R. Rus va o‘zbek maqollari dunyo til manzarasining aks ettirishi sifatida: lingvokulturologik tahlil……	35
Allanazarova N. B. Folklor terminlari ta’rifi, tasnifi va tadqiq etishda qo‘llanilgan usullar va metodologik yondashuvlar……..	43
Kurbaniyazov R. Dynamic characteristics of sports terminology……..	49
Fozilova O. N. Latif Mahmudov hikoyalarida folklor janri (“Mehmon-mehmon” hikoyasi misolida).....	55
Темирова Ф. А. История становления и современное развитие фразеологии как научной дисциплины…….	60
Bolbekova U. J. Og‘zaki nutqni rivojlantirishda lingvodidaktik va lingvopsixik faktorlarning ahamiyati……...	66
Абдужабборова К. Журналистика йўналиши талабаларига инглиз тили ўқитиш методикаси: хорижий давлатлар тажрибаси……..	72
Husenova Sh. T. Ingliz tilidagi maxsus lug‘atlarda tibbiy terminlarning leksikografik tahlili: qiyosiy yondashuv……...	79
Narmuratov I. Oliy ta’limda rus tili: kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy metodlari……	91
Mahmudova U. U. Ijtimoiy tarmoqda mediamatn diskursi va ularning qo’llanilishi……...	98
Eshchanova G. Tarix va epos munosabati xususida……	107
Xudoyorova G. N. Zamonaviy rus tilidagi ergonimlarning shakllanish xususiyatlari……	113
Abdulazizova S. G. Konsept tushunchasi va uning badiiy asarlarda ifodalanilishi.....	118
Abdurasulova D. Q. Ayollar nutqida kommunikativ strategiya va taktikaning ifodalanishi……	125
Abdulhakimova G. T. O‘zbek asarlarining rus tiliga tarjimasida milliy rangni o'tkazishi …….	131

Nazarova N. A. Alisher navoiy asarlarining punktuatsion badiiy tahlili ……	137
Казакова Р. М., Умурзакова Д. В. К Вопросу о сходстве и различии «фархад и ширин» алишера навои с «романом о тристане и изольде» жозефа бедье в контексте их философских и культурных основ.....	142
Jumatov R. Y., Palvanova S. B. Siyosiy va tijorat sohalarida inglizcha reklama shiorlari……	150
Jumatov R. Y., Xudayberganova D. D., Neologizmlar bo'yicha lingvistik tadqiqotlar muammosi……	156
Adham B. M. Nemis va o‘ zbek tillarida inkorni ifodalovchi vositalarning funksional-semantik kategoriya sifatida o‘rganilishi.....	164
Muminova U. Q. Alisher navoiyning “mahbub ul-qulub asari leksemalar o‘rtasidagi paradigmatik munosabatlar……	175
Kholova M. B. Idiostyle, idiolect, and the development of authorial style…	181
Xaydarova R. A. Filologiya yo‘nalishi talaba qizlari vatanparvarligini rivojlantirishda loyiha ta‘lim texnologiyasidan samarali foydalanish……	188
Saidakbarova S. P. Kodlangan muloqotning lingvo-semiotik modeli……	193
PSIXOLOGIYA	
Abdullayeva N. R. “Reproduktiv xulq psixologiyasida oilada farzandning o‘rni va psixologik mexanizmlari”……	201
Jumaniyozova Sh. R Qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlarni kasallikka munosabatini emperik o‘rganishi……	208
Eshnazarova F. J. Musobaqa jarayonida sportchilarning emotsional holati namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari……	217
Kurbonova Sh. N. Sportchilarni musobaqa jarayoniga tayyorlashning psixologik aspektlari……	222
Toshpulatova A.T. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari…	227
Туракулова И. Х. Психологические аспекты подготовки молодежи к семейной жизни……	231
Axmedova M. X. Kommunikativ imo-ishoralarning psixolingvistik xususiyatlari……	236
Xayrullayev Q. Z. Talabalarning o‘quv jarayonida frustratsiya holati namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari……	243
PEDAGOGIKA	
Atabayev B. Zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sport tayyorgarligi dasturlarining samaradorligini oshirish……	255
Shokirov T. F. Kredit-modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf	261

o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (ona tili fani misolida)……	
Toshova Sh. T. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishida o‘yin faoliyatining amaliyotdagi ahamiyati……	267
Xayitova F. A. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning kreativ madaniyatini rivojlantirish usullari……	273

UDK: 81-114.4

Yusupov San’at Shuxratovich
Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: sanatyusupov999@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-2428-485X

QORAQALPOG‘ISTONDAGI ANTROPONIM KOMPONENTLI NEKROTOPONIMLAR

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi antroponim komponetli nekrotoponimlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Toponim, antroponim, nekrotoponim.

Юсупов Санъат Шухратович
Преподаватель социально-гуманитарного факультета
Нукусского государственного педагогического института.

НЕКРОТОПОНИМЫ С АНТРОПОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируются некротопонимы с антропонимическими компонентами на территории Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова: Топоним, антропоним, некротопоним.

Yusupov Sanat Shukhratovich
Nukus State Pedagogical Institute Social and Humanitarian

NECROTOPONYMS WITH ANTHROPONYMIC COMPONENTS IN KARAKALPAKSTAN

Annotation. The article analyzes necrotoponyms with anthroponymic components in the Republic of Karakalpakstan.

Key words: Toponym, anthroponym, necrotoponym.

Kirish

Nekrotoponimlar ham toponimlarning boshqa turlari kabi nomlanishida turli motivlar asos bo‘ladi. Lekin ko‘pchiligi antroponimlar bilan aloqador ekanligi namoyon bo‘ldi. Chunki nekrotoponimlarning aksariyat qismi mazkur hududdagi katta ulamolar,

islom dinini tarqatgan yoki shu yo‘nalishda katta bilim va tajribaga ega bo‘lgan insonlar nomi bilan atalgan.

Adabiyotlar tahlili

Toponimlarning boshqa turlarida, jumladan oykonimlarda ham antroponimlar faol ishlatishini ma’lum. Masalan, toponimist A.Turobov shunday yozadi:”Antroponimlarga kishilar ismi, familiyasi, otasining ismi va taxallusi, laqablari kiradi. Kishi ismlari va familiyalari, laqab va taxalluslari orqali ma’lum bir guruh va qavm atalish hollari mavjud. Ulardan yasalgan turar joy nomlari antropooykonimlar deb yuritiladi. Masalan, Jomboy tumanida Nazar nomli qishloq bor. Nazar – shu guruh asoschisining nomi. O‘zbeklarning qatag‘on urug‘ining kichik to‘pi nomi nazarto‘pi deb ataladi. Qishloq ana shu etnik guruh nomi bilan atalgan.”[1]

Tadqiqot metodologiyasi

O‘rganilayotgan hudud nekronimlarining leksik-semantik xususiyatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Antroponimlar asosida hosil qilingan nekronimlar;

2. Antroponim va ijtimoiy tabaqa nomlarini bildiruvchi so‘zlar birikishidan vujudga kelgan nekronimlar;

Tahlil va natijalar

Eng ko‘p uchraydiganlaridan biri “ota” komponentli nekrotoponim bo‘lib, mazkur komponent ko‘pincha indikator bo‘lib keladi. O‘zbek tilida “ota” shaklida, qoraqalpoq tilida esa “ata” shaklida yoziladi:

“Abdujalil ota” (Amudaryo tumanining Qaramon MFY da), **“Adil ata”** (Taxtako‘pir tumanining “Atako‘l” mahallasida), **“Annet ata”** (Taxtako‘pir tumanining “Múlik” APJda), **"Avazniyoz ota"** (Amudaryo tumanining Daryo bo‘yi MFY da), joylashgan.

Bundan tashqari mazkur indikator faqat inson nomi bilan bog‘liq apellyativlardan tashqari boshqa so‘zlarga qo‘shilib ham nekrotoponim ma’nosini anglatishi mumkin. Jumladan:

a) geografik relef xususiyati: **“Aqqum ota”** (Kegeyli tumani Juzimbog‘ OFYda),

b) inson xarakter xususiyatini ifodalaydi: **“Kechirmas ota” (**Beruniy tumani Guliston MFYda), **“Xayrli Ota” (**Beruniy tumanining Urazboy Jumaniyozov MFYda joylashgan);

v) ijtimoiy tabaqasiga ko‘ra: **“Miskin ota” (**Amudaryo tumanining Qangli OFY da), **“Musofir ota” (**Ellikqal’a tumanining “Paxtachi” OFYda joylashgan);

g) insonning jismoniy qobiliyatiga ko‘ra: **“Polvon ota”** (Amudaryo tumani Uyshin MFY da joylashgan);

d) insonning tashqi ko‘rinishiga nisbatan: **“Sarixo‘ja ota” (**Ellikqal’a tumanining “Qizilqum” OFYda),

ye) insonning biron bir xislatiga nisbatan: **“Sheytlik ata”** (Kegeyli tumani Juzimbog‘ OFYda joylashgan) “shahidlar dafn qilingan yer” ma’nosini bildiradi.

yo) diniy unvonni bildiruvchi so‘z: **“Maqsim ota”** (Kegeyli tumanining “Aqtuba”OFY da joylashgan);

j) insonning biror bir predmetga egaligini bildiruvchi so‘z bilan: **“Qabaqli ata”** (Qorao‘zak tumani “Qorao‘zak” OFYda joylashgan).

Bunday nekrotoponimlarning soni 71 ta bo‘lib, umumning 15,2% ni tashkil qiladi.

Ko‘p uchraydigan indikatorlardan biri “bobo” (qoraqalpoqcha “baba” indikatori bo‘lib hisoblanadi:

“Abdimalik baba” (Shumanay tumanining “Diyxanabat” APJda), **"Abdulla bobo"** (Amudaryo tumanining Choyko‘l OFY da), va sh.k.

“Bobo” komponentli nekrotoponimlar ham asosan antroponimlarga bog‘lanib keladi. Lekin ba’zida insonning xarakteriga, xulqiga, ijtimoiy holatiga, tashqi ko‘rinishiga va boshqa sh.k. xususiyatlarini ifodalovchi apellyativlarga birikib kelishi ham mumkin:

a) insonning ruhiy xolatini ifodalovchi:
“Alamli bobo” (To‘rtko‘l tumanining “Beruniy” MFYda joylashgan);

b) insonning xarakter-xususiyatini ifodalovchi:
“Dali bobo” (Taxiatosh tumani Keneges OFYda),

v) insonning ijtimoiy holatini:
“Miskin bobo” (Amudaryo tumanining Qaramon MFY da),

g) insonning jismoniy holatiga nisbatan:
“Polvon bobo” (Amudaryo tumani “Bo‘zsolma” MFY da joylashgan);

d) insonning tashqi ko‘rinishiga nisbatan:
“Qora bobo” (Beruniy tumani “Shabboz” OFYda),

e) insonning kasbiga nisbatan:
“Chiroqchi bobo” (To‘rtko‘l tumanining Kaltaminor ovulida),

j) insonning jismoniy kamchiligiga nisbatan:
“Cho‘loq eshon bobo” (Amudaryo tumani Bo‘zyop ovulida joylashgan);

z) inson gavdasiga nisbatan:
“To‘mpoq bobo” (Ellikqal’a tumanining “Oq Oltin” MFYda joylashgan);

e) insonning psixologik xususiyatiga nisbatan:
Jigarband bobo (Beruniy tumani Xorazm MFYda joylashgan);

yo) inson qo‘lidagi qurolga nisbatan:
“Qilichli bobo” (Beruniy tumani “Beruniy” OFYda joylashgan);

j) diniy nasl-nasabni ifodalashiga nisbatan:
“Xo‘ja bobo” (Amudaryo tumani To‘lqin OFYda), **“Xo‘ja eshon bobo”** (Amudaryo tumani Uyshin MFYda),

z) qadimgi davrdagi mansabni ifodalashiga nisbatan:
“Yuz boshi bobo” (Amudaryo tumani Yuqori qishloq MFYda joylashgan).

Bunday nekrotoponimlarning soni 71 ta bo‘lib, umumning 15,2% ni tashkil qiladi.

Yerning har bir parchasi kimningdir xususiy mulki bo‘lgan bir paytda, tabiiyki, uning egasining nomi asosiy farqlovchi belgiga aylangan”, – deb ko‘rsatadi rus tilshunosi

V.A.Nikonov[2]. Antropooykonimlarga tegishli mazkur fikrni nekrotoponimlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Nekrotoponimlar ham mazkur hududda yashaydigan aholi orasida katta obro‘-e’tiborga molik inson vafotidan keyin dafn qilinsa, o‘sha makon shu insonning ismiga qo‘yiladi.

Yana nekrotoponimlar tarkibida ko‘p ishlatiladigan indikatorlardan biri eshon (qoraqalpoq tilida iyshan) so‘zi hisoblanadi:

“Abdikerim eshon” (Qanliko‘l tumani Bo‘ston OFYda), **“Abdinasir eshon” (**Taxtako‘pir tumanining “Qaratereń” MPJda),

Ba’zan apellyativida antroponimning ba’zi xususiyatlari o‘z aksini topishi mumkin:

a) tarki dunyo qilgan kishi ma’nosini ifodalovchi:

“Darvesh eshon” (Beruniy tumani Shabboz OFYda joylashgan);

b) turkiy urug‘ nomini ifodalovchi:

“No‘g‘ay eshon” (Amudaryo tumani Choykul OFY da joylashgan);

v) urug‘ ichidagi kichik bo‘laklar nomini ifodalovchi:

“Qanli iyshan” (Chimboy tumanining “Qo‘shterak” OFYda joylashgan). Qangli urug‘i qoraqalpoqlarning o‘n to‘rt urug‘ arisiga kiradigan urug‘ nomi bo‘lib, u o‘z navbatida o‘n bir kichik urug‘larga bo‘linadi.[3]

g) tabiiy geografik relef nomi asosida paydo bo‘lgan antroponimni ifodalovchi:

“Qaraqum iyshan” (Bo‘zatov tumani “Ko‘ksuv ” MFYda joylashgan);

d) tarixiy lavozim ma’nosini ifodalovchi:

“Qazi iyshan” (Taxtako‘pir tumani “Mulik” MFYda joylashgan);

e) Qur’oni karimga tegishli ma’noni ifodalovchi:

“Surali eshon” (Kegeyli tumanining “Aqtuba” OFY da joylashgan);

yo) diniy tushunchalarni ifodalovchi:

“Xoja iyshan” (Taxtako‘pir tumanining “Qońıratkól” APJda), **“Hoji eshon” (**Chimboy tumanining “Tagjap” APJda joylashgan).

Mazkur guruhga kiruvchi nekrotoponimlarning soni 53 ta bo‘lib, umumning 11,3 % ni tashkil qiladi.

“Avliyo” so‘zi

“Masharip avliyo” (Kegeyli tumani Aqto‘ba OFYda), **“Asnaujay evliye”** (Amudaryo tumani Nazarxon ovulida), kabi.

Apellyativlari insonlarning har xil xususiyatlarini ifodalovchi komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) ba’zan *bola, qiz* kabi qismlar ishtirok etadi:

“Bala avliye” (Qo‘ng‘irot tumanining “Ustit” OFYda), **“Bala evliye” (**Mo‘ynoq tumani Uchsoy OFYda), **“Qiz avliyosi” (**Taxtako‘pir tumanining “Mulk” OFYda) kabi;

b) “din” komponenti bilan ifodalanadi:

"Din avliyo" (Amudaryo tumanining Nazarxon OFY da joylashgan);

v) qadimgi lavozim nomi bilan ifodalanadi: **“Qazi avliyo” (**Kegeyli tumanining “Aqtuba”OFY da joylashgan) kabi;

g) payg‘ambar avlodi bilan qarindoshlik ma’nosini ifodalovchi komponentlar bilan ifodalanadi: **“Xo‘ja avliyo” (**Amudaryo tumani Nazarxon OFYda), kabi;

d) etnonekrotoponimlar. Millat nomlari bilan ifodalanadi:

“Qozoq avliyo” (Amudaryo tumani “Beshovul” MFYda), **“Rus avliyo” (**To‘rtko‘l tumanining “Ulli bog‘”OFYda, **“O‘ris avliye” (**Qorao‘zak tumanining “Berdaq” APJ da), kabi;

e) millat ichidagi urug‘lar nomini ifodalovchi komponentlar bilan ifodalandi: **“Jamansha avliye” (**Taxtako‘pir tumanining “Beltaw” APJda), kabi;

yo) “shahid” yoki “shahidli” (shahid bo‘lgan inson dafn qilingan) komponenti bilan ifodalanadi: **“Shittli avliye”** (Qorao‘zak tumanining “Quralpa” APJ da joylashgan) kabi;

j) tabiiy relef xususiyatini bildiruvchi so‘z bilan ifodalanadi: **“Aqqum Avliyo” (**Mo‘ynoq tumanining “Qazaq daryo”OFYda), kabi;

z) madaniy yoki yovvoyi holda o‘suvchi daraxt ma’nosini bildiradigan komponent orqali ifodalanadi:

“To‘rang‘il avliyo” (Kegeyli tumani Juzimbog‘ OFYda), kabi.

“avliyo” komponenti ko‘pchilik o‘rinlarda indikator bo‘lib keladi. Bunday nekrotoponimlar Qoraqalpog‘iston nekrotoponimlari orasida 29 ta bo‘lib, bu umumning deyarli 6% ni tashkil qiladi.

Oxun (qoraqalpoqcha axun) komponenti ko‘pchilik o‘rinlarda indikator bo‘lib keladi. Bunday nekrotoponimlar Qoraqalpog‘iston nekrotoponimlari orasida 23 ta bo‘lib, bu umumning deyarli 5% ni tashkil qiladi.

Ular asosan antroponim apellyativli nekrotoponimlarga qo‘shilib keladi. Bunda apellyativ va indikator alohida yoziladi:

“Ali oxun” (Chimboy tumanining “Ko‘kcha qal’a” MPJda),

Ba’zan apellyativ va indikator qo‘shilib, qo‘shma nekrotoponim sifatida ham ishlatiladi:

“Eshimoxun” (Qanliko‘l tumanining “Besko‘pir” OFYda), kabi.

Xo‘ja komponenti ham ko‘pincha indikator bo‘lib keladi. Nekrotoponimlar ichida mazkur komponentlisi **15** ta bo‘lib, umumning 3,2% ini tashkil qiladi.

“Xo‘ja” komponenti ba’zan apellyativ bo‘lib kelib, “qo‘yg‘an” so‘zi bilan bog‘lanib keladi. Bunda “qo‘yg‘an” so‘zi mazkur joyga “qo‘yilgan”, ya’ni “dafn qilingan” degan ma’noni bildiradi: **“Xo‘ja qoyg'an” (**Taxtako‘pir tumanining Qoraoy ovulida), **“Xo‘ja” (**Kegeyli tumanining “Qumshung‘il” OFYda joylashgan). Keyingi nekrotoponim birgina komponentdan iborat bo‘lsa ham, baribir yuqoridagi ma’noni ifodalaydi.

Maxsum (qoraqalpoqcha maqsim) komponentli nekrotoponim jami **5** ta bo‘lib, umumning bir foizdan sal ko‘pini tashkil qiladi. Ular faqat antproponim apellyativli bo‘lib, maxsum komponenti indikator vazifasida keladi: **“Musa maqsim” (**Qo‘ng‘irot tumani Qipchoq ovulida),

Xulosa

Bu guruhga kiruvchi nekrotoponimlarning qolganlari ham antroponimlar bilan bog‘liq bo‘lib, kishilarning u yoki bu xususiyatlari, tashqi ko‘rinishi, jismoniy kamchiligi, xarakteri va sh.k.lar bilan bog‘liq hisoblanadi. Mazkur guruhdagi nekrotoponimlar 267 ta bo‘lib, umumning 53% ini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rinboyev B. Samarqand toponimlarining izohi.–Samarqand:Un -t ., 1997. -202 b .
2. Никонов В.А. Введение в топонимику.– М.: Наука. 1965. – 179 с.
3. M. Nizanov. Qoraqalpoqlar, – Nukus: Bilim, 2020. –S. 191.
4. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 98.
5. Yusupov S.Sh. Qoraqalpog‘iston nekrotoponimiyasida qo‘llaniladigan toponimik indikatorlar. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. -Namangan, 2024-9. –S. 417-414

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna
Urganch davlat pedagogika instituti
“O‘zbek va rus tili adabiyoti” kafedrasi dotsenti
adambayevna81@gmail.com

ZAMONAVIY O‘ZBEK ROMANCHILIGI TARAQQIYOTI VA UNDA INSON RUHIYATINING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. Zamonaviy o‘zbek romanchiligi taraqqiyoti va unda inson ruhiyatining aks ettirilishi mavzusi, o‘zbek adabiyotining yangi davriga xos bo‘lgan jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotdir. Ushbu sohada asarlar insonning ichki dunyosi, uning hissiy va fikriy holatlari, hayotiy iztiroblari va qarorlaridagi murakkabliklar orqali tasvirlanadi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida o‘zbek romanlarida zamonaviy ijtimoiy, madaniy va ma'naviy o‘zgarishlar, inson psixologiyasi va ichki kechinmalari tasvirlanmoqda.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy o‘zbek romanchiligi, inson ruhiyati, obraz, ichki dunyo, hissiy kechinmalar, ijtimoiy o‘zgarishlar, shaxsiy qarorlar, adabiy taraqqiyot, roman, tafakkur jarayonlari, o‘zbek adabiyoti, zamon va makon, ichki iztiroblar, o‘zbek yozuvchilari.

Ургенчский государственный педагогический институт
доцент кафедры «Узбекской и русской литературы»
Хаджиева Дилфуза Адамбаевна
adambayevna81@gmail.com

РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ РОМАНОВ И ОТРАЖЕНИЕ В НИХ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ

Аннотация: Развитие современного узбекского романизма и отражение в них человеческого духа представляет собой исследование, направленное на изучение процессов, характерных для новой эпохи узбекской литературы. В этом направлении произведения изображаются через сложности внутреннего мира человека, его эмоциональных и психических состояний, жизненных страданий и решений. Узбекские романы конца XX - начала XXI веков изображают современные социальные, культурные и духовные изменения, психологию и внутренние переживания человека.

Ключевые слова: Современный узбекский романизм, психика человека, образ, внутренний мир, эмоциональные переживания, социальные изменения, личные решения, литературное развитие, роман, мыслительные процессы,

узбекская литература, время и пространство, внутренние страдания, узбекские писатели.

Urgench State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department
of "Uzbek and Russian Literature"
Khajiyeva Dilfuza Adambayevna
adambayevna81@gmail. com

THE DEVELOPMENT OF MODERN UZBEK NOVELS AND THE REFLECTION OF THE HUMAN PSYCHE IN THEM

Annotation: The topic of the development of modern Uzbek novels and the reflection of the human psyche in them is a study aimed at studying the processes inherent in the new era of Uzbek literature. In this area, works are described through the inner world of a person, his emotional and mental states, life suffering and the complexities of his decisions. At the end of the 20th and beginning of the 21st centuries, modern social, cultural and spiritual changes, human psychology and internal experiences are described in Uzbek novels.

Keywords: Modern Uzbek novel, human psyche, image, inner world, emotional experiences, social changes, personal decisions, literary development, novel, thought processes, Uzbek literature, time and space, inner suffering, Uzbek writers.

Kirish. Har bir millatning iqtisodiy qudrati, uning sanoat rivoji va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, milliy adabiyotning darajasi ham aynan shu taraqqiyotga asoslanadi. Iqtisodiy qudratning kuchayishi, ayniqsa og‘ir sanoatning rivojlanishi, jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi va bu o‘z navbatida adabiyot va san’atning rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi.

Roman janri adabiyotda o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki u nafaqat xalqning badiiy tafakkurini ifodalaydi, balki uning intellektual rivojlanishining yuqori bosqichini ham namoyon etadi. Roman milliy adabiyotning badiiy tafakkur darajasini ko‘rsatadigan bir o‘lchov sifatida xizmat qiladi, chunki u insoniyatning murakkab va ko‘p qirrali tajribasini, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va shaxsiy masalalarini tasvirlaydi. Roman, bir tomondan, jamiyatning o‘zgaruvchan real hayotini aks ettirsa, boshqa tomondan, insonning ichki dunyosini, uning kurashlari, xohishlari va maqsadlarini ko‘rsatadi.

Metodlar.Roman janrining taraqqiyoti millatning madaniy o‘ziga xosligini, uning intellektual va estetik taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi. Bu janrning rivoji, o‘z navbatida, xalqning ma'naviy va ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Shunday qilib, har qanday millatning romani o‘ziga xos estetik tafakkurini aks ettiradi va uning badiiy tafakkur darajasini ko‘rsatadi.

Haqiqatan ham, har bir mamlakatning adabiyoti xalqining tafakkur darajasi, madaniyati va tarixiy rivojlanishining aksidir. Roman adabiyotdagi o‘ziga xos janr bo‘lib, nafaqat estetik jihatdan, balki milliy o‘zlikni, jamiyatdagi o‘zgarishlarini, kishilarning ichki dunyosini tasvirlashda ham katta ahamiyatga ega. [1]

Roman janri adabiy tafakkurning yuqori bosqichi sifatida millatning badiiy tafakkurini namoyon qiladi. U o‘zida shaxsiy va ijtimoiy holatlar, insonning ichki kurashlari, axloqiy va estetik qarashlar, shuningdek, tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq murakkab masalalarni aks ettiradi. Shu sababli, roman millatning intellektual va madaniy rivojlanishining ayni vaqtda darajasini ham ko‘rsatadi.

Agar iqtisodiy rivojlanish og‘ir sanoatning rivojlanishi bilan belgilansa, adabiy rivojlanish, ayniqsa romanning taraqqiyoti, millatning tafakkur va estetik idealari qanday shakllanganligini aks ettiradi. Demak, roman nafaqat o‘zining badiiy jihatlari bilan, balki jamiyatning intellektual rivojlanishining muhim bir ko‘rsatkichi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Buni turli xil usullarda ko‘rishimiz mumkin.

Roman janri haqidagi tushuncha, albatta, uning tug‘ilgan joyi va vaqtiga, shuningdek, unga xos xususiyatlarni tahlil qilishga asoslangan holda kengayadi.

Romanlarning milodiy XII-XIII asrlarda, ya'ni O‘rta asrlarning oxirlariga kelib shakllanib, o‘sha davrda Rim imperiyasining merosi sifatida rivojlangan lotin tili asosidagi tillarda yozilganligi haqiqatdan ham muhim bir tarixiy o‘rin tutadi. Bu davrda lotin tili badiiy va ilmiy aloqalar uchun keng qo‘llanilayotgan yagona rasmiy til edi, ammo xalq orasida o‘zaro muloqotda bo‘ladigan dialektlar, ya’ni “roman tillari” (ispan, fransuz, italyan va boshqa tillar) shakllana boshladi. [2]

Natijalar. Ilk romanlar asosan bu roman tillarida yozilgan bo‘lib, ular o‘zlarining ilk namunalarida ko‘proq ajoyib hikoyalar, ma'naviy o‘zgarishlar va fantastik elementlarni o‘z ichiga olgan. Bu davrda romanning shakllanishi ikki asosiy jarayon bilan bog‘liq edi: birinchidan, xristianlikning ta'sirida diniy va axloqiy qadriyatlarni tarqatish, ikkinchidan, jahon va inson tafakkurining yangi masalalarini ochib berish.

Rman janridagi asarlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining uchinchi kitobi, Omon Muxtorning “Xotin podshoh” va “Muhabbat o‘limdan kuchli”, Ahmad A’zamning “O‘zi uylanmagan sovchi”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, Jumaqul Qurbonovning “Sardoba”, Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi”, Nurilla Abbosxonning “Sho‘rqishloq”, Abduqayum Yo‘ldoshning “Bankir” romanlari tobora shaxslashib borayotgan millat vakillarining ichki olamidagi turli ziddiyatlarni ko‘rsatishga bag‘ishlangani bilan ajralib turadi.

Taniqli yozuvchi Omon Muxtorning “Muhabbat o‘limdan kuchli” romanida ezgulik va yovuzlikning o‘zaro kurashi qiziqarli tarzda tasvirlangan. Adibning ushbu asarda keltirgan shaxsiy taqdirdagi kurashlar orqali yovuzlikning sababsiz, adolat va ezgulikka qarshi kurashganini ko‘rish mumkin. Shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, Ibrohim, G‘ayrat, Nusrat, Hasan va Voris kabi obrazlarning ichki kechinmalari va o‘zaro ziddiyatlari orqali yovuzlikning qanchalik noaniq va kechirim qilmas tarzda mavjudligini ko‘rsatadi.

Romanda inson ruhiyati bilan aralashgan real tasvirlari esa, adibning dunyoqarashini va zamonaviy voqealarni qanday qilib ma’naviy va psixologik jihatdan birlashtirib, chuqurroq ma’nolarni aks ettirishga qaratilganini anglatadi. Aksariyat asarlar kabi, bu yerda ham insoniyatning ichki kurashi va ruhiy inqirozlari asosiy mavzu bo‘lib, zamon va makonni tashlab, qalbdagi qarama-qarshiliklarni o‘rganishga undaydi.

Roman janrining rivojlanishiga ta’sir etgan asosiy omillar, albatta, o‘sha davrning madaniy va ijtimoiy hayotiga, shuningdek, odamlar orasidagi tafakkur va dunyoqarashning o‘zgarishlariga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, roman janrining tug‘ilishi va rivojlanishi insoniyatning estetik tafakkurini yangi bosqichiga o‘tishini ko‘rsatadi.

O‘rta asrlarning dastlabki davrlarida adabiyotning asosiy qismi lotin tilida bo‘lib, bu til ko‘plab odamlar uchun tushunarli emas edi. Shu sababli ko‘pchilik uchun adabiyotdan bahramand bo‘lish imkoniyati cheklangan edi va shuning natijasida, ijtimoiy tabaqalarning, ayniqsa ishchi sinfning, o‘z ehtiyojlari va didiga mos keladigan asarlar yaratishga talab bo‘ldi.[3]

Roman janrining paydo bo‘lishi aynan shu ijtimoiy ehtiyojga javoban yuzaga keldi. O‘sha davrda aholi orasida lotin tilini bilmaydigan, shu bilan birga adabiyotga qiziqadigan katta bir qatlam mavjud edi. Ushbu qatlamning vakillari, kosib-hunarmandlar va ishchilar, o‘z tilida va o‘zlariga tushunarli bo‘lgan hikoyalarni, qissalarni kutishardi. Bunday asarlar ularga adabiy ta'limotlardan bahramand bo‘lish imkonini yaratdi va shu tariqa roman janrining dastlabki shakllari rivojlana boshladi.

Ilk paydo bo‘lgan romanlar asosan, o‘z davrining tilida yozilgan va odatda “conte roman” (ya’ni, “roman tilidagi qissa yoki hikoya”) deb atalgan. Ushbu asarlar ko‘pincha diniy yoki axloqiy mavzularda bo‘lib, oddiy insonlarning hayotini, ularning ma’naviy va axloqiy izlanishlarini tasvirlashga qaratilgan edi. Aynan shu davrda, roman janrining badiiy va estetik ifodasi shakllanib, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni voqealar rivojini davom ettirish, personajlarning ichki dunyosini ochish va ijtimoiy haqiqatni aks ettirish kabi elementlar rivojlandi. [4]

Bunday asarlar ijtimoiy sinflarning ehtiyojlariga javob berish bilan birga, xalqqa yaxshilik va yomonlik, axloqiy fazilatlar va xatolar haqida tushuncha berib, ma'naviy va axloqiy tarbiyaviy rolni o‘ynagan. Roman janrining paydo bo‘lishi, shuningdek, o‘sha davrdagi adabiyotning “halk” va “elat” bilan bog‘liq bo‘lgani, uning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga qanday ta'sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Antik davrda hamda O‘rta asrlarning boshlang‘ich davrida barcha badiiy asarlar yuqori, “yuksak poeziya” sifatida qaralgan, ya’ni ularda qahramonlar asosan ma’budlar, saltanat egalari yoki yuksak ijtimoiy sinflarga mansub shaxslar edi. Bu asarlar esa, yuqori darajadagi madaniyat, axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi, lekin oddiy odamlar va mehnat kishilari uchun ular tushunarli emasdi.

Bunday sharoitda, roman janrining paydo bo‘lishi ijtimoiy ehtiyojga javob berish sifatida izohlanishi mumkin. O‘rta asrlar jamiyatida, xususan, Yevropada, mehnat kishilari (ishchilar, kosib-hunarmandlar) uchun yuksak poeziya yoki antik adabiyotlar

mutlaqo begona edi. Ularning o‘ziga xos dunyoqarashi va ehtiyojlari mavjud edi, va ular o‘zlarini ifodalashga, o‘z hayotini tushunarli tarzda aks ettiradigan adabiy asarlarga muhtoj edilar. Antik davrning “yuksak poeziya” an’anasi esa, aynan shu qatlamlar uchun begona bo‘lib, asarlarning tiliga, shakliga va mazmuniga ular uchun mos keladigan biror narsa topish qiyin edi.

Roman janrining shakllanishi hamda rivojlanishi aynan shunday ijtimoiy ehtiyojlar va tarixiy sharoitlarning natijasi bo‘ldi. Mehnat kishilari uchun tushunarli bo‘lgan til va oddiy insonlarning hayotini tasvirlaydigan hikoyalar yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, roman janrida qahramonlar o‘ziga xos tarzda ham oddiy odamlar bo‘lishi, ham ularning ichki dunyosi, kurashlari va hissiyotlari aks ettirilishi kerak edi.

Romanlarning ilk shakllarida qahramonlar ko‘pincha kishilarning kundalik hayotiga yaqin bo‘lgan, ular uchun tushunarli bo‘lgan personajlar edi. Bu o‘zgarish, shuningdek, adabiyotning ham ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga, san’atning xalq va mehnat kishilariga yo‘naltirilishiga olib keldi. Roman, shunday qilib, eski “yuksak poeziya” dan farqli o‘laroq, oddiy odamlarning hayoti va o‘ziga xos dunyoqarashini badiiy tarzda ifodalovchi janr sifatida paydo bo‘ldi. Bu o‘zgarish, albatta, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarning ehtiyojlari va madaniy rivojlanishiga javoban yuzaga keldi. [5]

Holbuki o‘sha davrga kelib mehnat kishilarining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli hamda ularning estetik ehtiyojlarining adabiyotga ta'siri haqida so‘z yuritilmoqda. Haqiqatan ham, XII asrdan boshlab, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrda ishlab chiqaruvchilar, ya'ni mehnat qiladigan qatlam, o‘zining soni va iqtisodiy mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi. Shu bilan birga, ularning estetik va madaniy ehtiyojlari ham o‘zgarib, adabiyotda yangicha yo‘nalishlar va shakllar yuzaga keldi.

Avvalgi davrlarda badiiy asarlar asosan yuqori ijtimoiy sinflar, ya'ni ma’budlar, kohinlar, saltanat egalari yoki aslzodalar didiga mos yaratilgan edi. Bunday asarlar, tabiiyki, insonlar uchun tushunarli emasdi. Ammo XII asrda iqtisodiy kuchga ega bo‘lgan mehnat kishilari o‘zlarining estetik ehtiyojlarini ham his eta boshladilar. Bu ehtiyoj, roman janrining paydo bo‘lishida o‘z aksini topdi.

Romanlar ishlab chiqaruvchilarning, ya'ni oddiy odamlarning hayotini tasvirlashga, ularning ichki dunyosini, kunlik muammolarini va ijtimoiy mavqeiga bog‘liq kurashlarini ifodalashga qaratilgan edi. Bunday asarlar, albatta, o‘qiydiganlarning, ya’ni mehnat kishilarining intellektual darajasiga mos bo‘lishi tabiiy edi. Ularning tushunishi va qiziqishlariga mos keladigan, oddiy, oson tushunarli tilda yozilgan romanlar, ular uchun yangi bir madaniy va estetik tajriba bo‘ldi. Shu tarzda, romanlar nafaqat badiiy shakl sifatida, balki ijtimoiy ehtiyojlarga mos keladigan, jamiyatning keng qatlamlari uchun mo‘ljallangan asarlar sifatida rivojlandi. [6]

Darhaqiqat, bu o‘zgarish adabiyotning ko‘proq xalq uchun keng ommaga yo‘naltirilgan va umuman xalqning badiiy tafakkurini aks ettirgan shakllarini yaratishning boshlanishi edi. Roman janrining xalq orasida keng tarqalishi, uning mehnat

qiladigan va oddiy odamlar hayotini tasvirlashga qaratilganligi, shuningdek, adabiyotda yangi estetik qadriyatlar va ko‘rinishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Demak, roman janri, aynan o‘sha davrda ijtimoiy va iqtisodiy kuchlarga ega bo‘lgan uchinchi qatlamning madaniy ehtiyojlariga javoban yuzaga keldi.

Roman janrining shakllanishi va rivojlanishi juda uzoq vaqt davomida adabiyot nazariyachilarining e’tiboridan chetda qolgan. Bu asosan romanning o‘ziga xos xususiyatlarini aniq belgilanishi va tizimlashtirilishi uchun ilmiy nazariy asoslarining kech yaratilganligi bilan bog‘liq. Roman “yuksak poeziya”dan keskin farq qiladigan janr sifatida yuzaga kelgan, shuning uchun u asrlar davomida akademik tadqiqotlar va adabiy nazariya doirasida kamroq diqqatga sazovor bo‘ldi. Bu janrning o‘ziga xosligi va shakllanishining aniq me’yorlarini belgilashda nazariy qoliplarning yetishmasligi, romanning xilma-xil va “qirg‘oqsiz” janr sifatida rivojlanishiga olib keldi.

Roman o‘zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. U nafaqat turli ijtimoiy qatlamlarning va hayotning turli jabhalarining tasvirini o‘z ichiga olgan, balki insonning ichki dunyosini, ruhiyatini, hissiyotlarini va o‘z-o‘zini anglash jarayonlarini ham badiiy idrok etishda yuksak muvaffaqiyatga erishdi. Shu bois, XIX asrda o‘z vaqtida adabiyot nazariyasini rivojlantirgan mutafakkirlar, jumladan, Georg Wilhelm Friedrich Hegel, roman janrini ilmiy ravishda tahlil qilishga urinishdi.

Vissaron Belinskiy romanni “individning eposi” deb atagan, ushbu janrning insonning ichki dunyosini tasvirlashdagi rolini to‘g‘ri aniqlagan.

Adabiyotida romanning birinchi va eng muhim vazifasi insonning individual tajribasini, ruhiyatini badiiy tarzda ifodalash ekanligini ko‘rsatgan. Demak, roman o‘zining markaziy mavzulari sifatida shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya, ichki kurashlar, hissiy rivojlanish va individual fikrlash jarayonlarini taqdim etadi. [7]

Roman janrining shakllanishi, uning asosiy xususiyatlaridan biri – shaxsning ichki dunyosini tasvirlash – inson tafakkurining yangi bosqichini, ya’ni modern davr adabiyotining kelajagini belgiladi. Bu o‘zgarish, ayniqsa, avvalgi “yuksak poeziya”da aks etgan shaxsiyati va ruhiy holati ko‘rsatilmagan, faqat yuksak qahramonlar yoki mifologik obrazlarga asoslangan asarlardan farq qiladi. Roman, shunday qilib, individual tajriba va shaxsiy dunyoqarashning asosi sifatida paydo bo‘lib, adabiyotda yangi yo‘nalishlarni ochdi va uning ilmiy tahlili uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Bu janrining rivojlanishidagi muhim burilishlarni va ayniqsa, “yopiq” romanlar bilan bog‘liq o‘zgarishlarga to‘xtalib o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylayman. Fransuz adibi M. M. de Lafayetning “Malika Klevskaya” asari romanning yangi shakli, ya’ni insonning ichki dunyosini, o‘y-kechinmalarini chuqur tasvirlashga qaratilgan yondashuvning namunasidir. Ushbu asarda, roman tasvirining asosiy fokusi shaxsiyatning ichki olamiga, uning ruhiyatiga, tuyg‘ulariga, xohishlariga, qarorlarining motivlariga qaratilgan. Bu albatta, romanning ijtimoiy kontekstidan ko‘ra, insonning shaxsiy va ruhiy dunyosini aks ettirishga qaratilgan yangi janrning paydo bo‘lishi hisoblanadi.

Yopiq romanlarning xususiyati shundaki, ular personajlarning xatti-harakatlarini yoki tabiati va dunyoqarashini faqat ijtimoiy va tashqi omillar bilan bog‘lamay, balki

ularning ichki hissiyotlari va ruhiyatiga asoslanadi. Bu romanlarda asosiy e'tibor, o‘z ichki dunyosini o‘zgartirish, o‘zini anglash jarayonlari va insonning o‘z-o‘zini kashf etishiga qaratilgan. Bunday romanda, o‘qiruvchi nafaqat tashqi voqealarga, balki qahramonning ichki kurashlari, ichki dialoglari va o‘zgarishlariga guvoh bo‘ladi. Bu romanlar, ayniqsa, psixologik aspektlarga qaratilgan bo‘lib, inson ruhiyatining murakkabligini va chuqurligini aks ettiradi.

Keyinchalik, romanning rivojlanishi davomida, bu ikki xususiyat – ochiqlik va yopiqlik – birlashib, yanada murakkab va xilma-xil shakllarga ega bo‘lgan asarlar yaratishga olib keldi. Ya'ni, romanlar nafaqat personajlarning ichki olamini, balki ularning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy aloqalari, psixo-fiziologik holatlari bilan bog‘langan tarzda tasvirlandi. Inson ruhiyatining ijtimoiy va psixologik asoslarini bir vaqtda badiiy tasvirlashning muhimligi shu tarzda yangi, yanada kompleks roman shakllarini paydo qildi. [8]

Bunday aralash qo‘llanish, ya'ni ochiq va yopiq elementlarning birlashishi, roman janrini yanada boyitdi va uning ijtimoiy va psixologik jihatlarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Bu holat, romanning nafaqat bir odamning ichki dunyosini, balki uning jamiyat va tashqi dunyo bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lishini ko‘rsatishga yordam berdi. Natijada, roman janri faqat shaxsiy va ichki ruhiy masalalarni yoritish bilan qolmay, balki insonning ijtimoiy o‘zgarishlarga qanday munosabatda bo‘lishini, jamiyatdagi rolini ham ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Zamonaviy o‘zbek romanchiligining rivojlanishi va uning polifonik bosqichga o‘tganligi haqidagi tahlil juda muhim. Haqiqatan ham, bugungi kunda o‘zbek romani o‘zining xilma-xilligi, murakkabligi va turli qahramonlarning ichki dunyosini chuqur aks ettirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Polifoniyalik, ya’ni ko‘plab ovozlar, qarashlar va qarama-qarshi fikrlarning birlashtirilishi, romanning yangi davrda qanday shakllanishi va ijtimoiy haqiqatni ko‘rsatishdagi asosiy usulga aylangan.

Zamonaviy o‘zbek romani faqatgina voqealar qiziqarli yoki tilning shirali bo‘lishi bilan cheklanmaydi. Yangi zamon romanchiligi, aynan, qahramonlarning ichki dunyosini, ularning ruhiyatini, fikr va hissiyotlarini yanada chuqurroq va aniqroq aks ettirishga qaratilgan. Bunday romanda har bir personajning individual qarashlari va tushunish uslubi o‘ziga xos tarzda ifodalanadi, bu esa romanni yanada boyitadi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek romani muallifidan har bir qahramonni o‘z konsepsiyasiga, ya'ni uning hayotini, qarorlarini, ichki kurashlarini, maqsadlarini va xatolarini to‘liq tushunish va tasvirlash talab qilinadi.

Bundan tashqari, romanning “umri uzoqligi”ni ta’minlash uchun uning faqat ko‘rinadigan voqealar va personajlar bilan cheklanmasligi, balki insonning ichki olami, ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar va psixologik jihatlar ham chuqur tahlil qilinishi kerak. Shu bilan birga, zamonaviy romanning polifonik strukturasida bir nechta ijtimoiy qatlamlarning va dunyoqarashlarning ko‘rsatilishi, o‘quvchini faqat badiiy tafakkur bilan emas, balki uning o‘ziga xos hayotiy va ma'naviy qiymatlarini o‘rganishga ham undaydi.

Xulosa. Shunday qilib, o‘zbek romanchiligi bugungi kunda har bir personajning individual voqeasi va dunyoqarashi orqali yanada boy va murakkab shaklga ega bo‘ldi. Bu romanning rivojlanishining yangi bosqichi bo‘lib, u insoniyatning ruhiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini har tomonlama aks ettiradi.

Zamonaviy o‘zbek romanchiligi, o‘zining polifonik taraqqiyoti bilan, adabiyotdagi yangi bosqichni anglatadi. Bugungi kunda romanlar faqat voqealar yoki tilning oson bo‘lishi bilan emas, balki qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiyatini va shaxsiy qarashlarini chuqur aks ettirishga qaratilgan. Har bir personajning individual dunyoqarashi hamda o‘ziga xos konsepsiyasi, romanning boy va murakkab shakllarini yaratadi. Zamonaviy romanchilikda inson ruhiyatining ijtimoiy, psixologik asoslari, uning ichki kurashlari va o‘z-o‘zini anglash jarayoni hamda ichki dunyo bilan tashqi dunyo o‘rtasidagi munosabatlar mukammal tarzda ifodalanadi. Bu jarayon, romanning “umri uzoqligini” ta’minlash, ya’ni uning zamonaviy ijtimoiy hamda ma’naviy haqiqat bilan uyg‘unligini saqlashga yordam beradi. Shu tarzda, o‘zbek romanchiligi yangi, murakkab, xilma-xil shakllarga ega bo‘lib, insoniyatning chuqur ruhiy va ijtimoiy o‘zgarishlarini ko‘rsatishga qaratilgan adabiyotning yuqori bosqichiga o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

. Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat. Roman. – Toshkent: Sharq NMAK, 2007.

3. Pardayeva Z. Hozirgi o‘zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2003;

4.Yakubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Filol. f. d-ri. diss. – Toshkent: 2018

5. Yakubov I. “Mini-roman” yaratish yo‘sinidagi eksperimental izlanishlar. “World of Philology” Scientific Journal Volume 1 Issue 2 / December, 2022.

Kamilova Nazokat Saidjonovna
Urganch davlat pedagogika instituti Axborot siyosati masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi – matbuot kotibi,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Elektron pochta: nazokat4826@mail.ru

O‘ZBEKISTON XALQ YOZUVCHISI ISAJON SULTONNING “SOFIYA” HIKOYASIDA DINIY MOTIVLARNING BADIIY SINTEZI

Annotatsiya: Tadqiqotda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Sofiya” hikoyasidagi diniy motivlar jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi an’analari bilan solishtirilgan holda adibning original obraz va badiiy sintezdan mohirona foydalanishdagi poetik mahorati misollar asosida ochib beriladi hamda tahlil qilinadi. Dunyo adabiyotshunosligi va o‘zbek adabiyotshunosligida diniy motivlarning badiiy sintezi masalasi va ushbu mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi, diniy motivlarning badiiy sintezi “Sofiya” hikoyasi misolida tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: syujet, ilohiy muhabbat ramzi, roviy, ma’naviy bo‘ronlar, tashbeh (o‘xshatish) san’ati, tashxis (jonlantirish) san’ati, epitet (sifatlash) san’ati, tajohuli orifon san’ati, talmeh san’ati, o‘tkinchi dunyo ramzi, badiiy sintez.

Назокат Камилова Саиджоновна
Ургенчский государственный педагогический институт.
Советник ректора по вопросам информационной политики – пресс-секретарь,
Соискатель Ургенчского Государственного университета,
Электронная почта: nazokat4826@mail.ru

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СИНТЕЗ РЕЛИГИОЗНЫХ МОТИВОВ В ПОВЕСТИ “СОФИЯ” НАРОДНОГО ПИСАТЕЛЯ УЗБЕКИСТАНА ИСАДЖОНА СУЛТАНА

Аннотация: В исследовании религиозные мотивы в повести “София” народного писателя Узбекистана Исажона Султана сопоставляются с традициями мирового и узбекского литературоведения, выявляется и анализируется поэтическое мастерство писателя в умелом использовании оригинальной образности и художественного синтеза основпнных на примерах. На примере повести “София” рассматривается проблема художественного синтеза религиозных мотивов в мировом литературоведении и узбекском литературоведении и актуальность этой темы сегодня – художественного синтеза религиозных мотивов.

Ключевые слова: сюжет, символ божественной любви, рассказчик, духовные бури, искусство сравнения (аналогии), искусство диагностики (оживления), искусство эпитета (описания), искусство таджахули Орифон, искусство талме, символ преходящего мир, художественный синтез.

Nazokat Kamilova
Urgench State Pedagogical Institute, Advisor to the Rector on Information Policy Issues – Press Secretary,
Independent Researcher of Urgench State University
Email: nazokat4826@mail.ru

ARTISTIC SYNTHESIS OF RELIGIOUS MOTIVES IN THE STORY OF "SOFIA" BY UZBEKISTAN WRITER ISAJAN SULTON

Annotation: The study compares the religious motifs in the story "Sofia" by the national writer of Uzbekistan Isajon Sultan with the traditions of world and Uzbek literary criticism, and analyzes the poet's poetic skill in skillful use of original images and artistic synthesis based on examples. The issue of artistic synthesis of religious tones in world literature and Uzbek literature and the relevance of this topic today, the artistic synthesis of religious motifs is described on the example of the story "Sofia".

Key words: plot, symbol, divine love, narrator, spiritual storms, allegory, foreshadowing, epithet, tajhuli oriphon, talmeh, transient world, literary synthesis.

Bugungi kunda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning bir qator asarlari xorijlik adabiyotshunoslarning ham e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Adibning nasri, jumladan, hikoyalari xususida ham tadqiqotlar yaratilmoqda **[1]**. Yozuvchining keyinchalik e’lon qilgan hikoyalari ham o‘zbek adabiyotining so‘nggi yillardagi eng yaxshi asarlari sifatida e’tirof etilmoqda. Isajon Sultonning hikoyalari ingliz, turk, rus va nemis tillariga tarjima qilinoqda. „Baliq“ („Xalqlar do‘stligi“ jurnali, 2012-yil 9-son, Rossiya), „Suvdagi kosa“ hikoyasi (“Russkoe pole” adabiy jurnali, 2012-yil 4-son, Moldova), „Ajoyibotlar“ hikoyasi („Ziyoli. Sankt-Peterburg“ adabiy gazetasi, № 2, 2013-yil, Rossiya), „Samoviy bog‘“ hikoyasi („Intelligent Sankt-Peterburg“ adabiy gazetasi, № 1, 2014-yil, Rossiya), „Korkuluk“ hikoyasi („Kurgan Edebiyat“ adabiy jurnali, № 3, 2014-yil, Turkiya), “İrem Bahçesi“ hikoyasi („Kurgan Edebiyat“ adabiy jurnali, № 1, 2015-yil, Turkiya) hamda biz tadqiq qilmoqchi bo‘lgan „Sofiya“ hikoyasi („Edebice“ adabiy jurnali, № 14, 2018-yil. Turkiya) ham shular jumlasidan.

Isajon Sultonning “Shamolli kecha”, “Sog‘inch”, “Avliyo”, “Oydinbuloq” hikoyalarida shamol esishi, o‘yini, qahri, muloyimligi o‘ziga xos timsol hisoblanadi. Adibning “Boqiy darbadar” romanida bo‘ron ilohiy aralashuv va dahshatli kuch **[2]** sifatida namoyon bo‘ladi va asar yakunida boqiy darbadardan boshqa hammaning (Yaratganning itoatkor maxluqi sifatida) halok bo‘lishiga sabab bo‘ladi. “Ozod” romanida esa shamol asarning boshidan oxirigacha qahramon bilan birga bo‘ladi va o‘ziga xos ramziylikning go‘zal namunasini o‘zida namoyon qiladi. U roman davomida

ham ustoz, ham hamroh, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi sifatida gavdalanadi. Qahramonning Uchyong‘oqdan Iskandar tog‘igacha borishida shamol hamrohlik qiladi va yo‘l bo‘yi u bilan gaplashib boradi.

Hikoya **syujeti** juda oddiy, deyarli voqealar tasviri yo‘q. Faqatgina to‘fon tasviri va roviyning to‘fonga mos qalb kechinmalari, bir odamni chaqmoq urganligi va uning yo‘qolib qolganligi tasviri. Asarda Sofiya nomi hamma yoqni vayron qilishga qodir to‘fonga berilgan nom hisoblanadi.

Hikoya boshidan oxirigacha ramziylikka asoslangan. Undagi ramziyliklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ilohiy muhabbat ramzi – hikoyadagi **to‘fon** oddiy tabiat hodisasi emas, balki ilohiy muhabbat ramzi sifatida gavdalanadi. Aynan shu ramzni anglash orqali o‘quvchi hikoyani to‘g‘ri tushunishi mumkin, agar shu ramz anglanmasa hikoya oxirida nom-nishonsiz yo‘q bo‘lib qolgan chaqmoq urgan kishining nega hech qayerda daragi yo‘qligi o‘quvchiga anglashilmaydi. Hikoyadan muallif istagan xulosani ham chiqara olmaydi. Oddiy tabiat hodisasi sifatida qabul qilinadigan bo‘lsa, hikoya xulosaga ega emas, u oddiy to‘fon tasviridan va roviyning undan ta’sirlanishidan iborat, xolos. Muhabbatni ham biz majoziy muhabbat emas, balki *ilohiy muhabbat* deb tushunishimiz lozim bo‘ladi. Ana shundagina hikoya mazmuni o‘quvchi uchun yanada kengroq ma’no kasb eta boshlaydi. Hikoyaning boshlanmasida muallif hikoyani ramziy tushunishga ishora qiladi hamda muhabbat so‘zini tilga oladi: “Sofiya” so‘zi yunonchada yuksak **ilohiy donolik, iymon, umid va muhabbat** ma’nolarini anglatar ekan **[3].** Bir oz mushohada qilib ko‘rgach, to‘satdan... unda o‘zimiz bilgan oddiy dovul emas, tamomila boshqa hodisa tilga olinganini, to‘fonning sirayam to‘fon emas, balki muhabbat dolg‘alari ekanini tushunib qoldim” **[4].**

2. Ilohiy muhabbat egasi bo‘lgan inson ramzi – hikoyada ilohiy muhabbat egasi bo‘lgan inson ramzi *roviyning o‘zidir*. Hikoyada Sofiyaning qisqa muddat ichida quturishi, asov toyday ko‘kka intilishi, toshqin daryoday yutoqib-yutoqib po‘rtana urishi, adasiz kuchi bilan og‘ochlarni qars-qars sindirishi kabi holatlar tasvirlanadi. Biroq hikoyachi to‘fonni vayron qilguvchi kuch sifatida tasvirlay turib, qalbidagi po‘rtanalarga to‘fonning hamohang ekanligini ta’kidlaydi. To‘fonni erkalab, “Mening Sofiyam” deya ataydi. Sofiya muhitni o‘zgartiradi. Sharillab yoqqan yomg‘ir nafaqat atrofni, balki qalbdagi g‘uborlarni yuvib tashlaydi: “Bu mahobatlar mening ham dilimga allaqachon ko‘chib o‘tgan, jon olg‘uchi bu go‘zallik qarshisida lol-u hayron, o‘zim ham cho‘g‘day bo‘lib Sofiyaga mahliyo edim” deysi roviy hikoyada. Aslida esa roviy *Sofiya timsolida Allohning qudratiga* mahliyodir.

3. Ilohiy muhabbat egasi bo‘lmagan inson ramzi – ramziy ma’noda *chaqmoq urgan kishi* ham aslida *muhabbatsiz inson ramzi* ekanligi roviy so‘zlaridan anglashiladi. Hikoyada muallif chaqmoq urgan kishini “muhabbatsiz bir xilda hayot kechirayotgan odam” sifatida ta’riflaydi: “Ishq inson hayotiga shu tarzda, bo‘ron yanglig‘ kirib kelishi ham mumkin-ku? Mana shu nuqtadan turib nazar tashlasam, *dala hovli bor-yo‘g‘i inson muvaqqat turadigan makon* ekani ayon bo‘ldi, chaqmoq urgan kishi qiyofasi birdaniga

o‘zgarib, umidsiz, ishonchsiz, muhabbatsiz bir xilda hayot kechirayotgan odamning iztiroblari yuzaga qalqib chiqdi”.

Hikoya xotimasida chaqmoq urgan kishidan nom-nishon qolmaydi. Bu bilan “muhabbatsiz kishi bu dunyodan nom-nishonsiz ketadi” deb uqtirmoqchi bo‘ladi bizga muallif: “U odam atrofda ko‘rinmas edi. Kulba ichida uning ashyolari ham turar edi... Nariroqdagi minib kelgan ulovining ustiga mayda shoxlar va bo‘tanalar ilashib qolgan edi. To‘fon tina boshlagan, endi mayin shabadaga aylanib, hozirgina o‘zi payhon-u yakson qilib o‘tgan yerlarni siypalay-siypalay esardi. Dalahovlilar tugagan yerdagi ochiqlikda bo‘y cho‘zgan ulkan tol esa, shoxlarida turli-tuman tovlanuvchi olovlar hosil qilib, yomg‘irdan keyingi namchil borliq ichra chirsillay-chirsillay yonmoqda edi, xolos. Biroq, u odam yo‘q edi. Hech qayerda yo‘q edi, tamom-vassalom...”

4. O‘tkinchi dunyo ramzi – hikoyadagi dalahovli *inson muvaqqat turadigan joy ramzi* hisoblanadi. (Yuqoridagi bu haqida asarda ishora qilingan jumlani keltirib o‘tdik.)

Inson hayotida ***ma’naviy bo‘ronlar*** ham borki, ular ham inson hayotini tubdan o‘zgartirib yubora oladi. Bu jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, asarning ko‘pma’noliligi yanada ortadi.

“Isajon Sulton asarlarida shamol – yozuvchi imkoniyatidagi tuganmas poetik imkoniyat, yaratilajak timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo‘ron, to‘fonni, o‘rni-o‘rni bilan hasharot-u hayvonni, parranda-yu parq-u bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma’no qati, ramzi sifatida aks eta boshlaydi” **[5].**

Hikoyada muallif o‘z g‘oyasini yuzaga chiqarish yo‘lida badiiy vositalardan unumli foydalanadi:

1. Tashbeh (o‘xshatish) san’ati:

a) Roviy o‘z tug‘ilib o‘sgan joyini yaxshi ko‘radi va Jannat vodiylariga qiyoslaydi: “Men tug‘ilib o‘sgan joylar – so‘lim daraxtzor vodiylar. Jannat vodiylari desam ishoning”;

b) “Yerlarning usti pufakchali ko‘lmaklarga to‘ldi, ular xuddi biqirlab qaynayotganga o‘xshardi. Ko‘l ham qaynayotganga o‘xshab qoldi”;

c) “Biroq, endilikda mening yuragimning qatlaridan ham muhabbat ko‘zyoshlari kabi tiniq suvlar otilib chiqmoqda”;

d) “Axir sezmayapsanmi, suroning ostida men ham tanasi yorilib-yorilib ketgan anavi tol kabi ingranmoqdaman-ku?”;

e) “Mana hozir... bag‘irlarida mo‘l suvlarni yashirgan nihoyasiz qora bulutlarning bag‘rini tilib, ko‘zni qamashtiruvchi chaqmoqlar chaqnaydi, olov tomirlari shiddat bilan sanchiladi, bag‘rimni sening jon olg‘uvchi otashing to‘ldiradi va yomg‘ir ostidagi ho‘l tabiat ichida men ham birdaniga yona boshlayman. Bir soniyadan so‘ng.. yaproqlarim qovjirab-qovjirab, yashil novdalarim kuyib-qorayib, tevarakni yoritib-shu’lalantirib, ulkan alangaga aylanaman”;

f) “Bulutlarni haydab keladigan desam, xuddi bulutlar pastda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni ko‘rgisi kelgan kabi o‘z-o‘zidan surilib-mingashib kelar edilar”;

h) “Yomg‘ir ularni og‘irlashtirib tashladi, selpiganida o‘tloqzor xuddi o‘rilgan kabi yerga yotib-yastanib chayqaldi”;

i) “Mening yuragimda ham armonlar va afsuslarning haybatli bulutlari qat-qat yig‘ilib to‘planmoqda, oralarida goh-goh ko‘z qamashtiradigan shiddat bilan chaqmoqlar chaqnamoqda. Yuragimning bulutlari sening bulutlaringdan-da ulkan va haybatliroqdir”;

j) “Sen baraka-yu rizq bo‘lsin deb nozlana-nozlana, erkalana-erkalana, kayfiyatimni, xayollarimni va xayol dunyomni o‘zgartirib mana shu esishlaring oqibatida mening ichimda ham ulkan va mahobatli tuyg‘ular to‘foni yetilib kelayotganini bilsayding, balki bunday telbavor va vahshiyona esmagan bo‘lar eding”;

2. Tashxis (jonlantirish) san’ati:

a) “Nariroqda bultur yozda qurgan chaylam ham bor edi, ustiga chakalak bilan tol shoxlarini bosgan edim, Sofiya uni chunon yulqidiki! Mayda-chuyda qurigan barglarni bitta qo‘ymay uchirdi. Keyin esa chaylani ag‘anatib yubordi.. So‘ng birdaniga yuqoriga ko‘tarilib, ko‘l ustlarida aylana-aylana esa ketdi. Qishloqlar ustida shovqin soldi, qichqirdi, telbalarcha goh yuqoridan pastga shiddat urdi, goh esishini birdaniga o‘zgartirib, paydar-pay esdi, nihoyasi arang ko‘rinadigan ulkan ko‘l uning o‘ynoqi bosimi ostida zalvorli chayqalib, ko‘piklanardi. Jilvalariga mahliyo bo‘lib turib qoldim. Ajab erkaliklar-u ajoyib nozlar ila namoyon bo‘ldi bu to‘fon. Mening sochlarimdan ham yulqilaydi deng. Kiyimlarimni tortqilab-tortqilab, qaylargadir – juda olislarga, o‘zi ozod-ozod esadigan hududlar sari surgalamoqchi bo‘ladi. Mana, qanaqa ekansan sen – Sofiyam mening!”

b) “Cho‘qqilar ustida bulutlarning qatlari ochildi, u yerdan qip-qizil quyosh mo‘raladi”.

c) “Daraxtlarning barglarini shitirlatib, olamni turfa tovushlarga to‘ldirib esdi u. Keyin yanada kuchayganida shoxlarni egdi”;

d) “Sofiya ayvonimni qum bilan qoplab esdi. To‘zonga burkab tashladi ashyolarimni”;

e) “Samolarda ulkan qora bulutlar tez suzib, qat-qat uyula boshladilar”;

f) “Shirr-shirr deya nola qildi daraxt barglari”;

h) “Eng mitti, quruq maysalarni ildizi bilan sug‘urib uchirdi. Bepoyon o‘tloqlarda o‘ynab-o‘ynab esdi u.. O‘tloqning goh u, goh bu yerida to‘satdan epkin urib, barini egib-bukib o‘tdi, ajabki, qolgan hududlar tek edi. Sal o‘tmay ancha narida yana shunday qildi”.

i) “Yon-verimdagi daraxtlar ohista shivirlab turgan edilar”

j) “…birdaniga shu yerda paydo bo‘ldi-da, shaftoli shoxlarini qattiq silkitib, hali pishib yetilmagan mevalarini to‘kdi, keyin to‘satdan ho‘v narida – ulkan tol yonida to‘lqin ura ketdi”;

k) “Pastda, uzoq-uzoqlarda qo‘ylar suruvi ko‘zga tashlanar edi… Chakmon kiygan otliq kishi qo‘ylar suruvini qaytarishga urinmoqda… Ular borayotgan tomonda chuqur jarlik bor, shamol ularni to‘ppa-to‘g‘ri jarlikka haydab bormoqda”;

l) “Ayvonimda osib qo‘yilgan hamma narsa ovoz chiqarmoqqa tushdi. Suvqovoq boriydi, shunaqa ajoyib nolalar qildiki, hayronlar qoldim”;

m) “Pastroqda tikkaytirib qo‘yilgan pichan g‘aramlari ham boriydi, Sofiya ularni ham sochib-to‘zg‘itib yubordi… Mevalarni bir zumda duv to‘kib tashladi”;

n) “Bahaybat bulutlar bir-birining ustiga mingashib ko‘kni qoplab oldi”;

o) “Chaqmoq daraxt tanasining ichiga kirib ketdi, bir lahza tana ichi g‘ovaklarida juda yorug‘, och qizg‘ishdan to‘q qirmizigacha yog‘du hosil qilib tovlanib turib qoldi. So‘ng to‘satdan tol tanasi uch-to‘rt bo‘lakka bo‘linib ketdi. Bag‘ridagi o‘sha tovlanuvchan olov tashqariga otilib chiqib, yashil shoxlarni birdaniga qamrab yondirib yubordi”;

p) “Ko‘z yetguday butun tevarak Sofiyaning bosimi ostida ingrar, sadolanar, qichqirar, nola qilar, hayqirar, munglanar, butun borliq unga birday bo‘ysunar, yer ham, ko‘k ham suv... dovul shiddat urar, har taraf kulrang dengiz kabi to‘lqinlanar va mana shu shovqinli manzara ichida g‘oyat chiroyli tarzda, yallig‘lanuvchi yorqin sarg‘ish va qirmizi tovlanishlar ichra yonar edi daraxt!”;

q) “Bulutlarni haydab keladigan desam, xuddi bulutlar pastda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni ko‘rgisi kelgan kabi o‘z-o‘zidan surilib-mingashib kelar edilar”.

3. **Epitet (sifatlash) san’ati:**

a) “Ajabki, ularga achinmadim, shu qadar chiroyli, shu qadar hayratangiz va shu qadar vahshiy esar edi Sofiya”;

b) “Shiddatingni pasaytir, oddiy shamol holingga qaytaqol, erka Sofiyam mening!”;

s) “U essa yurtda nimalardir o‘zgaradi, ho‘v tog‘ ortlaridan bulutlarni poda-poda haydab keladigan cho‘pon shamol emasmidi u?”;

d) “Tamomila yovvoyi va bebosh edi u!”; (Sofiyaning sifati)

e) “Yaslanib ketgan bo‘liq o‘tlar uzra shiddati va erkaligi aniq bilindi”; (Sofiyaning sifati)

f) “…shu qadar chiroyli, shu qadar hayratangiz va shu qadar vahshiy esar edi Sofiya”;

g) “Sen baraka-yu rizq bo‘lsin deb nozlana-nozlana, erkalana-erkalana, kayfiyatimni, xayollarimni va xayol dunyomni o‘zgartirib mana shu esishlaring oqibatida mening ichimda ham ulkan va mahobatli tuyg‘ular to‘foni yetilib kelayotganini bilsayding, balki bunday telbavor va vahshiyona esmagan bo‘lar eding”;

h) “Qaytaqol, go‘zal Sofiyam, o‘zing bino bo‘lgan makonlarga”.

4. **Tajohuli orifon (shoirning muayyan narsa, hodisa yoki tushuncha mohiyatini bilmaslikka olish [7] orqali obrazli holat yaratishi) san’ati:**

a) “Biroq, endilikda mening yuragimning qatlaridan ham muhabbat ko‘zyoshlari kabi tiniq suvlar otilib chiqmoqda. U suvlarni to‘xtatib qolishga qodir kuch bu olamda yo‘qligini bilasanmi?”

b) “U essa yurtda nimalardir o‘zgaradi, ho‘v tog‘ ortlaridan bulutlarni poda-poda haydab keladigan cho‘pon shamol emasmidi u?”

d) “Shunaqangi esdiki! Bu esish yuragimni anglamsiz yovvoyi sevinchlarga to‘ldirganini ham aytaymi?”

5. **Talmeh (she’rda mashhur tarixiy voqea, afsona va dostonlar qahramonlari, taniqli tarixiy shaxslarga ishora qilish orqali tasvirlanayotgan obrazning u yoki bu jihatini ta’kidlash, bo‘rttirib ko‘rsatishga yo‘naltirilgan) san’ati:**

“Yo‘qsa... sezyapsanmi, hozir, sal o‘tmay, shu on! – qudrating shu qadar zo‘rayadiki, tog‘larning cho‘qqilari osmon qadar sapchiyotgan suvlar ostida qolib, yer yuzidagi barcha jonzotlar halok bo‘lib ketadilar. Ey nomusulmon, axir, olamda unday to‘fon bir martagina ro‘y bergan edi xolos!

Agar u to‘fon yana bir bora yuz bersa, olamda na nabotot, na hayvonot – hech narsa qolmaydi. Yeru ko‘kning qonuniyatlari o‘zgaradi. Osmondan ham, yer ostidan ham suvlar otiladi. Ko‘klarning chaqmoqlari endi faqat suvlar ustiga shiddat bilan sanchiladi. Olam yana azal yaratilgan holiga qaytadi. Va shunda dunyoda sen-u mengina qolamiz, xolos. Ana shu mahalning yuz ko‘rsatishi olamning oxiri-yu yangi zamonning boshlanishi bo‘lsayam ajabmas”. Bu yerda Nuh tofoniga ishora qilinyapti va o‘tmishda sodir bo‘lgan voqeaga ishora qilish orqali talmeh san’ati yuzaga kelyapti.

Isajon Sulton ijodiga xos bo‘lgan dunyodagi barcha narsani Aloh yaratiqi sifatida tasvirlash ushbu hikoyaga ham singdirilgan: “Qaytaqol, go‘zal Sofiyam, o‘zing bino bo‘lgan makonlarga… **bag‘irlarida rahmat va marhamatlarni olib kelayotgan shu qora-qizg‘ish bulutlar** bino bo‘lgan yovvoyi hududlarga”. Shamol singari Yaratganning rahmati va marhamati yanglig‘ tasvirlanadi bulutlar ushbu jumlada.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Норматов У. Етуклик жозибаси // Исажон Султон насри бадиияти. – Тошкент. “Турон замин зиё”, 2017. Б.10; Расулов А. Шафоат ёғдусидан баҳрамандлик // Шарқ юлдузи, 1991, 10-сон; Ғафуров И. Ёзувчи, табиат, табиият // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. “Турон замин зиё”, 2017. Б.19; Йўлдошев Қ. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги// Шарқ юлдузи, 2011, 4-сон. Б.131; Улуғбек Ҳамдам. Ойдинбулоқ ойдинлиги // Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент. “Янги аср авлоди”, 2002. Б.184; Р.Раҳмат. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача // Султон И. Боқий дарбадар. Тошкент. 2011. Б.267.

2. Исажон Султон насри бадиияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. –Б.43.

3. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-sofiya-hikoya

4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-sofiya-hikoya

5. Исажон Султон насри бадиияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. –Б.47.

6. Ф.Салаев, Г.Қурбониёзов. адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2010. – Б. 240.

7. Ф.Салаев, Г.Қурбониёзов. адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2010. – Б. 245.

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna
O‘zbek va rus tili adabiyoti” kafedrasi
dotsenti
Quralova Kumushoy
Urganch davlat Pedagogika instituti
O‘zbek va rus tili adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ALISHER NAVOIY ADABIY-ILMIY MEROSINING MUMTOZ ADABIYOTIMIZDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutaffakkirimiz Alisher Navoiyning adabiyotimizga qo‘shgan beqiyos hissasi va uning shaxs tarbiyasi uchun muhim bo‘lgan masalalar ifoda etilgan adabiy-ilmiy asarlarining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni borasidagi fikrlarga to‘xtalamiz.

Kalit so‘zlar: Buyuk mutaffakkir, g‘azalnavis, ma’naviy boylik, nasriy asarlar, o‘zbek adabiyoti, zamonaviy adabiyot, mumtoz adabiyot, tarbiyaviy-falsafiy qarashlar.

Urgench State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of
"Uzbek and Russian Literature"
Khajiyeva Dilfuza Adambayevna
Urgench State Pedagogical Institute
2 nd year student of the Department
of Uzbek and Russian Literature
Kuralova Kumushoy

THE PLACE OF ALISHER NAVOI'S LITERARY AND SCIENTIFIC HERITAGE IN OUR CLASSICAL LITERATURE

Annotation.In this article, we will focus on the great thinker Alsher Navoiy’s incomparable contribution to our literature and the place of his literary and scientific works in our classical literature, which express important issues for personal education.

Keywords..Great thinker,ghazal writer spiritual wealth,prose works,uzbek literature,modern literature,classical literature,education and philosophical views.

РОЛЬ ЛИТЕРАТУРНОГО И НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В НАШЕЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Хаджиева Дилфуза Адамбаевна
доцент Кафедры «Узбекская и русская литература»
Ургенчский государственный педагогический институт
Куралова Кумушой

Студентка 2 курса направлении образований
«Узбекская и русская литература»,
Ургенчский государственный педагогический институт

Аннотация . В данной статье мы остановимся на несравненном вкладе великого мыслителя Алишера Навои в нашу литературу и месте его литературных и научных произведений в нашей классической литературе, выражающих важные вопросы воспитантя.

Ключевые слова. Великий мыслитель, газелист .духовное богатство, прозаические произведения, узбекская литература, современная литература, классическая литература, просветительские и философские взгляды.

Buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy qalami bilan dunyoni zabt etdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning so‘z deb atalmish qudratli vositadan mohirona foydalana olganligi bugungi kun ijodkorlari uchun ijod maktabi bo‘la oldi. Jahon tan olgan ijodkor! Bobokalonimizning mazmundor asarlarini qanchalik e’tirof qilsak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu xazinaning hali ochilmagan qirralari borligi bizni quvontiradi. Alisher Navoiy nafaqat ijodkor sifatida, balki chinakam komil inson sifatida ham bugun qadrlanadi. Uning bugungi zamon bilan bemalol taqqoslasa bo‘la oladigan, bugungi masalalarga taalluqli bo‘lgan nasriy-tasavvufiy asarlari, tarix va iqtisodga oid asarlari, ilmiy-filologik merosi, g‘azal va ruboiylari, tuyuqlari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Navoiyni bejizga “so‘z mulkining sultoni”- deb ta’riflamaymiz. Qaysiki kitobxon uning “Xamsa”sini o‘qir ekan, shu birgina asarning o‘zidan cheksiz ma’naviy ozuqa oladi. “Xamsa” ning ichiga kiritilgan “Hayrat ul- abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostoniga to‘xtalsak.

Ushbu dostonda Navoiy umrining mazmuni, tabiat, jamiayat va inson munosabatlariga aloqador savollar qo‘yadi va keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga munosib javob beradi. “Hayrat ul-abror” pand-nasihat ruhidagi ta’limiy-axloqiy, falsafiy doston. Asar an’anaviy muqaddima-hamd va na’t bilan boshlanadi. Asarda shoir Alloh, borliq inson haqida shunday fikrlaydi:”…bir vaqtlar bu jahon pinhon(yashirin) edi . Na yer, na samo, na kun, na tun-hech narsa yo‘q edi. Nozir ham manzur ham o‘zing eding. Ishqingdan mast, husningdan masrur eding, husning jilvasiga chek-u chegara yo‘q edi. Senga ko‘zgu kerak bo‘ldi . Shu maqsadda dunyo yaraldi. Demak, dunyo sening jamolingga oynadir. Sen dunyoni g‘oyat latif qilib yaratding, lekin hammasidan insonni sharif aylading. Binobarin, Alloh har narsadan ulug‘ va yaqin tutgan inson ham tabiatning, ham jamiyatning gultojidir”.Navoiy dunyoni Allohning namoyon bo‘lishidir, deb biladi. Inson esa uning markaziy siymosi. Aynan shunday falsafiy qarashlar butun asardan joy olgan. Bir o‘qishda mag‘zini chaqish mushkil, ammo o‘qigan sayin inson ma’naviy kamolotga erishadi shubhasiz. Navoiy tom ma’noda o‘z asarlari bilan go‘zal tarbiya vositasini yarata olgan ijodkor. “Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolotlar iymon, islom, qanoat, vafo, rostgo‘ylik, ilm egallash haqida ”Hayrat ul-abror” asarining o‘ninchi maqolotiga e’tibor bersak, shoir so‘zning

qudratini ko‘rsatib berganligining guvohi bo‘lamiz. Ushbu maqolotda to‘g‘rilik borasidagi go‘zal fikrlar o‘z tasdig‘ini topgan. Nay musiqa asbobi to‘g‘riligi bois, hamma uning kuyini maroq bilan tinglaydi. Chang musiqa asbobi egriligi bois, uning quloqlari buralib u to‘g‘irlanadi. Sham to‘g‘riligi uchun nur bilan belanadi va tungi bazm shohidi bo‘ladi. Ko‘rshapalak egriligi bois, uning borar joyi ma’lum. Asarda egrilik va to‘g‘rilik borasida bunday go‘zal fikrlar anchagina. Asosiysi bu fikrlarning bahosi yo‘q. Asrlar oshgan bo‘lsada, bu asarlarda har bir zamon uchun muhim bo‘lgan masalalar bayon qilingan. Ilohiy ilhom sohibi bundan nechcha asr oldin bugungi zamon tarbiyasi haqidagi go‘zal asarlarni yozganligi, uni butun dunyo tan olishining yana bir yorqin namunasi desak ham bo‘laveradi. Bugun biz faxrlanamiz shunday buyuk mutaffakkir, shoir bizning bobokalonimiz ekanligidan. Uning nasriy va she’riy asarlarini o‘rganar ekanmiz, qalbimizda mislsiz faxr tuyg‘usi kezib yuradi. Allohni sevgan buyuk ijodkor o‘z asarlari orqali komil inson qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib bergan. Uning “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazi komil inson sifatida tasvirlangan. Bu dostonda ikki inson o‘rtasidagi muhabbat emas, balki Alloh va inson o‘rtasidagi buyuk muhabbat o‘z ifodasini topgan. “Farhod va Shirin” dostoni 5782 baytdan iborat bo‘lib, “Shavq dostoni” yoki “Mehnatnoma dostoni” deb yuritiladi.

Dedi:qaydinsen ey majnuni gumrah?
Dedi:majnun vatandin qayda ogah.
Dedi:nadur senga olamda pesha?
Dedi:ishq ichra majnunliq hamesha.
Dedi:bu ishqdan o‘lmas kasb ro‘zi,
Dedi:kasb o‘lsa basdur ishq so‘zi.
Dedi: bu ishqdin inkor qilg‘il,
Dedi:bu so‘zdin istig‘for qilg‘il.
Dedi:ol ganju qo‘y mehrin nihoniy,
Dedi:tufroqqa bermam kimiyoni.
Dedi:bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl,
Dedi:bu so‘zlaringdan yaxshiroq qatl.

Ushbu satrlarda Farhodning Yaratganga bo‘lgan mislsiz muhabbati aniq ko‘rinib turibdi. Xusrav Farhodni bu yo‘ldan qaytarishga jon-jahti bilan harakat qiladi. Ammo Farhodning shunday buyuk muhabbati oldida u ojizlik qiladi. Xusrav hattoki Farhodga cheksiz mol-dunyo va’da qiladi. Evaziga muhabbatingdan voz kech deydi. Farhod sof sevgisini eng qimmatbaho deb hisoblab, o‘tkinchi dunyoning mol-dunyosini tufroqqa tenglaydi. Farhodga bu ishqni inkor qilishini aytganda esa, Farhod bu so‘zni deganigga tavba qil deya boshini tik tutadi. Xusrav senga o‘lim muqarrar deganida, Farhod bu men uchun baxt deb javob qaytaradi. Farhodning Allohga bo‘lgan sevgisi shunday buyuk nigoh ostiga olingan. Shubhasiz har bir tirik jon o‘z Robbisini sevadi va u uchun jon fido qilishga tayyor. Alisher Navoiyning bir qancha ilmiy asarlari ham mavjud. “Majolis un-nafois” (Nafislar majlislari) asari ayniqsa eng noyob durdona, turkiy tazkirachilikning ilk namunasi. Asarda XV asrda Xuroson va qo‘shni mamlakatlarda yashagan shoir,

yozuvchi va olimlar jami 459 kishi ijodiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlar yillar, geografik o‘rinlar hamda sulolaviy tartiblarga tayangan holda yozilgan tengsiz ilmiy asar. Navoiyning ushbu asari 8 kiyem ya’ni majlisdan iborat. Shoir 1-2-majlislarda o‘ziga zamondosh bo‘lmagan, ya’ni tazkira yozilgan vaqtda hayotdan ko‘z yumgan shoirlar haqida yozgan:

Mutrib bizan taronavu soqiy biyor jom,
Xunash halol onki biguftast: “may harom”(18)

Ushbu satrlar Navoiydan oldin yashab ijod qilgan Mir Maxdum ijodiga mansub masnaviydir. “Majolis un-nafois” asarida aynan keltirilgan satrlar muallifi haqida ham ma’lumotlar aynan ushbu asarda mavjud. Bundan tashqari asarda Navoiy bilan bir zamonda yashab ijod qilgan allomalardan Mavlono Binoiy, Mavlono Muzhir, Sayid Quroza, Sayyid Qutb Lakadang, Darvesh Xusomiy, Mavlono Xalaf, Mir Hoj, Mavlono Vidoiy va boshqa ko‘plab qalam ahli haqida biz bilmagan ma’lumotlar berilgan. Alisher Navoiy bobomizdan bizga tengsiz durdona asarlar meros bo‘lib qolgan. Bobomiz nasrda hamda nazmda barakali ijod qilgan. Navoiy g‘azal, qit’a, fard, ruboiy, tuyuq, qolaversa o‘nta chiston ham bitgan. Insoniy ishq, mehr, vafo, nazokatni yonib qalamga olgan ijodkorning ruboiylaridan o‘qiganda, buyuk va oliyjanob qalb sohibi tuyg‘ularini sezib turamiz:

Ey ishq,aning ko‘yida tafti xaram et,
Bizni dog‘I ul tavfg‘a boshla,karam et.
Bir doira ko‘yi tegrasida raqam et,
Gar chiqsa ayog‘im,raqamingdan qalam et,
“G‘aroyib us-sig‘ar”dan
O‘lsam yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab eliting jismi figorimni mening.
O‘tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko‘yida qo‘yung tani nizorimni mening.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, buyuk mutafakkirimiz mumtoz she’riyatning badiiy mahorat sirlarini puxta o‘rgangan buyuk shoirdir.Uning nazm gulshanida turfa xil badiiy san’atlar uchraydiki,ularni kengroq tadqiq qilish orqali shoir she’riyatiga oid muayyan xulosalarga kelishimiz o‘rinli.Navoiy hayotini uning go‘zal ijodini o‘rganish hamon davom qilmoqda.Xususan, Navoiyshunos olima Suyuma G‘aniyeva bu borada katta ilmiy ishlar qilgan.Olima Navoiy asarlarini nashrga tayyorlagan, “Majolis un-nafois”asarining ilmiy-tanqidiy matnini chop ettirgach, “Navoiy dastxati” kitobini o‘quvchilar hukmiga havola etgan. Ibrohim Haqqul-Navoiyshunos olim va murabbiy. U besh mustaqil kitobga mo‘ljallangan “Navoiyga qaytish” asarini yozgan. Navoiy ijodi bilan bog‘liq juda katta ishlar amalga oshirilayotgan bir paytda, biz buyuk bobokalonimiz uchun qalbimizda haykal yarata oldik. Bugun Navoiyni jahon tanidi,tan oldi. Uning mumtoz adabiyotimizga qo‘shgan hissasi asrlarga tatigulik. U insoniyat qalbida komil insonni o‘zining ijod gulshani orqali kashf qila oldi.Alisher Navoiyning buyuk xizmatlari uchun,benazir ijod mahsuli uchun bugun jahonda uning haykali qad rostladi.Biz Navoiy

siymosini yuraklarga chizaoldik.Shuningdek,bobomizning nomini abadiylashtirish,uning mumtoz adabiyotimizda yaratgan asarlarini kelajak avlodning qalbiga muhrlash uchun juda katta ishlar amalga oshirildi. Shoirning ochilmagan qirralari bugungi yosh avlodni ilmiy izlanishga chorlaydi. Uning betakror satrlari,qalblarga ilhom bergan asarlari mumtoz adabiyotimizning poyonsiz dur-u javohiridir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy adabiy merosiga har doim alohida e'tibor va ehtirom bilan qaraladi. Ulug' mutaffakir sharq mumtoz adabiyotining barcha janrlarida badiiy barkamol g'oyalar bilan boyitilgan asarlar yaratgan. Shuning uchun uning durdonalari nusxalari nafaqat mamlakatimiz, balki jahon kutubxonalaridan ham joy olgan. 2021-yilda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev qarori bilan Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi yuksak darajada nishonlandi. Biz ilm ahli, adabiyot ixlosmandlari buyuk mutaffakir ijodini yanada chuqurroq tatqiq qilamiz va uning umrboqiy asarlarini kitobxonlarga taqdim qilamiz. Chunki Navoiy yuraklarda umrbod yashaydi.

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun,
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku rost.
Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,
Alisher qalamni ko'rsatgan xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.library.ziyonet.uz sayti
2.Qayumov A."Hayrat ul-abror"Asarlar.2008.
3.Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" nasriy bayoni.
4.Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"asari nasriy bayoni.
5.https:\\kh-davron.uz
6. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Ma'naviyat.2008.

Allanazarova Nigora Bakhtiyarovna
A teacher of the department of Foreign Philology
at Urgench state pedagogical institute

COMPARATIVE STUDY OF SENTENCE STRUCTURES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article presents a comparative analysis of the sentence structures of English and Uzbek, highlighting key differences in areas such as word order, tense and aspect, passive voice, and sentence mood. These syntactic distinctions reflect the unique historical and linguistic developments of both languages and are important for translation, bilingualism, and linguistic theory. The distinct grammatical constructions in both languages provide a foundation for understanding their structural intricacies and have practical implications for learners and translators.

Key words: comparative linguistics, sentence structures, word order, tense and aspect, auxiliary verbs, verb suffixes, passive voice, sentence mood, intonation.

Allanazarova Nigora Baxtiyarovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Xorijiy filologiya kafedrasi o‘qituvchisi

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI GAP TUZILISHINING QIYOSIY TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarining gap tuzilishlarini taqqoslashga qaratilgan bo‘lib, so‘z tartibi, zamon va aspekt, passiv fe’l, va gap mayllari kabi sohalarda muhim farqlarni ta’kidlaydi. Ushbu sintaktik farqlar har ikki tilning o‘ziga xos tarixiy va lingvistik rivojlanishini aks ettiradi va tarjima, bilingvizm hamda lingvistik nazariya uchun muhimdir. Har ikki tildagi farqli grammatik tuzilmalar ularning struktural murakkabliklarini tushunish uchun asos yaratadi va o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: qiyosiy lingvistika, gap tuzilishi, so‘z tartibi, zamon va aspekt, yordamchi fe’llar, fe’l qo‘shimchalari, majhul nisbat, gap mayllari, intonatsiya.

Алланазарова Нигора Бахтияровна
Преподаватель кафедры зарубежной филологии
Ургенчского государственного педагогического института

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУР ПРЕДЛОЖЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В этой статье представлен сравнительный анализ структур предложений в английском и узбекском языках, выделены ключевые различия в таких областях, как порядок слов, время и аспект, пассивный залог и модальность предложений. Эти синтаксические различия отражают уникальное историческое и лингвистическое развитие обоих языков и имеют важное значение для перевода, билингвизма и лингвистической теории. Отличительные грамматические конструкции в обоих языках служат основой для понимания их структурных особенностей и имеют практическое значение для учащихся и переводчиков.

Ключевые слова: сравнительная лингвистика, структуры предложений, порядок слов, время и аспект, вспомогательные глаголы, суффиксы глаголов, пассивный залог, модальность предложений, интонация.

Introduction. Language is a living, breathing entity that mirrors the culture, worldview, and historical journey of its speakers. The structure of a language—the syntax—forms the backbone of its communicative capacity, providing the framework through which meaning is constructed and conveyed. Syntax, the set of rules that dictates sentence structure and word arrangement, plays a fundamental role in distinguishing one language from another, even when the languages share common functions, such as serving as means of communication. In proposing that syntactic structure can provide a certain insight into problems of meaning and understanding we have entered onto dangerous ground [1, 93]. Understanding how languages differ in their syntactic structure not only helps linguists gain insights into language development but also aids in the practical aspects of language learning, translation, and cross-cultural communication. The purpose of this study is to compare the syntactic structures of English and Uzbek, offering an in-depth exploration of how each language constructs meaning through word order, verb morphology, and grammatical markers. This comparison is essential for understanding both the theoretical and practical implications of syntax, especially for linguists, translators, educators, and language learners. The study also aims to draw from historical, theoretical, and typological perspectives to contextualize these syntactic features and identify the broader implications of these structures.

Methodology. The comparative analysis of the sentence structures in English and Uzbek presented in this study is based on a combination of both qualitative and descriptive research methodologies. This approach allowed for a detailed examination of key syntactic features of the two languages, specifically focusing on their word order, tense and aspect systems, passive voice constructions, and sentence mood distinctions.

Analyses and results. Syntax is the study of the principles and processes by which sentences are constructed in particular languages. Syntactic investigation of a

given language has as its goal the construction of a grammar that can be viewed as a device of some sort for producing the sentences of the language under analysis [2,1]. The comparative analysis of English and Uzbek syntactic structures reveals several important differences that reflect the unique historical and linguistic developments of both languages. These differences are particularly evident in areas such as word order, tense and aspect, passive voice, and sentence mood. Understanding these syntactic distinctions not only deepens our appreciation of the two languages' structural complexity but also has significant implications for translation, bilingualism, and general linguistic theory.

Word Order: Structural Divergence. One of the most striking syntactic differences between English and Uzbek is their word order. English follows a fixed Subject-Verb-Object (SVO) order, while Uzbek typically follows a Subject-Object-Verb (SOV) order. This divergence influences how both simple and complex sentences are constructed in each language.

In English, word order is essential for determining the grammatical roles of the subject, verb, and object. For instance, in the sentence “She eats an apple,” the subject “She” precedes the verb “eats,” and the object “an apple” follows. This rigid SVO structure helps to maintain clarity and avoid ambiguity. The strict word order in English ensures that the subject and object are clearly identifiable through their fixed positions in the sentence.

On the other hand, Uzbek uses a more flexible word order due to its reliance on morphological markers, such as case suffixes, to convey grammatical relationships. While the default order in Uzbek is SOV, the meaning of a sentence can still be understood even if the word order is altered. For example, in the sentence “Musobaqani yutgan bola mening do‘stim” (“The boy who won the race is my friend”), the verb “yutgan” (won) appears at the end of the sentence, which is in contrast to English, where the verb precedes the object. Despite the change in word order, the meaning remains intact because the roles of the words are clarified by the case markers.

This flexibility in word order in Uzbek is a key feature that distinguishes it from English and poses challenges for learners of both languages. English learners of Uzbek must adapt to the use of case suffixes to determine the grammatical role of words, while Uzbek learners of English must familiarize themselves with the rigid SVO structure of English.

Tense and Aspect: Morphological and Auxiliary Differences. Another significant difference between English and Uzbek lies in the expression of tense and aspect. In English, tense and aspect are typically conveyed through the use of auxiliary verbs, while in Uzbek, they are expressed by modifying the verb itself through suffixation. This difference in morphological strategies reflects the distinct ways in which each language conveys time and action.

In English, auxiliary verbs are used to indicate tense and aspect. For example, the present continuous tense is formed by combining the auxiliary verb “to be” with the present participle of the main verb: “She is eating.” Similarly, the future tense is formed

by the auxiliary verb “will”: “I will finish my work.” These auxiliary verbs are crucial for expressing nuanced temporal meanings, and their correct usage is essential for English learners. The system of auxiliary verbs in English is extensive, with multiple tenses and aspects requiring different auxiliary constructions.

Uzbek, in contrast, does not rely on auxiliary verbs to express tense or aspect. Instead, tense and aspect are marked through suffixes that are added to the verb itself. For instance, the verb “o‘qiyapti” (is reading) is formed by adding the suffix “-yapti” to the base verb “o‘qish” (to read). The use of these suffixes is essential for expressing different temporal meanings in Uzbek. The past tense can be marked by the suffix “-di” (e.g., “o‘qidi” – read), while the future tense can be indicated by the suffix “-adi” (e.g., “o‘qiydi” – will read).

The absence of auxiliary verbs in Uzbek can make the language simpler in some respects but also poses challenges for learners of English, as they must understand the necessity of auxiliary verbs in tense formation. Conversely, English learners of Uzbek must focus on mastering the appropriate verb suffixes to convey the correct tense and aspect.

Passive Voice: Constructions and Usage. The passive voice is another area where English and Uzbek exhibit significant differences. In English, the passive voice is formed using auxiliary verb “to be” and the past participle of the main verb. For example, “The book was written by her” is a passive sentence formed with the auxiliary verb “was” and the past participle “written.” The passive voice is commonly used in English, particularly in academic and formal contexts, to focus on the action or the recipient of the action rather than the agent.

In contrast, Uzbek forms the passive voice using specific verb suffixes. For example, “Kitob yozildi” (The book was written) uses the verb “yozil” (to write) with the passive suffix “-il.” This morphological construction allows for the passive voice to be expressed without the need for auxiliary verbs. Additionally, passive constructions are less frequent in Uzbek compared to English, especially in academic writing.

The difference in how the passive voice is formed in English and Uzbek has significant implications for translation. When translating from English to Uzbek, it may be necessary to adjust the sentence structure to accommodate the passive voice in Uzbek. For instance, a sentence like “The report was submitted by the manager” in English might be translated as “Boshqaruvchi tomonidan hisobot topshirildi” in Uzbek, where the passive construction is maintained through the use of the appropriate suffix.

Intonation and Sentence Mood: Differentiating Questions and Statements.

Intonation plays a critical role in distinguishing between questions and statements in English. Rising intonation at the end of a sentence typically signals a yes/no question, while falling intonation is used for statements. For example, “You are coming?” has a rising intonation and functions as a question, while “You are coming.” has a falling intonation and functions as a statement.

In Uzbek, sentence mood is typically marked by question particles, such as “-mi” or “-mikan,” which are added to the verb or to the end of the sentence. For example, “Siz kelyapsizmi?” (Are you coming?) uses the question particle “-mi” to indicate that the sentence is a question. This system of marking question sentences with particles contrasts with English, where intonation is the primary marker for distinguishing between questions and statements.

The use of question particles in Uzbek offers a clear distinction between questions and statements, which is especially useful in written language where intonation is not present. In English, however, intonation is essential for signaling sentence mood, and learners must be able to recognize and produce the appropriate intonation patterns in spoken language.

Conclusion. The syntactic differences between English and Uzbek are significant and reflect the distinct linguistic traditions of each language. These differences are particularly evident in the areas of word order, tense and aspect, passive voice, and sentence mood. English relies on a strict SVO word order, auxiliary verbs to express tense and aspect, and intonation to differentiate between questions and statements. Uzbek, on the other hand, uses a more flexible SOV word order, verb suffixes to convey tense and aspect, and question particles to indicate sentence mood. These syntactic features have important implications for language learning, translation, and bilingualism. Understanding these differences allows for more effective language teaching and translation strategies, as well as a deeper understanding of the linguistic structures that underpin each language. Further research in this area could explore additional syntactic phenomena, such as noun phrase structure, ellipsis, and discourse markers, to further illuminate the unique features of both English and Uzbek.

References:

1.N.A Slobodkina, B.YU. Abduraimova, Z.H. Rustamova, G.N. Tukhliyeva. A practical English grammar. “O‘qituvchi” nashriyoti-Matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2011.

2. Komil Jalilov. Exam skills for teachers and leaners of English

3. Noam Chomskiy. Syntactic structures. Mouton de Gruyter. New York 2002.

4. Martin Hewings. Advanced grammar in use. Cambridge university press.

5. Po‘latova O‘g‘ilxon Abduxaliqova. “Ingliz tilida so‘z tartibi gapning kommunikativ markazi-remani ifodalovchi dominant vosita sifatida”.

6. www. bbc.co.uk

7.www. grammarly.com

8. www. academicguides.waldenu.edu

9. www. euroeducation.net

10.www. researchgate.net

УДК: 81'373.7.81'42.

Davlatmuratov Siroj Ravshanbekovich
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: davlatmuratovsiroj@gmail.com

RUS VA O‘ZBEK MAQOLLARI DUNYO TIL MANZARASINING AKS ETTIRISHI SIFATIDA: LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL

Annotasiya. Ushbu tadqiqot rus va o‘zbek maqol hamda matallarida aks etgan olam lisoniy manzarasining lingvomadaniy jihatlarini ko‘rib chiqadi. Qisqa va madaniy jihatdan boy iboralar bo‘lmish maqol va matallar jamiyatning qadriyatlari, e’tiqodi va tajribasini o‘zida mujassam etadi. Mazkur izlanishda har ikki tildagi maqol va matallar majmuasi tahlil qilinib, ular turli madaniy qarashlar, tarixiy sharoitlar va ijtimoiy me’yorlarni qay tarzda aks ettirishini o‘rganadi. Tahlil takrorlanuvchi mavzular, metaforalar va ramzlarni aniqlashga, ularning rus va o‘zbek lingvomadaniy muhitida namoyon bo‘lishini qiyoslash va taqqoslashga qaratilgan. Tadqiqot, shuningdek, globallashuv va modernizatsiya ushbu til shakllarida ifodalangan an’anaviy dunyoqarashga qanchalik ta’sir ko‘rsatayotganini ham o‘rganadi. Ikki tildagi maqol va matallardagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganib, ushbu ish har bir til hamjamiyatining dunyo manzarasini shakllantiruvchi asosiy madaniy qadriyatlar va e’tiqodlarni tushunishni ta’minlaydi, madaniyatlararo muloqot va madaniyatlararo kompetentlikni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Xulosalar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi universal mavzular mavjud bo‘lsa-da, ushbu mavzularning aniq madaniy talqini va ifodasi sezilarli darajada farq qiladi, bu esa til va muloqotga madaniy asoslangan yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi.

Tayanch so‘zlar. Lingvokulturologiya, Olamning lisoniy manzarasi, Maqol, matal, Rus tili, O‘zbek tili, Madaniy qadriyatlar, Madaniy istiqbollar, Madaniyatlararo muloqot, Metafora, Lingvistik tahlil, Etnolingvistika

Давлатмуратов Сурож Равшанбекович
преподаватель УрГПИ
E-mail: davlatmuratovsiroj@gmail.com
Телефон: +99897 456 12 12

РУССКИЕ И УЗБЕКСКИЕ ПОСЛОВИЦЫ КАК ОТРАЖЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. Данное исследование рассматривает лингвокультурологические аспекты языковой картины мира, отражённые в русских и узбекских пословицах и

поговорках. Пословицы и поговорки, будучи краткими и культурно насыщенными выражениями, заключают в себе ценности, верования и опыт общества. В данном исследовании анализируется корпус пословиц и поговорок из обоих языков, изучая, как они отражают различные культурные перспективы, исторические предпосылки и социальные нормы. Анализ фокусируется на выявлении повторяющихся тем, метафор и символов, сравнивая и противопоставляя их проявления в русском и узбекском лингвистическом и культурном контекстах. Исследование также изучает степень, в которой глобализация и модернизация влияют на традиционное мировоззрение, выраженное в этих языковых формах. Изучая сходства и различия в пословицах и поговорках двух языков, данная работа предоставляет понимание основных культурных ценностей и убеждений, формирующих картину мира каждого языкового сообщества, способствуя более глубокому пониманию межкультурной коммуникации и межкультурной компетентности. Выводы показывают, что, хотя существуют некоторые универсальные темы, конкретная культурная интерпретация и выражение этих тем значительно различаются, что подчеркивает важность культурно-обоснованного подхода к языку и коммуникации.

Ключевые слова. Лингвокультурология, Языковая картина мира, Пословицы, Поговорки, Русский язык, Узбекский язык, Культурные ценности, Культурные перспективы, Межкультурная коммуникация, Метафора, Лингвистический анализ, Этнолингвистика

Davlatmuratov Siroj Ravshanbekovich
teacher of UrGPI
E-mail: davlatmuratovsiroj@gmail.com
Telefon: +99897 456 12 12

RUSSIAN AND UZBEK PROVERBS AS A REFLECTION OF THE LINGUISTIC WORLDVIEW: A LINGUOCULTURAL ANALYSIS

Abstract. This study examines the linguocultural aspects of the linguistic worldview reflected in Russian and Uzbek proverbs and sayings. Proverbs and sayings, being concise and culturally rich expressions, encapsulate societal values, beliefs, and experiences. The research analyzes a corpus of proverbs and sayings from both languages, exploring how they reflect different cultural perspectives, historical backgrounds, and social norms. The analysis focuses on identifying recurring themes, metaphors, and symbols, comparing and contrasting their manifestations in Russian and Uzbek linguistic and cultural contexts. The study also investigates the extent to which globalization and modernization influence the traditional worldview expressed in these linguistic forms. By examining the similarities and differences in proverbs and sayings of two languages, this work provides insight into the fundamental cultural values and beliefs

that shape the worldview of each linguistic community, contributing to a deeper understanding of intercultural communication and intercultural competence. The findings reveal that while some universal themes exist, the specific cultural interpretation and expression of these themes vary significantly, highlighting the importance of a culturally-grounded approach to language and communication.

Keywords. Linguoculturology, Linguistic worldview, Proverbs, Sayings, Russian language, Uzbek language, Cultural values, Cultural perspectives, Intercultural communication, Metaphor, Linguistic analysis, Ethnolinguistics.

Введение.

Язык, как система коммуникации, глубоко переплетен с культурой. Он является не просто инструментом для передачи информации, но и линзой, через которую мы воспринимаем и интерпретируем окружающий мир.[1] Концепция «языковой картины мира», термин, который относится к культурным перспективам, убеждениям и ценностям, закодированным в языке, была центральной в лингвистических и антропологических исследованиях.[2] Это исследование углубляется в лингвокультурологические аспекты языковой картины мира, изучая русские и узбекские пословицы и поговорки. Эти компактные и культурно насыщенные выражения служат проницательными окнами в общественные ценности, исторические контексты и когнитивные рамки их соответствующих культур.[3]

Пословицы и поговорки, часто описываемые как «мудрость веков», заключают в себе коллективный опыт и убеждения языкового сообщества. Они являются не просто лингвистическими единицами, но и культурно значимыми артефактами, отражающими общее понимание конкретной группы.[4] Они действуют как краткие резюме общественных норм, этических принципов и традиционных знаний.[5] Таким образом, они предоставляют ценный ресурс для изучения лежащего в основе мировоззрения культуры. Изучая повторяющиеся темы, метафоры и символы, присутствующие в пословицах и поговорках, мы можем получить более глубокое понимание культурных перспектив, встроенных в язык.[6]

Русский и узбекский языки, представляющие две различные лингвистические и культурные традиции, предлагают убедительную основу для данного сравнительного исследования.[7] Русский, как славянский язык, имеет богатую литературную и культурную историю, сформированную его европейским и евразийским контекстом.[8] Узбекский, с другой стороны, является тюркским языком, укорененным в Центральной Азии, с его уникальным культурным наследием, находящимся под влиянием тюркских традиций, исламских принципов и истории Шёлкового пути.[9] Изучение сходств и различий в пословицах и поговорках этих двух языков может пролить свет на различные способы, которыми их соответствующие культуры концептуализируют мир.

Данное исследование направлено на изучение лингвокультурологических аспектов ...языковой картины мира, отражённые в русских и узбекских пословицах и поговорках. Исследование мотивировано пониманием того, что пословицы и поговорки предлагают уникальное окно в культурные и когнитивные рамки общества, раскрывая ценности, верования и опыт, которые формируют его мировоззрение. Изучая эти традиционные выражения, мы можем получить более глубокое представление о сложностях языка и культуры и о тесной связи между ними.

Проанализировать повторяющиеся темы и мотивы в русских и узбекских пословицах и поговорках.

Сравнить и противопоставить культурные ценности, социальные нормы и исторические контексты, отражённые в этих пословицах и поговорках.

Изучить использование метафор и символизма в русских и узбекских пословицах и поговорках и их связь с культурными концептуализациями.

Изучить, как глобализация и модернизация влияют на традиционное мировоззрение, выраженное в русских и узбекских пословицах и поговорках.

Понять значение полученных результатов для межкультурной коммуникации и межкультурной компетентности.

Это исследование вносит вклад в растущий объём литературы в области лингвокультурологии, этнолингвистики и межкультурной коммуникации. Оно предоставляет эмпирические доказательства того, как различные культурные перспективы проявляются в пословицах и поговорках разных языков. Предлагая сравнительный анализ русских и узбекских лингвистических и культурных традиций, это исследование направлено на содействие более глубокому пониманию межкультурной динамики и внесение вклада в разработку эффективных стратегий для межкультурного взаимодействия.

Материалы и методы

В данном исследовании применялся смешанный метод, сочетающий качественные и количественные приёмы для анализа лингвокультурологических аспектов языковой картины мира, отражённых в русских и узбекских пословицах и поговорках.[10] Исследование включало сбор, отбор, анализ и интерпретацию пословиц и поговорок из обоих языков.

Сбор данных

Составление корпуса: Репрезентативный корпус русских и узбекских пословиц и поговорок был составлен с использованием следующих источников:

Опубликованные сборники: Были использованы установленные сборники пословиц и поговорок на русском и узбекском языках, включая словари, фольклорные антологии и специализированные издания.[11]

Онлайн-базы данных: Для поиска дополнительных пословиц и поговорок были просмотрены авторитетные онлайн-базы данных и лингвистические ресурсы, обеспечивая разнообразие и подлинность набора данных.

Носители языка: Был собран вклад от носителей обоих языков, особенно при определении широко используемых пословиц и поговорок и их культурного значения.

Критерии отбора данных:

Репрезентативность: Были отобраны пословицы и поговорки, отражающие различные аспекты жизни (например, семья, работа, социальные взаимодействия, мораль) для обеспечения широкого охвата.

Подлинность: Приоритет отдавался пословицам и поговоркам с проверяемым культурным происхождением и использованием по сравнению с теми, у которых происхождение неясно или неоднозначно.

Частота: Часто используемые пословицы и поговорки были в приоритете, чтобы сосредоточиться на культурных концепциях, на которые часто ссылаются.

Актуальность: Приоритет отдавался пословицам и поговоркам с потенциалом для межъязыковых и межкультурных сравнений.

Анализ данных

Качественный анализ:

Тематический анализ: Пословицы и поговорки были проанализированы для выявления повторяющихся тем, таких как время, судьба, труд, семья, справедливость, мудрость и межличностные отношения.[12]

Метафорический анализ: Метафоры и символические представления в пословицах и поговорках были изучены для понимания их культурных и когнитивных последствий.[13]

Контекстуальный анализ: Каждая пословица и поговорка были проанализированы в более широком культурном контексте, изучая их происхождение, историческую подоплеку и социальную значимость.[14]

Количественный анализ:

Подсчёт частоты: Была рассчитана частота ключевых слов и тем, чтобы определить, какие понятия более распространены в каждом из языков.

Категоризация: Пословицы и поговорки были разделены на категории по теме и предмету, что позволило провести систематический и сравнительный анализ распространенности культурных концепций.

Статистический анализ: При необходимости использовались основные описательные статистики для понимания закономерностей и распределений определённых лингвистических и культурных особенностей.

Межкультурный анализ:

Выявленные лингвистические и культурные особенности были использованы для сравнения русских и узбекских пословиц и поговорок для выявления областей пересечения и расхождения в культурных установках.[15]

Было рассмотрено влияние исторических и социально-политических факторов на развитие лингвистических и культурных моделей.

Интерпретация данных: Лингвистический анализ основывался на концептуальной основе языка и культуры, опираясь на соответствующие исследования в области лингвистики, антропологии и культурологии. Культурное и когнитивное значение повторяющихся тем, метафор и символов было объяснено с помощью теоретических основ и существующих исследований в области этнолингвистики и межкультурной коммуникации.

Ограничения: Были выявлены и рассмотрены любые ограничения, связанные с дизайном исследования и методами. Ограничения должны быть сосредоточены на потенциальной предвзятости, связанной с выбором пословиц и поговорок, а также на проблемах, возникающих из-за зависимости от перевода и интерпретации. Влияние глобализации и модернизации на традиционные пословицы и поговорки было признано потенциальной областью для дальнейших исследований.

Shuningdek, B.Brown va S.Levinson tomonidan ishlab chiqilgan “Politeness theory” [1](“Xushmuomalalik nazariyasi”) esa, kommunikativ strategiyaning yana bir muhim jihati sifatida ommaga taqdim etildi. Ularning tadqiqotlari ayollar va erkaklar kommunikativ xulq-atvorlaridagi farqlarni o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etgan. Braun va Levinson xushmuomalalikning to‘rtta asosiy turini ta’riflaydilar: qo‘pol xushmuomalalik, salbiy xushmuomalalik, ijobiy xushmuomalalik va g‘ayrioddiy. Jonatan Kalpeper ham ushbu strategiyalardan foydalangan va ularni o‘zining “Impoliteness”[2](“Odobsizlik”) nazariyasida qo‘shgan.

Ayollar nutqida kommunikativ strategiya va taktika, asosan, ijtimoiy va madaniy kontekstga asoslanib o‘rganilgan. D.Tannen, Eckert, McConnell-Ginet, B.Brown, S.Levinson, Bird va Butler kabi olimlar ayollarning kommunikatsiyasida xushmuomalalik, hamkorlik, ehtiyotkorlik va empatiyani asosiy taktika sifatida tahlil qilishgan. Ushbu tadqiqotlar, ayollarning nutqida o‘zaro yordam, yaqinlik va diplomatiya yaratishga intilishlarini, shuningdek, jamiyatdagi genderga asoslangan kommunikatsiya strategiyalarini tushunishga yordam beradi.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy muloqot masalalari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda kommunikativ strategiya va taktika muammosi bo‘yicha ba’zi ilmiy xulosalar keltirilgan. Xususan, Sh.Safarov, D.Xudoyberganova, M.Sobirova tadqiqotlarida ushbu muammoga qisman munosabat bildirib o‘tilgan. Jumladan, Sh.Safarov hurmat strategiyasini faollashtiruvchi nutqiy tuzilmalar haqida fikr yuritgan. D.Xudoyberganova o‘zbek tilidagi nasriy asarlarda “subyektiv-tahliliy” strategiya ko‘p uchrashini aniqlagan. M.Sobirova bosma mediamatnlar misolida “O‘zini namoyon qilish”, “Obro‘sizlantirish”, “Targ‘ibot” “Qahramonlashtirish” kommunikativ strategiyalarini keltirib o‘tgan. Albatta, har qanday kommunikativ strategiya va taktika muloqot maqsadi va turiga ko‘ra tanlanadi. Shu jihatdan ushbu muammoni muloqotning rasmiy, norasmiy kabi turlarida alohida o‘rganish maqsadga muvofiq. [3,B.7]

O‘zbek tilshunosligida kommunikativ strategiya va taktika sohasida tadqiqotlar keng tarqalgan emas, lekin bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarga 2000-yillardan boshlab tobora ko’proq e’tibor qaratilmoqda. Tilshunoslar pragmatika, diskurs tahlili va muloqot nazariyasi orqali nutqdagi kommunikativ usullarni, strategiya va taktikalarning ijtimoiy va madaniy aspektlarini o‘rganishmoqda.

Mazmuni: Kommunikativ strategiya doimo nutq vaziyatidan kelib chiqgan holda rejalashtiriladi. Nutqiy strategiya muloqot jarayoniga xos bo‘lgan ijtimoiy, psixologik, emotsional xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zlovchi yoki tinglovchilarning maqsad, istak-xohishlari asosida amalga oshiriladi. Nutqiy strategiya dialog yoki muloqot jarayonida nutqiy muomala modellari (odatiy salomlashish, formal suhbat usullari va shu kabilar) tarzida, shuningdek, noodatiy muloqot usullaridan (luqma tashlash, fraza, maqol, matal kabilar yordamida) foydalanish bilan hosil qilish mumkin. [4,B.188]

Kommunikativ strategiya aniq muloqot vaziyatida strategiyani amalga oshirishga qaratilgan usullarni bajaruvchi taktika orqali amalga oshiriladi. So‘zlovchi ongida mavjud bo‘lgan va ko‘zlangan kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradigan nutqiy tuzilmalar majmuasi shaxsning pragmatik zahirasi va imkoniyati hisoblanadi.

Kommunikativ strategiya so‘zlovchining nutqiy harakati tizimi, kommunikativ maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida ifoda va muomala usullarini ongli ravishda tanlashning umumiy dasturi. Kommunikativ taktika esa nutqiy strategiya hosil bo‘lish jarayonidagi aniq nutqiy yo‘ldir. [5, C.16]

Kommunikativ taktika — muloqot jarayonida maqsadga erishish uchun ishlatiladigan aniq va qisqa muddatli usullar yoki vositalardir. Kommunikativ taktika nutq jarayonlarining strategiyasi bilan belgilanadi, ular birgalikda asosiy kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradi.

Taktika odatda o‘zaro muloqotda biror bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar sifatida ko‘riladi. Kommunikativ taktika o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin, chunki ular suhbatning konteksti, maqsadi, taraflarning ijtimoiy holati va boshqalar bilan bog‘liq holda tanlanadi:

1. Ma’lum bir maqsadga erishish: Taktikalar muloqotda biror bir maqsadga erishishga, masalan, boshqalarni ishontirish, o‘z fikrini ifodalash, o‘zgalarni qo‘llab-quvvatlash yoki ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga yo‘naltiriladi.

2. Shaxsiy va ijtimoiy omillar: Taktikalar, shuningdek, suhbatdoshingizning his-tuyg‘ulari, ijtimoiy pozitsiyasi va munosabati kabi omillarga qarab o‘zgaradi.

3. Moslashuvchanlik: Kommunikativ taktika ko‘pincha vaziyatga qarab tezda o‘zgarishi va yangilanishi mumkin. Masalan, vaziyatni yengillashtirish uchun yumor ishlatish, yoki ziddiyatni yumshatish uchun diplomatik usullardan foydalanish.

Diskurs tahlilining mashhur nazariyotchisi sifatida, T.van Dyuk kommunikativ taktikalarning ijtimoiy va siyosiy kontekstda qanday ishlatilishini o‘rganadi. U nutqda kontekstual, nutqiy, semantik, sintaktik, sxema, matnli muloqot strategiyalarini ajratib o‘tadi.

Muloqotda keng qo‘llaniladigan asosiy kommunikativ taktikalar:

1. Xushmuomalalik: Ziddiyatni kamaytirish, suhbatdoshiga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan gapirish.

2. Mitigatsiya (Yumshatish): Tinglovchiga og‘ir botadigan fikrlarni oshkor qilmaslik yoki muloqot jarayonini keskin o‘zgartirib yubormaslik uchun yumshatish. Masalan, iltimos so‘rash yoki so‘zni ehtiyotkorlik bilan tanlash.

3. Maqtov: Suhbatdoshiga e’tibor qaratish, uni alqash, mavjud fazilatlarini aytish yoki uni ijobiy tasvirlash.

4. Tahrir qilish: Noqulay vaziyatdan chiqish uchun nutqdagi xatolarni tuzatish, gapni qayta shakllantirish.

Natijalar: Pragmalingvistik nuqtai nazardan, ayollar nutqi ko‘proq hamkorlikka va ijtimoiy aloqalarga qaratilgan. Ayollar, asosan, yumshatish (mitigation), iltimoslar, so‘rovlar, ehtiyotkorlik va empatiya kabi nutqiy strategiyalarni qo‘llaydilar. Bularning barchasi ayollarning kommunikativ maqsadlarini, ya’ni muloqotni qanday olib borishlarini aks ettiradi. Ayollar ko‘proq hamdardlikni, boshqalarga nisbatan yumshoqlik va ehtiyotkorlikni saqlashga intiladilar. Masalan,

-*Yig‘lamang, juvon,-dedi Mohlar oyim, - yo‘qlik qursin - yo‘qlik. Pochchasi kambag‘al bo‘lsa, unda gunoh yo‘q, hamma gap taqdiri azaldan.* [7,B.44]

Pragmalingvistik tadqiqotlarda gender rollari ayollar nutqini shakllantirishda muhim omillardan biri sifatida ko‘riladi. Jamiyatda ayollarga taqdim etilgan ijtimoiy rol va gender stereotiplari ularning nutqiy xususiyatlarini va kommunikativ strategiyalarini belgilaydi.

Erkaklar ko‘proq dominatsiya va muvozanatni saqlashga qaratilgan nutq strategiyalarini qo‘llaydilar. Ayollar esa, aksincha, ko‘proq ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, boshqalar bilan hamkorlik va tushunishga qaratilgan nutqiy strategiyalarni qo‘llaydilar.

Empatiya va hamdardlik ayollar nutqida alohida ahamiyatga ega. Ayollar o‘z suhbatdoshlari bilan hissiy aloqalarni mustahkamlashga intiladilar. Bu, ayniqsa, ayollar o‘rtasida va oilaviy muloqotlarda ko‘zga tashlanadi. Ayollar jamiyatda o‘zining ijtimoiy

mavqeni va xushmuomalalikni ko‘rsatishga qaratilgan strategiyalarni qo‘llaydilar. Xushmuomalalik strategiyalari ko‘pincha iltimoslar, so‘rovlar orqali amalga oshiriladi.

Ayollar nutqida kommunikativ strategiya va taktika, aslida, madaniyat, ijtimoiy normlar va shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq holda shakllanadi. Ayollarning nutqi, ko‘pincha, jamiyatda ularning rollari, qadriyatlari va ijtimoiy kutishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kommunikativ strategiyalar odatda umumiy, uzoq muddatli maqsadga erishish uchun tanlanadi. Ayollar nutqida quyidagi strategiyalarni uchratish mumkin:

• Empatiya va samimiyat: Ayollar ko‘pincha boshqa odamlar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatishga va suhbatdoshida yaxshi taassurot qoldirishga intilishadi. Nutqda ular empatiya, samimiyat va qo‘llab-quvvatlashni aks ettiradigan strategiyalarni ishlatadilar. Bu, o‘z navbatida, suhbatdoshlarga ishonch va yaqinlik hissini beradi.

• Diplomatiya va ehtiyotkorlik: Ayollar ko‘pincha bevosita va og‘riqli tanqidlar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshiliklarni kamaytirishga harakat qiladilar. Ular ko‘proq ehtiyotkorlik bilan gapirishadi, shu orqali jamiyatda o‘zlarini jiddiy va hurmatli qilib ko‘rsatishga intiladilar.

• Hamkorlik va jamoaviylik: Ayollar ko‘pincha guruh ichida o‘zaro yordamni rag‘batlantiruvchi strategiyalarni qo‘llaydilar. Ular boshqalar bilan birgalikda ishlash, umumiy maqsadlarga erishish niyatida bo‘ladilar.

Olingan natijalarning ishonchliligi: Taktikalar esa maqsadga erishishda tezkor, qisqa muddatli usullardir. Ayollarning nutqida quyidagi taktikalarga duch kelish mumkin:

-Ayollar ko‘pincha yumshoq va nozik so‘zlarni ishlatadilar. Bu, o‘z navbatida, ularga muloqotda noziklik va xushmuomalalikni saqlash imkonini beradi. Misol: “*Yaxshimisiz, asalim, bugun ham doimgidek juda go‘zalsiz!*” (Omonova Sevara, 27 yosh).

-So‘roq va maslahat so‘rash: Ayollar o‘z fikrlarini ifodalashda, ko‘pincha boshqalarning fikrini so‘rashadi yoki maslahat oladilar. Bu nafaqat jamiyatda ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, balki boshqalarning fikrini inobatga olish orqali fikr almashishni osonlashtiradi. Misol: *Kichkinam kechasi bilan isitmalab chiqdi. Tomog‘i qizarmagan, burni oqmayapti, muzdek suv ichmagandi. Nimadan bunday bo‘lganini bilolmayapman. Yaxshi pediatr tanishinglar bormi? Qayerga olib borsam bo‘larkan? Nimadan shunday bo‘lishi mumkin, sizlarni bolangizda ham shunaqa bo‘lmaganmi?* (Qosimova Laylo, 29 yosh)

O‘zbek ayollari nutqida keng tarqalgan “yo‘q” inkor so‘zini ishlatmasdan, so‘roq ohangida fikr bildirish bilvosita rad etish (yoki indirekt rad javobi) taktikasiga kiradi. Bu usul suhbatni yumshoqroq va nozikroq tarzda olib borish, qarama-qarshilikni oldini olish va suhbatdoshning hissiyotlarini inobatga olish uchun ishlatiladi.

- *O‘rdadan kelgan kishiga shu to‘nni berib bo‘larmikin?* [7,87]

Bu so‘roq suhbatdoshga imkonsizligini sezdiradi, lekin to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobi berilmaydi.

Xulosa: Ayollarning nutqida komunikativ strategiyalari va taktikalari o‘zgarishi, asosan, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarga bog‘liqdir. Ma’lumki, ba’zi jamiyatlar qadriyatlari ayollarni muloqotda passiv bo‘lishga undasa, boshqalarda ular ko‘proq faol nutq uslublariga ega bo‘lishlari mumkin.

Bugungi kunda kommunikativ strategiya nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya, va lingvodidaktika sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Nutqda strategiyalarning qanday ishlatilishi ijtimoiy rol, gender, madaniyat va shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Ayollar nutqida nutq strategiyalarini tushunish, nafaqat ular uchun, balki umumiy ijtimoiy munosabatlarda ham samarali muloqot o‘rnatishga yordam beradi. Bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini hisobga olish bilan tobora muhim bo‘lmoqda. Ayollarning nutqi jamiyatda o‘zaro aloqalarni va ijtimoiy rolni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Brown, Penelope and Stephen C. Levinson. 1987. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Culpeper, Jonathan (2011-01-06). Impoliteness. Cambridge University Press.
3. S. Barliboyeva. O‘zbek tilidagi siyosiy matnlarda kommunikativ strategiya va taktika: lingvopragmatik yondashuv. Filol. f.f.d. (PhD) diss.. – Toshkent, 2024.
4. L.Boymuradova. “Nutqiy faoliyat va nutqiy strategiyaning pragmatik ifodasi”. So‘z san’ati xalqaro jurnali. №6,2022, 188-b.
5. Иссерс О.С.Коммуникативные стратегии и тактики русской речи: Автореф.дис....д-ра филол.наук.Екатеринбург
6. Richard J.; Ide, Sachiko; Ehlich, Konrad (2005). *Politeness in Language: Studies in its History, Theory and Practice*. Walter de Gruyter.
7. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent:O‘qituvchi nashriyoti,2018. – 44-,87-b.
8. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2017. – 271 b.
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008.
10. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: ф.ф.номз. ...дисс. – Т., 2009.

УДК: 81’255.2

Абдулхакимова Гулчехра Тургуновна
Ассистент кафедры узбекского языка, педагогики
и физической культуры
Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

ПЕРЕДАЧА НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА ПРИ ПЕРЕВОДЕ УЗБЕКСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА РУССКИЙ ЯЗЫК

Аннотация. Воспроизведение национального колорита - это сложнейший вопрос теории и практики перевода, так как каждое литературное произведение является продуктом определенной эпохи. В процессе исторического развития народ вырабатывает свои взгляды на мир, на действительность. И в переводе необходимо воспроизвести все эти особенности, передать дух народа, его образ мысли, чтобы обогатить читателя, расширить его представление о мире. Лексические и фразеологические единицы оригинала и перевода подчинены соответствующим языковым нормам, которые реализуются в различных контекстах как результат отбора наиболее точных, общеупотребительных языковых элементов из числа однозначных или сходных по тем или иным признакам вариантов.

Ключевые слова: век перевода, эпоха, особенности языка, приемы художественного перевода, зеркало истории, национальный колорит, быт, обычай, традиции, история, культурное наследие, языкознание.

Abdulkhakimova Gulchekhra Turgunovna
Assistant of the Department of Uzbek Language,
Pedagogy and Physical Education
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

TRANSFER OF NATIONAL COLOR IN TRANSLATION OF UZBEK WORKS INTO RUSSIAN

Annotation. Reproducing national color is a complex issue in the theory and practice of translation, since each literary work is a product of a certain era. In the process of historical development, people develop their views on the world and reality. And in translation it is necessary to reproduce all these features, to convey the spirit of the people,

their way of thinking in order to enrich the reader and expand his understanding of the world. Lexical and phraseological units of the original and translation are subject to the corresponding language norms, which are implemented in various contexts as a result of the selection of the most accurate, commonly used language elements from among the options that are unambiguous or similar in one way or another.

Key words: century of translation, era, language features, literary translation techniques, mirror of history, national color, way of life, customs, traditions, history, cultural heritage, linguistics.

Abdulhakimova Gulchehra Turg'unovna
O‘zbek tili, pedagogika kafedrasi assistenti
va jismoniy tarbiya
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiya instituti

O'ZBEK ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMASIDA MILLIY RANGNI O'TKAZISHI

Annotatsiya. Har bir adabiy asar ma'lum bir davr mahsuli bo'lganligi sababli, milliy rangni takrorlash tarjima nazariyasi va amaliyotida murakkab masaladir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida odamlarning dunyo va voqelik haqidagi qarashlari shakllanadi. Tarjimada esa bu xususiyatlarning barchasini takrorlash, o‘quvchini boyitish, dunyo haqidagi tasavvurini kengaytirish uchun xalqning ruhini, tafakkur tarzini yetkazish zarur. Asl nusxa va tarjimaning leksik va frazeologik birliklari tegishli til me’yorlariga bo‘ysunadi, ular bir ma’noda bir ma’noli yoki o‘xshash variantlar orasidan eng to‘g‘ri, ko‘p qo‘llaniladigan til elementlarini tanlash natijasida turli kontekstlarda amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima asri, davr, til xususiyatlari, badiiy tarjima texnikasi, tarix ko‘zgusi, milliy kolorit, turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, tarix, madaniy meros, tilshunoslik.

Введение. «Век перевода» довольно широко продолжает развиваться и в XXI веке. Невозможно представить себе какую-либо область общественной, культурной и научной жизни без перевода. Понятие «международные отношения» включают в себя экономические, политические, культурные связи. Сегодня, в эпоху так называемого компьютерного века, когда техника достигла высокого прогресса, методы и средства осуществления международных связей являются различными. Место переводов и переводчиков, при установлении культурных связей и их развитии, занимает особое значение. Так как культура, являясь

зеркалом истории страны, в первую очередь, нашло свое отражение в литературе. Самые яркие примеры художественной литературы всегда передавались от человека к человеку из уст в уста, и народы могли ближе знакомиться друг с другом при помощи перевода художественных произведений. [1,С.192]

По словам узбекского ученого-переводоведа Г. Саломова, «нельзя представить без перевода установление дружественных отношений между народами, изучение и усвоение культурного наследия друг друга…». [7,С.21] Перевод является важным источником для сравнительного языкознания и переводоведения и для исследований сравнительного культуроведения. Ни одна национальная культура не достигла бы высот обособленно, самостоятельно, то есть совершенно отделяясь от культурного развития других народов. Это невозможно. Наоборот, культура всех народов, оказывая влияние друг на друга в той или иной степени, получала преимущества от взаимной культуры и оказывали влияние друг на друга в той или иной степени. При переводе выявляются сходства и различия не только между языками, но и в культурах между нациями. [10,P.26]

Методология исследования. Перевод это не только просто перевод слова с одного языка на другой, но и умение полностью отразить культуру одной страны в языке другого народа. И этот процесс является главным в переводческой деятельности, так как целью перевода представляет собой передачу мысли, воображения и душу целой нации. Поэтому при переводе нужно быть очень осторожным, выражая психологическое состояние характерных для культуры того или иного народа, привычек, образов, норм обращения, поведения и обрядов, а также при передаче названий национальной одежды, характерных для одной нации, национальных блюд, национальных праздников, музыкальных инструментов, традиций и названий украшений, которые требуют особой и всесторонней научной подготовки. При переводе недостаточно знания языка народа. Переводчик должен владеть полным знанием его истории, образа жизни, традиций, обычаев, и именно эти принципы обеспечивают совершенство при переводе.

В ознакомлении одних народов с духовным богатством других, освоении великих образцов мировой литературы, развитии культур, установлении дружественных контактов между народами, обогащении национальных языков художественный перевод играет огромную роль. Исследование проблемы воссоздания национального колорита в переводном произведении способствует к развитию теории художественного перевода. Поэтому именно к такой проблеме, как сохранения национального своеобразия в переводных произведениях, посвящены большинство работ тюркологов в области художественного перевода. Тюркологи-переводоведы определили два фактора отражение национального своеобразия оригинала: 1) динамичностью арсенала средств отражения национального колорита в силу постоянного развития языков; 2) перемещением

акцентов в проявлении национального своеобразия в область духовной культуры, в частности, в художественную литературу. [2,С.42]

Большую роль в создании полноценного художественного перевода играет правильное воспроизведение изобразительно-выразительных средств речи: сравнений, метафор, метонимии, эмоционально-экспрессивных слов, так как они отражают национальные особенности культуры народа. [9,P.273]

Обсуждение. Фразеологические обороты играют большую роль при переводе, и они для теории перевода чрезвычайно существенны. Они представляют большие практические трудности и пробуждают большой теоретический интерес, так как связаны с различием смысловых и стилистических функций, выполняемых в разных языках словами одинакового вещественного значения, и с различием сочетаний, в которые вступают такие слова в разных языках. Именно при переводе таких оборотов и вскрывается свойственная данному языку специфичность сочетаний, которая иначе могла бы и не быть замечена. Яркая выразительность национального колорита: характер, строй мышления народов, - передается через пословицы, поговорки и фразеологические единицы, так как они отражают народную мудрость, воспроизводят многие представления, связанные с трудовой деятельностью, бытом, семейными отношениями, национальной культурой. Благородные цели переводческой деятельности заключается в том, что они содействуют сближению народов, помогают им лучше узнать друг друга, найти точки соприкосновения. [3,С.149] Почему проблема мастерства перевода приобретает все большую актуальность? Потому что обмен духовными ценностями является мощным стимулом сближения и взаимообогащения национальных культур, источником укрепления дружбы народов и непременным спутником этого процесса.

Художественный перевод чрезвычайно важен и вместе с тем сложен. Так как характерные особенности художественной литературы должны проявляться в каждом случае индивидуальной художественной манерой писателя, обусловленной его мировоззрением, влиянием эстетики эпохи, разнообразием лексических и грамматических средств языка, а также стилей речи. [4,С.200]

Теория перевода исходит из того, что в процессе данной деятельности должна быть обеспечена полная передача единства содержания и формы оригинала без каких-либо изменений, добавлений, пропусков, искажающих мысли автора, содержание и идею переводимого текста. Поэтому полноценный перевод художественного перевода является результатом творческой деятельности в области языка. Создавая художественный текст, писатель обычно не ставит перед собой специальной задачи отражения национального своеобразия описываемой действительности, но оно входит в структуру произведения. Все элементы структуры, входящие в литературное произведение, служат воплощению его

художественно-эстетической идеи. При переводе художественного произведения на другой язык, специалисты должны следовать задаче выразить национальное своеобразие оригинала, так как она является составной частью общей художественно-эстетической структуры. [5,С.29,43]

И в заключении следует отметить, что овладение основными принципами и способами перевода позволяет получить более точное представление об общих и специфических явлениях узбекского и русского языков, что способствует расширению и развитию словарного запаса, более глубокому пониманию художественно-изобразительных возможностей соотносимых языков. Так как современные переводы требуют не только художественного совершенства, но и научности, знания быта, нравов, истории и культуры народов. [6] Ведь все эти особенности не только в языке народа, не только в изобразительных средствах, но и в быту, обычае, традиции, психологии народа, его самобытной культуре и истории. Посему передача национального колорита художественного произведения есть одна из труднейших задач и одна из важнейших проблем, стоящих перед переводчиком.

Заключение. Из этого следует, к передаче национального колорита нужно подходить с позиций историзма. Поскольку национальная форма находится в непрерывном движении, изменении, что определяется течением самой действительности. В процессе исторического развития народ вырабатывает свои взгляды на мир, на действительность, и в переводе необходимо воспроизвести все эти особенности, передать дух народа, его образ мысли, чтобы обогатить читателя, расширить его представление о мире. Воспроизведение колорита эпохи - также сложнейший вопрос теории и практики перевода, потому как литературное произведение является продуктом определенной эпохи.

Список литературы:

1. Мусаев К. Лексико-фразеологические вопросы художественных переводов. Ташкент: УКАТУВШУ, 1980. -192 с.

2. Мусаев К. Перевод лексических и фразеологических единиц как проблема частной теории перевода (на материале переводов с русского языка на узбекский): Автореф. дис. докт. филол. наук. Тбилиси, 1988. -42 с.

3. Абдулхакимова Г.Т. РАЗВИТИЕ ИСТОРИИ ПЕРЕВОДА УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ /https://zenodo.org/records/14222515/ №4 /224. стр.149

4. Попович А. Проблемы художественного перевода. М.: Высшая школа, 1980. -200 с.

5. Райхштейн А. О переводе устойчивых фраз // Тетради переводчика. - Вып.5. М.: Международные отношения, 1968. -С.29-43.

6. Абдулхакимова Г.Т. Особенности художественного образа. "Экономика и социум" №9(124) 2024 www.iupr.ru

7. Саламов С. Некоторые вопросы передачи стиля М.А. Шолохова в переводе на узбекский язык.: Автореф. дис. . канд. филол. наук. -Самарканд, 1969.- 21 с.

8. Fayzullaeva, R. National Colouring and Literary Translation. - Tachkent, 1979. – P. 178. 9. Georges, M. Les Problèms Théorique de la Traduction. – Paris, 1963. – 273 p.

10. Isakova, Sh.I. Reflection of Nationality and Historicity in Literary Translation: Synopsis of Diss. … Cand. of Philol. - Tachkent, 2004. - 26 p.

UDK:821.511.131-3

Nazarova Nilufarxon Axmedovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
nilufarxonnazarova@gmail.com

ALISHER NAVOIY ASARLARINING PUNKTUATSION BADIIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotidan namunalar, asosan Navoiyning ayrim asarlarida tinish belgilarining qo‘llanilishiga oid punktuatsion tahlillar qisman yoritilgan. Ruboiylar mazmuniga tinish belgilarining daxldorligi tahlil qilingan. Tinish belgilarining asar mazmuniga ta’siri nafaqat grammatik, balki stilistik va badiiy talab ham ekanligi qisqacha izohlangan.

Kalit so`zlar: tinish belgilari, badiiy uslub, ruboiylar, estetik vazifalar, ifodalilik, mazmunga moslik.

Назарова Нилуфархон Ахмедовна
Преподаватель кафедры узбекского языка, педагогики и физической культуры Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий
nilufarxonnazarova@gmail.com

ПУНКТУАЦИОННЫЙ ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВАИ

Аннотация. В статье частично рассматривается пунктуационный анализ примеров из узбекской классической литературы, в основном использование знаков препинания в некоторых произведениях Навои. Анализируется связь знаков препинания с содержанием рубаи. Кратко поясняется, что влияние знаков препинания на содержание произведения обусловлено не только грамматическими, но и стилистическими и художественными требованиями.

Ключевые слова: Знаки препинания, художественный стиль, рубаи, эстетические функции, выразительность, соответствие содержанию.

Nazarova Nilufarkhon Akhmedovna
Teacher of the Department of Uzbek Language, Pedagogy and Physical Culture, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
nilufarxonnazarova@gmail.com

PUNCTUATION ARTISTIC ANALYSIS OF ALISHER NAVAI'S WORKS

Annotation. The article partially covers punctuation analysis of examples from Uzbek classical literature, mainly the use of punctuation marks in some works by Navoi. The relationship of punctuation marks to the content of rubaiyat is analyzed. It is briefly explained that the influence of punctuation marks on the content of the work is not only grammatical, but also stylistic and artistic requirements.

Keywords: Punctuation marks, artistic style, rubaiyats, aesthetic functions, expressiveness, relevance to content.

Kirish. Sharq adabiyoti ummonida hech-hech o‘rganilib tamomlab bo‘lmaydigan ijodiy meros sohibi bu, shaksiz, Navoiy hazratlaridir. Ijodkorni mahoratli tilshunos, benazir adabiyot vakili sifatida ham, ishonchli tarixchi sifatida ham qoldirgan qimmatli adabiy merosini muttasil tahlil va talqin qilish bu merosni yanada jilovlanishiga va tubsizligini anglashga olib keladi. Endigi tahlil Alisher Navoiyning ruboiylarida tinish belgilarini qo‘llanishi va bu tinish belgilari she’riy misralar mazmuniga daxldorligi xususidadir.

O‘zbek punktuatsiyasi tarixi haqida so‘z borar ekan, bevosita Alisher Navoiyning tinish belgilari vazifasida qo‘llagan turli ishoralari qiziqtirishi tabiiy.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarda shoir asarlarida turli maqsadlarda bir necha ishoralar qo‘llangani haqida ma’lumotlar bor. Masalan, R.Alimuhammedov quyidagilarni yozadi: “Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo‘limida (inv.№4056) saqlanayotgan Alisher Navoiyning kulliyotida jamlangan barcha asarlarida qora va qizil siyohdan keng foydalanilgan. Jumladan, “Majolis-un-nafois” qo‘lyozmasida har bir majlis va unda keltirilgan shoirlar nomi qizil siyohda bitilgan. Misol tariqasida keltirilgan she’riy parchalar oldidan yozilgan she’r so‘zi qizilda berilgan. Navoiyning nasriy asarlari, jumladan, “Munshaot” ichida berilgan nazmiy parchalar asosiy matndan joy tashlab bitilgan. Matnga ko‘z tashlagan o‘quvchining diqqatini matnning mana shu yeridagi bo‘sh joy o‘ziga tortadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchiga matnni tushunishga yordam beradi” [2,B.50]

Demak, ijodkor ijodida aynan hozirgi davr tinish belgilari bo‘lmasa-da shu punktuatsiyaning asoslari bo‘lgan. So‘zlarni ikki xil siyohada yozish, so‘z va matnlar orasida joy qoldirish, matnusti, matnosti belgilaridan foydalanish matn tushunilishi va mazmuni anglash uchun xizmat qilgan.

Р у б о и я:
Ҳар лаҳза қил анга юз иноят, ё раб,
Оллиға ёрут шамъи ҳидоят, ё раб,
Ҳам умрини айла бениҳоят, ё раб,
Ҳам давлатиға етурма ғоят, ё раб.[2,B.10]
R u b o i y:
Har lahza qil anga yuz inoyat, yo rab,
Ollig‘a yorut sham’i hidoyat, yo rab,

Ham umrini ayla benihoyat, yo rab,

Ham davlatig‘a yeturma g‘oyat, yo rab.

Ushbu misralarda she’riyatning badiiy vositalari, jumladan, tilning nafis va tasviriyligi, g‘oya va mazmunning chuqurligi o‘z aksini topgan. Badiiy tahlilda quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

Misralarda “yo rab” birikmasi radif sifatida bir necha bor takrorlanadi. Bu nafaqat musiqiylikni ta’minlaydi, janr talabi balki ilohiy yordamga bo‘lgan chuqur ehtiyojni ham ifodalaydi. Takror, shuningdek, so‘zlovchining intilishlarini kuchaytiradi va tasviriy pag‘onalanishni ta’minlaydi. Bu ruboiyni muallif tinish belgisiz yozgan bo‘lsa, so‘zlovchining “yo rab” iltijosi bu qadar gradatsiyalanmagan va yolvorish, mushtoqlikni bu darajada anglatmagan bo‘lardi. Demak, misralar so‘nggidagi nuqta va vergul ham, undalma sifatida ajratilgan radif ham badiiy estetik maqsadlar uchun xizmat qiladi. Radif o‘zida ilohiy iltijoni, yolvorishni va ulug‘vorlikka ishorani ko‘rsatadi. Bu ma’noda she’rda iltijo mazmuni kuchli o‘rin tutishida tinish belgilarining ahamiyati bor. Radif va qofiyaning vergul vositasida ajratilishi ham she’rga o‘zgacha jarang va to‘xtam qo‘shyapti. Fikr qaratilganlik mazmuni vergul qo‘yilishi asosida yanada bo‘rtiriladi, ravshanlashadi. Murojaat mazmuni, e’tibor qaratish darajasi ortadi. Yana yoqimlilik, ohang tempining tebranishi sezilarli darajada kuchayadi [3]

Muhokama. She’r an’anaviy o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos uslubida yozilgan. Bir nechta so‘z va ifodalar o‘zbek mumtoz she’riyatida ko‘p uchraydi. She’rda fikr va tasvirlar asta-sekin rivojlanib, oxirida yuqori maqsadga, ya’ni ilohiy inoyatga erishishga olib boradi. Har bir misra o‘zining xususiy iltijo va tilagi bilan bosqichma-bosqich ko‘tarilib boradi. Shuning uchun 1,2,3- misralar yakunida vergul qo‘yilgan. Oxirgi 4-misragina to‘liq yakun. O‘tgan asr tilshunosligi ham, hozirgi davr tilshunosligi ham ruboiy ichida bundan ortiq tinish belgi ishlatilishi tarafdori emas. Har satr oxiri yoki 4-satr so‘nggida (!) undov belgisi qo‘yish mumkin. Chunki ayrim ijrochi talaffuz ohangida qisman his-hayajon sezilishi mumkin. Undov so‘zlar aniq aks etmagan ko‘rinsa-da, “Yo, rab”- “Ey, Xudo” shakliga teng bo‘la oladi. Bu yerda “ey”- his-hayajon undovi. Demak, (!) undov belgisi qo‘yilishi ham asosli. Lekin biz ham ushbu nashrdagi shu shaklda tinish belgilari qo‘llanishi tarafdorimiz.

Yana bir bayt tahlili:

Эй, нечукким, дурни махфий асрабон Уммон аро,

Гавҳари ишқини пинҳон асраған инсон аро?!

Ey, nechukkim, durni maxfiy asrabon Ummon aro,

Gavhari ishqini pinhon asrag‘an inson aro?! [6,B.851-854]

Ushbu 2 misra yaxlit bir fikr o‘rnida berilganday go‘yo. Lekin ijodkor bu o‘rinda ikki gap orqali ikki fikrni o‘xshatish, qiyoslash maqsadi borligi aniq. “Nechukkim” so‘roq olmoshi o‘rnidagi so‘z birinchi misrada bo‘lsa-da (?) so‘roq va (!) undov tinish belgilari ikkinchi misra yakunida berilyapti. Bu esa tinish belgi qo‘llash orqali yaxlitlikni yaqqol aks ettirishdir. Asli bu yerda undov so‘z “Ey” va his-hayajon ohangi borligi uchun undov tinish belgisi, so‘roq olmoshi uchun so‘roq tinish belgisi qo‘yilgan. Agar bayt

mazmuniga e’tibor bersak, bu yerda aynan javob talab qiluvchi so‘roq gap emas, ritorik mazmundagi so‘roq gap keltirilgan. Bu esa gap so‘nggida aynan shu tinish belgilari qo‘yilmasa ham bo‘laverishini ko‘rsatadi. Bunda 1-misra va 2- misra orasidagi (,) vergul o‘rnida (—) tire ishlatilishi kerak. Ikkita sodda gap orasida tire ishlatilishi gaplar mazmunida o‘xshatish, qiyoslash mazmuni yetakchi bo‘lgani uchundir.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida o‘xshatish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi.[1,B.91]

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida zidlash, qarshilantirish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi.[1,B.91]

Misralar orasida vergul shartmasligiga yana bir asos misralardagi voqealar, tasvirlar ketma-ketlikda emasligi. Baytda undov so‘zdan keyin qo‘yilgan vergullar (,) esa grammatik me’yorga mos.

Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘rtasida alohida mazmuniy munosabatlar mavjud bo‘lmay, bu gaplar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo‘lgan (bo‘ladigan, bo‘layotgan) voqea-hodisalarni ifodalasa, odatda ular o‘rtasiga vergul qo‘yiladi: *Ko‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko‘m-ko‘k ko ‘katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar.* (Oybek) *Botirlari kanal qazadi, shoirlari g‘azal yozadi.* (H.Olimjon) [1,B.81]

Ичим фурқат балосинда, тошим ҳажр ибтилосинда,

Таним ишқ изтиробинда, ўзум шавқ изтирорида. [5,17.B]

Ichim furqat balosinda, toshim hajr ibtilosinda,

Tanim ishq iztirobinda, o‘zum shavq iztirorinda.

Nihoyatda ohangdor, sermazmun, serjilo misralarni tinish belgilari yanada ta’sirli, yanada jarangdor qilishga xizmat qilishi kerak. Ikki misra orasidagi vergul (,) sintaktik bo‘laklar orasida to‘g‘ri ishlatilgan. Dastlab, uyushiq bo‘laklar, sanash ohangidagi sintaktik butunliklar seziladi. Keyin qayta-qayta o‘qish asnosida mazmunning gradatsiya, ya’ni ma’no kuchayishi seziladi. Shu bois nashrlarda butunliklar orasida vergul qo‘yilgan.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi gapning kesimi tushib qolgan hollarda ikki gap vergul bilan ajratilib, ikkinchi gapdagi egadan keyin tire qo‘yiladi: *To‘rg‘ay dashtda kuylar, bulbul - chamanda.* (I.Mirzo) *Oltin o ‘tda bilinadi, odam - mehnatda.* (Maqol) *Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod.* (Maqol) [4,B.21]

Aynan bu qoida namunaga mos kelmaydi, lekin gap bo‘laklari odatiy emasligi ko‘rinib turibdi. Fe’l kesimning berilmagani tinish belgilar qo‘yishda murakkablik tug‘diradi. So‘z birikmalari va gaplar orasida qaysi tinish belgi ishlatilishi biroz muammoli vaziyat.

Ichim furqat balosinda – toshim hajr ibtilosinda, [10,B.14]

Xulosa. Shu yerda gammatik me’yor asosida tire qo‘yish ham mumkin bo‘lsa, “esa” so‘zi mazmunda anglashilyapti, shu sabab vergul ham vaziyatga mos. Bu kabi izohlarni yanada asoslash uchun shu mavzudagi bir necha adabiyotlar, dalillar o‘rganilishi kerak. Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyot namunalari nashrlari aslini

akslantirish uchun muhim. Demak, Navoiy asarlari nashrlari nihoyatda e’tibor va mas’uliyat bilan, punktuatsion qoidalarga to‘la amal qilgan holda nashr etilishi kerak. Chunki tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatmaslik asar mazmuni o‘quvchiga oson tushunishga imkon bermasligiga, ijodkor fikrining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). - Toshkent: Zamin nashr, 2021.-232 b.
2. Алимухаммедов Р. Кадимги туркий битикларда пунктуатsiя ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар хакида. Хорижий филология. 1-сон. Тошкент, 2016.
3.Назаров К. Узбек пунктуатsiяси тарихи. - Тошкент, 1976
4. АЛИШЕР НАВОИЙ МУКАММАЛ АСАРЛАР ТЎПЛАМИ Йигирма томлик Учинчи том ХАЗОЙИН УЛ-МАОНИЙ Ғаройиб ус-сиғар Тошкент —1988,
5. АЛИШЕР НАВОИЙ МУКАММАЛ АСАРЛАР ТЎПЛАМИ Йигирма томлик Олтинчи том ХАЗОЙИН УЛ-МАОНИЙ Фавойид ул-кибар Тошкент —1990
6. Nazarova N., Ne’matjonova N. Erkin Vohidov she’rlarida tinish belgilarining qo‘llanilishi “SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI” MAVZUSIDAGI II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO’PLAMI 2024-yil.851-854-b.
7. Юсупова Д. Узбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври), Академнашр, -Т.,2013.-Б. 60
8. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги, Mumtoz so`z, -Т.,2011.-Б. 79
9. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия, Шарқ, -Т., 1998. -Б.4 4. Қаюмов А. Асарлар 3жилд, Mumtoz so`z, -Т., 2009.-Б.147
10. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-2 жилдлар. Фан, -Т., 1987-1988. -Б.14

Казакова Раъно Машраббаевна
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Наманганского государственного института иностранных языков имени И. Ибрата.

Умурзакова Дарья Владимировна
студентка второго курса группы RUA-BR-23 факультета языка и перевода, направления филологии и обучения языкам: русский язык Наманганского государственного института иностранных языков имени И. Ибрата

К ВОПРОСУ О СХОДСТВЕ И РАЗЛИЧИИ «ФАРХАД И ШИРИН» АЛИШЕРА НАВОИ С «РОМАНОМ О ТРИСТАНЕ И ИЗОЛЬДЕ» ЖОЗЕФА БЕДЬЕ В КОНТЕКСТЕ ИХ ФИЛОСОФСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ОСНОВ

Аннотация. в данной статье рассматриваются вопросы изучения творческого наследия выдающегося представителя узбекской классической литературы А.Навои и сравнительный анализ произведения Жозефа Бедье «Роман о Тристане и Изольде» и «Фархад и Ширин» А.Навои, в контексте философских и культурных основ.

Ключевые слова: классическая литература, куртуазная любовь, долг, конфликт, моральные ценности, человеческие ценности.

Kazakova Ra'no Mashrabayevna
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), I.Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti Rus tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Umurzakova Daria Vladimirovna
I.Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti Til va tarjima fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) yo‘nalishi 2-kurs RUA-BR-23 guruhi talabasi

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” BILAN JOZEF BEDIERNING “TRISTAN VA IZOLDA ROMANI”NING FALSAFIY VA MADANIY ASOSLARI NUQTAI NAZARIDAN O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Annotatsiya. ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi A.Navoiy ijodiy merosini o‘rganish hamda Jozef Bedierning “Tristan va Izolda romani” hamda A.Navoiyning “Farhod va Shirin” asarlarini falsafiy-madaniy asoslar nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: mumtoz adabiyot, saroy muhabbati, burch, konflikt, axloqiy qadriyatlar, insoniy qadriyatlar.

Kazakova Rano Mashrabbaevna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, senior lecturer at the Department of Russian Language and Literature of the Namangan State Institute of Foreign Languages named after I. Ibrat.

Umurzakova Daria Vladimirovna,
second-year student of group RUA-BR-23 of the faculty of language and translation, direction of philology and language teaching: Russian language Namangan State Institute of Foreign Languages named after I. Ibrat

ON THE QUESTION OF THE SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN “FARHAD AND SHIRIN” BY ALISHER NAVOI AND “THE ROMANCE OF TRISTAN AND ISOLDE” BY JOSEPH BEDIER IN THE CONTEXT OF THEIR PHILOSOPHICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS

Annotation. this article discusses the study of the creative heritage of the outstanding representative of Uzbek classical literature A. Navoi and a comparative analysis of Joseph Bedier’s work “The Novel of Tristan and Isolde” and “Farhad and Shirin” by A. Navoi, in the context of philosophical and cultural foundations.

Key concepts: classical literature, courtly love, duty, conflict, moral values, human values.

Алишер Навои – выдающийся узбекский поэт, философ, государственный деятель и основоположник узбекской (чагатайской) литературы. Его творчество стало неотъемлемой частью культурного наследия Востока и оказало огромное влияние на развитие литературы Центральной Азии. [1]

Творчество Алишера Навои остается актуальным и в XXI веке. Его произведения изучаются в школах и университетах, его идеи о гуманизме, справедливости и нравственности находят отклик в современном обществе. Многие литературоведы и исследователи продолжают анализировать его труды, раскрывая новые грани его философии и поэтики. Особое внимание уделяется его роли в развитии тюркских языков. Он доказал, что чагатайский (староузбекский) язык может быть не менее выразительным и литературно богатым, чем персидский, что сыграло ключевую роль в формировании узбекской письменности. Сегодня его идеи вдохновляют филологов, занимающихся изучением восточных языков и культур. [2]

Алишер Навои писал на двух языках – персидском и тюркском (чагатайском). Он был первым, кто доказал, что тюркский язык не уступает

персидскому в своей выразительности и богатстве. Его главный труд «Хамса» (Пятерица) включал пять поэм:

1. «Смятение праведных» – философская поэма о справедливости и власти.
2. «Лейли и Меджнун» – романтическая история любви, ставшая классикой восточной литературы.
3. «Фархад и Ширин» – рассказ о преданности и жертвенности.
4. «Семь планет» – аллегорическая поэма о жизни и судьбе.
5. «Стена Искандера» – размышления о мудрости и могуществе. [9]

Романтическая поэма «Фархад и Ширин» (1484 г.) Алишера Навои — это одно из самых выдающихся произведений узбекской литературы и классического Востока. [3]. Она входит в цикл «Хамса», где автор отразил идеалы гуманизма, любви и морали. В свою очередь, «Роман о Тристане и Изольде» (XIII в.) Жозефа Бедье принадлежит средневековой западноевропейской литературе и является одним из первых классических примеров куртуазной любви. Несмотря на различия в культурных традициях, оба произведения объединяет глубокое понимание человеческих чувств и драматизм сюжетов. [4]

Эти два произведения, «Фархад и Ширин» и «Роман о Тристане и Изольде», занимают важное место в литературной традиции своих культур. Алишер Навои, выдающийся поэт Востока XV века, создал свою поэму в рамках классической персидской и тюркской литературы, тогда как «Роман о Тристане и Изольде» является жемчужиной западноевропейской средневековой литературы. Несмотря на значительные культурные, временные и географические различия, оба произведения объединяют такие мотивы, как трагическая любовь, конфликт долга и чувства, а также высокие моральные ценности героев. [5]

Основные сходства и различия между этими произведениями в контексте их философских и культурных основ:

Жанровые особенности

«Фархад и Ширин»	**«Роман о Тристане и Изольде»**
Восточная поэма, написанная в жанре лирико-эпической поэзии, часть цикла "Хамсе".	Средневековый рыцарский роман, созданный в жанре куртуазной литературы.
Основное внимание уделяется внутренним переживаниям героев, философским размышлениям о любви, судьбе и моральных ценностях.	Важное место занимает описание приключений, дуэлей, магии и куртуазной любви.
Язык произведения	

Изысканный и богатый символикой: Поэма написана на изысканном языке, наполненном символами и метафорами, для передачи глубоких философских и эмоциональных смыслов. *Примеры:* Часто встречаются метафоры природы для описания чувств героев, такие как сравнение любви с цветущим садом или мощной рекой; Символика используется для выражения внутренних переживаний героев. Например, горы, которые должен преодолеть Фархад, символизируют его внутренние препятствия и борьбу за любовь.	Богатый, но прямолинейный язык: Легенда написана на языке средневековой прозы, который хотя и богат описаниями, но более прямолинеен и акцентирован на повествовании. *Примеры:* Описание битв и сражений, где внимание уделяется деталям и действиям героев, без глубоких метафорических или символических значений; Прямолинейность проявляется в описании событий, таких как сцены сражений, встречи и диалоги, где язык более утилитарен и направлен на повествование сюжета.

Главные герои и их характеристики

«Фархад и Ширин»	**Фархад**
	Сын великого китайского правителя, принц с благородным сердцем и возвышенной душой. С самого рождения его окружала роскошь дворцовых залов и холодное величие императорских стен, но ни власть, ни богатство не могли развеять тень грусти, что сковывала его сердце. Красивый, умный и с силой, достойной героя легенд, он при этом остается удивительно скромным и чистым в своих помыслах. В нем нет высокомерия знати, лишь искреннее трудолюбие. Его любовь к Ширин — это не просто чувство, а глубокая, идеализированная преданность, ставшая смыслом его жизни. Ради её счастья он готов пойти на любые жертвы, отбросив страх, сомнения и даже собственную жизнь. В каждом его поступке светится чистота помыслов и непоколебимая верность избранному пути, делая его не просто принцем, но и символом любви, чести и самоотречения.
	Ширин

	Племянница царицы страны Армен и возлюбленная Фархада. Она обладает невероятной красотой: её глаза сияют, словно звёзды, а голос звучит, как журчание чистого ручья. Но обаяние в ней кроется не только во внешности — она проницательна и добра. В её характере переплелись гордость и нежность, решительность и мягкость. Её любовь к Фархаду была чистой и искренней, но путь, к счастью, оказался трудным. Её образ олицетворяет преданность, благородство и внутреннюю силу, оставаясь в сердцах людей вечной и вдохновляющей легендой.
	Хосров Парвиз
	Иранский шах, богатый, властный и эгоистичный правитель, чьё сердце поглощено жаждой власти и стремлением к абсолютному контролю. Коварный и расчётливый, он не остановится ни перед чем ради достижения своих целей, искусно манипулируя окружающими и не зная жалости к тем, кто встанет у него на пути. Несмотря на свой брак, он не считает своего сына достойным наследником и ищет новую супругу, которая могла бы укрепить его престол и дать ему идеального преемника. Его образ ярко противопоставлен духовной чистоте и самоотверженной любви Фархада, подчёркивая контраст между бездушным властолюбием и искренними чувствами.

«Роман о Тристане и Изольде»	**Тристан**
	Благородный и отважный рыцарь, сын короля Мелиадука и племянник короля Марка. Он отличается невероятной силой, храбростью и справедливостью, всегда готов встать на защиту слабых и следовать рыцарскому кодексу чести. Однако его преданность долгу и верность королю Марку сталкиваются с трагическим чувством — глубокой и всепоглощающей любовью к Изольде. Эта любовь становится его величайшей слабостью и одновременно самым ярким проявлением его души, нередко ставя честь Тристана под угрозу. Его образ — это олицетворение противоречия между долгом и сердцем, мужеством и нежностью, что делает его вечным символом рыцарской доблести и трагической любви.
	Изольда

	Королева с сильным и решительным характером, которая олицетворяет мудрость и благородство. Её красота — не только внешняя, но и внутренняя: нежность и доброта сочетаются с бесстрашием и стойкостью. Она способна исцелять даже самые глубокие раны, что делает её не просто правительницей, а хранительницей жизни и надежды. Однако её жизнь — это постоянная борьба между сердцем и долгом. Изольда любит Тристана, но её любовь противоречит обязанностям перед мужем и королевством. Этот внутренний конфликт превращает её в сложный, многогранный образ, где любовь сталкивается с жертвенностью, а долг требует отказаться от личного счастья ради общего блага.
	Король Марк
	Мудрый и справедливый правитель, который ценит верность и преданность. Он искренне любит своего племянника Тристана и стремится к миру и благополучию своего королевства. [7] Однако любовь Тристана и Изольды становится для него тяжёлым испытанием. Чувствуя боль предательства, он старается сохранить достоинство и найти баланс между гневом и прощением. Марк — это пример правителя, для которого долг перед королевством важнее личных чувств, но чья человечность проявляется в его страданиях и благородстве.

Темы и мотивы

«Фархад и Ширин»	**Любовь**		**«Роман о Тристане и Изольде»**
	Любовь Фархада к Ширин самопожертвенная. Он готов на великие подвиги ради её счастья, такие как прокладка канала в горе.	Любовь Тристана и Изольды трагична и рокова. Она возникает из-за выпитого зелья и приводит к разрушению социальных устоев.	
	Судьба		
	Судьба неумолима и приводит к трагическому финалу. Она и управляет жизнью героев, лишая их возможности изменить ход событий.	Судьба героев предопределена любовным зельем, которое соединяет их навечно. Она неизбежно соединяет героев, даже если, с одной стороны, это губит их жизнь.	

	- Ложное известие о смерти Ширин, которое вынуждает Фархада закончить жизнь.	- Могилы Тристана и Изольды, которые символически объединяются после смерти.	
	Тема долга и чести		
	Фархад демонстрирует высокую степень своего долга и чести. Он продолжает служить Ширин даже после её отказа.	Тристан находится в конфликте между долгом перед королём Марком и любовью к Изольде.	
	- Он был готов выполнять её поручения, несмотря на личные трудности. Долг тесно связан с личной преданностью.	- Его возвращение к Изольде, несмотря на обязательства перед королём. Конфликт подчёркивает сложность морального выбора.	

«Фархад и Ширин» Алишера Навои и «Роман о Тристане и Изольде» Жозефа Бедье являются шедеврами своих культур, которые, несмотря на различия, объединяет глубокий философский взгляд на любовь, судьбу и человеческие взаимоотношения. [6,P.53,63] Алишер Навои переосмысливает идеалы любви через призму восточной этики, тогда как автор «Романа о Тристане и Изольде» подчёркивают роль фатализма и куртуазности. Сопоставление этих произведений позволяет не только лучше понять их содержание, но и осознать, насколько универсальными являются человеческие чувства, способные преодолевать культурные и временные границы.

Творчество Алишера Навои оказало огромное влияние не только на узбекскую литературу, но и на литературы других народов Востока. Его произведения были переведены на многие языки мира, а его идеи о культуре, любви, человеческих ценностях, языке и этике остаются актуальными и сегодня.

Использованная литература:

Cultural influence plays an equally important role in the forging of the author's idialect, as an individual is immersed in a cultural setting that strongly runs through their linguistic choices, thematic concerns and narrative structures. Authors who are able to draw on relevant cultural backgrounds can lyrically embed idioms, traditional narrative techniques, and other points of cultural reference related to their background into the text, essentially weaving it with much deeper layers of meaning derived from collective experience. This aspect of culture promotes authenticity in the story by inviting readers from every possible background to approach the text with a particular conscious engagement that boosts cross-cultural dialogues and moves the individual toward a more multifaceted understanding of divergent worldviews. The style of writing combines such elements as the writer's educational background, literary traditions or form of writing, and rhetorical strategies that helped shape them as an active participant in life. The spider-web of problems posed by the different phases of education that one goes through-from formal education and self-study not only equip the writer with a choice of language but also with an understanding of complex techniques for creating a narrative or two, giving them enough freedom to experiment with forms and styles.

In our view, the most indicative and efficient approach to analyzing the creative output of an individual writer lies in the study of their idiolect, as it represents not merely the distinctive features of the author's individual speech but rather encompasses the entire spectrum of their linguistic resources; furthermore, the demonstration of those linguistic techniques that the writer employs most frequently will collectively distinguish their style

from that of others. In this regard, when describing a writer's idiolect, it is essential to highlight all elements that "merit attention with respect to any deviation from the hypothesized average (ideal) norm". Although a writer's idiolect may vary over time and across different works, it should not be regarded as inherently unstable; rather, it is formed on the basis of the language of a social group, thereby constituting the core of the writer's individual speech, with only specific elements of the writer's linguistic system undergoing change, reflecting its evolution. Thus, it becomes feasible to study a writer's idiolect both synchronically (considering a specific period) and diachronically.

Discussion. The discussion of idiostyle brings a consistent point of reference when analysed against established writing styles - modernism, postmodernism and regional styles, especially when they focus on individual statement and composite influence from other approaches. Modernism, as expressed through fragmentation, self-alienation after the First World War and structural motifs, often experimenting with scanning and confusion narratives, supposedly aims to represent the complexity of modern life. Conversely, idiostyle provides a loud contrast: the writer believes that the individual voice and personal experience should be given priority in his writing, with personal experience as a traceable journey rather than a sense of social desolation, which remained one of the recurrent themes in modernist writing. Modernism, with its transparency, pastiche and irony, presents a coherent challenge to the pervasive notions of truth and authority of narrative; idiostyle, on the other hand, is strong in authenticity and creates a more immediate, more transparent emotional bond with the reader. Furthermore, while regional style emphasises cultural specificity and communal enterprise, idiostyle is more likely to transcend geographical boundaries by foregrounding the writer's primal perception, thus creating a landscape for multiple influences that deepen emotional themes within the narrative. [3]

Literary examples further illustrate these concepts. Woolf is the perfect example in English literature to capture the essence of idiostyle: the way in which her personal experience and particular use of language manage to have an impact. The flow of Woolf's prose in To the Lighthouse reflects her stream-of-consciousness technique, giving the reader a shockingly realistic insight into the minds of her characters. The effect is tremendous, as the allusion to her idialect draws heavily on her reflections on time, memory and identity, leaving the reader thoroughly immersed in the intricacies of the human experience. It is this fluidity of language that makes the theme of her novel so vivid and makes her one of the most important figures in modernist literature.

Similarly, in Uzbek literature, Abdulla Kadiri's works provide a classic example of the idiostyle, which embodies the convergence of personal and cultural identity. His novel "O'tkan Kunlar" ("The Past Days") reflects the socio-political milieu of early twentieth-century Uzbekistan, filtered through individual characters who have been touched in one way or another by their own cultural heritage and historical background. Colloquial diction, intense imagery and heart-wrenching themes are the sine qua non of Kadiri's ideology, which links classical Uzbek storytelling with modern narrative

techniques. As both private narrative and broader societal issues intertwine, Kadiri's idiostyle not only captures the intricacies of his protagonists, but also serves as a framework for examining the cultural renovations taking place in his homeland, thus ensuring his prominence in Uzbek literature.

Conclusion. Idiostyle and idialect manifest the incredibly close interplay between the author and the work of fiction. By the same token, the reader gets acquainted with how the individual, cultural, and educative background molds literary representation through examination of characters and surrounding worlds. This gives value to the act of reading and brings forth the recognition of individuality or the self-expression of literature. An acknowledgment of how open appliances to idiostyle and idialect shape speech brings into relief the entire literature in all its depth and complexity and in the process tends to set up the whole tenor of our engagement with the work and its creator.

REFERENCES

1. Babich, V.I. (2017). linguostylistic means of expressing the lyrical self at the lexical and grammatical level in a poetic text (based on the materials of idiodiscourses by r. frost and k. sandberg). scientific bulletin of kherson state university, 3, 109-116.
2. Crystal, D. (2016). the gift of the gab: how eloquence works. connecticut: yale university press. 256 p.
3. Edwards, R. (2019). robert louis stevenson on style in literature. everywriter.
4. Eder,M. (2013). does size matter? authorship attribution, small samples, big problem. digital scholarship in the humanities, 30(2), 167-182.
5. Fedotova, M.A. (2013). k voprosu o razgranichenii ponyatiy idiostil' i idiolekt yazykovoy lichnosti. zapiski romano-germanskoy filologii, 1, 220-225.
6. Grigoryev, V.P. (1983). grammatika idiostilya: v. khlebnikov. moskva: nauka. 223 p.
7. Mikhaylov,M.M. (1966). kultura russkoy rechi. cheboksary: chuvashskoye knizhnoe izdatel'stvo.
8. Vinogradov, V.V. (1976). izbrannye trudy. poetika russkoy literatury. moskva: nauka. 512 p.
9. Vinogradov,V.V.(1998). idiolect. in yu.n. karaulov (ed.), russkiy yazik. entsiklopediya (2nd ed., pp. 144–145). moscow: bol'shaya rossiyskaya entsiklopediya; drofa.

Xaydarova Ra’no Anvarovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchisi

FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABA QIZLARI VATANPARVARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya. Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiylashuvi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, talaba qizlar uchun ijtimoiylashuv jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda katta ahamiyatga ega. Bu maqolada loyiha ta‘lim texnologiyalarining talaba qizlarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishdagi ahamiyati va ularning ijtimoiy faolligini oshirishdagi rolini tadqiq qilamiz. Loyiha ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: loyiha ta’lim texnologiyasi, talaba qizlar, ijtimoiy faollik, rivojlanish.

Хайдарова Раъно Анваровна
старший преподаватель
Ташкентский государственный университет востоковедения

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ

Аннотация. Социальная активность и социализация молодежи играют важную роль в обществе. Особенно для студенток социализация имеет большое значение в укреплении их положения в обществе, личностном и профессиональном развитии. В данной статье мы изучим значение, особенности и условия использования проектных образовательных технологий в развитии патриотизма студенток и их роль в повышении их социальной активности.

Ключевые слова: проектная образовательная технология, студентки, социальная активность, развитие.

Khaydarova Rano Anvarovna
senior teacher
Tashkent State University of Oriental Studies

EFFECTIVE USE OF PROJECT EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN DEVELOPING PATRIOTISM OF STUDENTS OF PHILOLOGY

Annotation. Social activity and socialization of youth play an important role in society. Especially for female students, socialization is of great importance in strengthening their position in society, personal and professional development. In this article we will study the meaning, features and conditions for the use of project-based educational technologies in the development of patriotism among female students and their role in increasing their social activity.

Keywords: project-based educational technology, female students, social activity, development.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi undagi har bir ongli fuqaroning ijtimoiy faolligiga bog‘liq bo‘lib, bunda ayniqsa yoshlarni faollashtirish dolzarb masalalardan biridir. Ijtimoiy faollik yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, talaba qizlar uchun ijtimoiy faollik ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirishda, ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishlarida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollik muammosini rivojlantirishga bir qator olimlar o‘z xissasini qushgan, jumladan, respublikamiz olimlaridan N. Egamberdiyeva, Q.Q. Quronboev, I.Ergashev, M.Raxmonova, H.Hamzayev, X.Tojiboyeva, M.Maxmudova, Z.Shaumarova, N. Nurmatova, xorijiy mamlakat olimlaridan I.Kolesov, A.V.Ivanov, S.Kerkis, D.Reynolds Stephanie, Abu-Ghaida v.b.

Pedagog olim Q.Q.Quronboev o‘z tadqiqotlari davomida talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratgan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlarning sust mahsuli emasligini va inson ijtimoiy munosabatlar hamda ijtimoiy borliqdan tashqarida yashay olmasligini ta’kidlab o‘tadi. Yoshlar, xususan, o‘quvchi-qizlar mana shu ijtimoiy munosabatlar jarayonida rivojlanib, takomillashib boradi. O‘quvchi-qizlar ijtimoiy faolligi va bilimlarning barchasi ijtimoiy muhitning bevosita ta’siri natijasi hisoblanadi [1].

Ijtimoiy faollik jamiyatdagi shaxsning faol ishtirokini, uning ijtimoiy jarayonlarga, ijtimoiy munosabatlarga va jamoat ishlariga qo‘shilishini bildiradi. Bu tushuncha shaxsning ijtimoiy rolini anglash, mas‘uliyat his qilish, jamoat ishlariga qo‘shilishga intilish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy faollikning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy munosabatlar, jamoaviy faoliyatlar, ijtimoiy tashkilotlarda ishtirok etish va boshqa turli faoliyatlarni qamrab oladi.

Ijtimoiy adolatni ta‘minlash uchun jamiyatda barcha a‘zolarning, jumladan, qizlarning ham faol ishtiroki muhimdir. Talaba qizlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish jamiyatda adolat va tenglikni ta‘minlashga yordam beradi. Mutaxassislar talaba qizlarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullaridan biri sifatida loyiha texnologiyasidan foydalanishni tavsiya etadilar. Bunda loyiha usuli nafaqat o'quv jarayonining ko'lamini kengaytirishi va turli xil asosiy vakolatlarni

shakllantirishi, balki ijtimoiy faollikni shakllantirish bo'yicha samarali ishlash usullaridan biri bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratiladi [2].

Loyixa ta‘lim texnologiyasi talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga, ijodiy faollikka va jamoaviy ishlashga o‘rgatadi. Bu texnologiya yordamida talabalar o‘zlarining kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. A. S. Zyolko va K. S. Bajinlarni ta‘kidlashicha, «Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning eng samarali vositasi talabalarni loyiha faoliyatiga jalb qilishdir». [3]

Loyiha ta‘lim texnologiyalari (PBL - Project-Based Learning) ta‘limning amaliy usuli bo‘lib, talabalarni muammolarni hal qilish, mustaqil tadqiqot olib borish, jamoaviy ishlash kabi faoliyatlarga jalb qiladi.

Lotin tilida «loyiha» - proyeksiya atamasi «oldinga tashlangan» degan ma‘noni anglatadi. Loyiha kutilayotgan yoki taxmin qilinayotgan ob‘ektning, holatning benuqson shakli, timsoli, ba'zi hollarda - reja, maqsad. K.M. Kantorning so‘zlariga ko‘ra uchun loyiha inson ongining ijodkorlik faoliyatini namoyon bo‘lishidir. Muallif loyiha ongning har qanday mehnat jarayonini qura oladigan maxsus shakli ekanligiga katta ahamiyat beradi.[2]

Loyihani yaratish jarayoni loyihalash deb ataladi. E.I.Isaevning ta‘kidlashicha, loyihalash rivojlantiruvchi ta‘limning harakatlantiruvchi mexanizmidir: “Loyihalashning predmeti uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning, bir holatdan boshqa holatga o'tishiga sharoit yaratishdir” [4].

Loyiha ta‘lim texnologiyalari - bu ta‘lim jarayonini ko‘plab loyihalar va amaliy ishlarning bajarilishiga asoslangan o‘qitish metodi. Bu yondashuv ta‘lim oluvchilarlarga nazariy bilimlarni hayotiy va amaliy vazifalar orqali o‘rganishga imkon beradi. Loyiha ta‘lim texnologiyasining asosiy elementlari:

1.Loyiha tanlovi va mavzu taqdimoti:

- Tanlangan mavzu bo‘yicha loyihalarni bajarish.
- Loyiha mavzulari haqiqiy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

2. Fanlararo yondashuv:

-Loyiha bajarish jarayonida bir necha fanlar bo‘yicha bilimlardan foydalanish, ta‘lim oluvchilarning umumiy bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

3. Guruhda ishlash:

-Loyiha ustida ishlash jarayonida ta‘lim oluvchilar guruhlarga bo‘lingan holda hamkorlikda faoliyat yuritadilar.

-Guruhda ishlash ko‘nikmalari va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

4. Amaliyot va tajriba:

-Loyihalar amaliy faoliyatga asoslangan bo‘lishi kerak.

-Ta‘lim oluvchilar nazariy bilimlarni hayotiy sharoitlarda qo‘llashni o‘rganadilar.

5. Taqdimot va baholash:

-Loyiha yakunlangach, o‘quvchilar o‘z ishlarini taqdim qiladilar va buning asosida baholanadilar.

-Taqdimot koʻnikmalari va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Jamoaviy loyihalar orqali talabalar birgalikda ishlashni oʻrganadilar, bir-birlari bilan muloqot qiladilar va jamoadagi vazifalarni taqsimlaydilar. Bu ularning ijtimoiy koʻnikmalarini oshirishga yordam beradi.[7]

Talaba qizlarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun loyihalash texnologiyasidan foydalanar ekanmiz quyidagilarga alohida ahamiyat berishimiz kerak boʻladi:

- oʻspirinlik yoshini, jinsini oʻziga xos tomonlari va har xil taʻlim yoʻnalishlarida oʻqishlaridan kelib chiqib qiziqishlarini ham turlichaligini inobatga olish;

- talabalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalarni taqsimlash tavsiya etiladi;

- guruh ishlarini tashkil etish bilan bir qatorda talaba qizlarga psixologik va ijtimoiy-pedagogik maslahat berishda individual yondashish zarur;

- talabalarning mustaqil fikrlashga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga ijtimoiy va professional tajriba to'plash imkoniyatini berish kerak.

Bizning fikrimizcha, talabalarni muvaffaqiyatli ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasiga jalb qilishda yagona toʻgʻri mezon barcha manfaatdor tomonlarning kutganlariga mos keladigan natijalarni olishlaridir. Shu munosabat bilan, loyiha faoliyati jarayonida talabalarning nafaqat loyiha maqsadlarini to'liq amalga oshirishiga, balki shaxsiy natijalarga erishish zarurati muhim rol o'ynaydi, bu esa ijtimoiy faol fuqarolik koʻnikmalarini egallash bosqichiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Biz uning universitet muhitida shakllanishi va rivojlanishini oʻsish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy rivojlanish vazifalariga muvofiq o'zini va jamiyatni o'zgartirish uchun talaba qizlarning ijtimoiy muhit bilan ongli o'zaro ta'sirini amalga oshirishda sifat va miqdoriy o'zgarishlar jarayoni va natijasi sifatida ko'rib chiqamiz. Loyihalashning muvaffaqiyati ushbu shartlarning amalga oshirilishiga bog'liq bo'lib, u nafaqat loyihalar sifati, balki talaba qizlarning ijodkorligi va ijtimoiy faolligi o'sishi bilan ham tavsiflanadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, loyiha taʻlim texnologiyalari talaba qizlarning oʻz-oʻzini boshqarish, mustaqillik va masʻuliyatni oshirishga yordam beradi. Ular oʻz loyihalarini mustaqil rejalashtirish va amalga oshirish orqali bu koʻnikmalarni rivojlantiradilar. Aynan ushbu taʻlim texnologiyalari orqali talaba qizlar birgalikda ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilish kabi ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantiradilar. Bu ularning jamiyatda faol ishtirok etishlarini taʻminlaydi. Loyiha taʻlim texnologiyasini toʻgʻri qoʻllash orqali talaba qizlarda oʻz-oʻzini boshqarish, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash kabi muhim ijtimoiy koʻnikmalar shakllanadi. Natijada, ularning ijtimoiy faolligi va jamiyatdagi oʻrni mustahkamlanadi.

Adabiyotlar roʻyhati:

1. Абрамов Г.С. по возрастной Учебное пособие для вузов М.:Издательский «Академия», 1999.-320с.

2. Амонашвили Ш.А. Основы гуманной педагогики М- 2017. - 400 с.

3. Зёлко А. С., Бажин К. С. Проектная деятельность как способ развития социальной активности студентов // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – Т. 13. – С. 4706–4710.

4. Khaydarova Rano. "The process of adaptation of young professionals in preschool education." International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) 5.6 (2021): 10-11.

5. Хайдарова Р.А. Влияние критического мышления на развитие патриотизма // Inter education & global study. 2024. №3 (2).

6. Xaydarov, Ilxom Yusupovich, Xaydarova, Ra’no Anvarovna OLIY TA’LIM PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINING INNOVASION FAOLIYATI TUZILMASINING TARKIBI // ORIENSS. 2021. №Special Issue 3.

7. Хайдарова Р. А., Хайдаров И. Ю. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ-ВАЖНОЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ КАЧЕСТВО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ //Сборники конференций НИЦ Социосфера.

8. Quronboev Q.Q "Talabalarning ma'naviy - ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)": Ped.f.n...diss. - T.: O'zPFITI, 2000 y.

9. Dilafruz Bozorovna Botirova., Markhabo Raxmonkulovna Abdullayeva., Ilkhom Yusupovich Khaydarov., Ra’no Anvarovna Khaydarova., Shaxnoza Sharofovna Sharofova. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity. Journal Power System Technology ISSN: 1000-3673. Publication date 2024/12. Volume 48, Issue 4. Pages 3325-3334. Publisher: https://powertechjournal.com/index.php/journal

Saidakbarova Saodat Parxadjanovna
f.f.n., dosent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

KODLANGAN MULOQOTNING LINGVO-SEMIOTIK MODELI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot lingvo-semiotik kodlash va dekodlash dinamikasini o‘rganib, inson muloqotida til, madaniyat va semiotika o‘rtasidagi o‘zaro aloqaga urg‘u beradi. Strukturaviy lingvistika, gender tadqiqotlari va madaniyatlararo muloqot nazariyalariga tayangan holda, tadqiqot xabarlarning sintaksis va fonologiya kabi lingvistik tuzilmalar orqali kodlanishini va ularni madaniy belgilar hamda jamiyat me’yorlari kabi semiotik omillar kuchaytirishini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tillaridan keltirilgan misollar bu jarayonlarni yoritib, madaniy va lingvistik tuzilmalarning odob doirasidagi iboralar hamda ierarxik belgilarni shakllantirishdagi rolini ochib beradi. Kodlashning muqobili bo‘lgan dekodlash jarayoni ham madaniy muhit, ilgari olingan bilim va interpretatsiya usullari tomonidan ta’sirlanishi isbotlanadi. Tadqiqot xuddi shu xabarning gender, ijtimoiy rol va ommaviy axborot vositalari diskursi ta’sirida qanday turlicha talqin qilinishini tahlil qiladi. Olingan natijalar samarali muloqot uchun madaniy kompetensiya va empatiyaning zarurligini tasdiqlaydi, ayniqsa, ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli kontekstlarda. Ushbu tarmoqlararo yondashuv tilni ma’no kodlash va dekodlash uchun dinamik tizim sifatida tushunishga chuqurroq yondashishga imkon beradi hamda media, shaxslararo muloqot va madaniy identifikatsiya tadqiqotlariga muhim hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: lingvo-semiotika, kodlash, dekodlash, madaniyatlararo muloqot, strukturaviy lingvistika, gender tadqiqotlari.

Saodat Parxadjanovna Saidakbarova
PhD, Associate Professor, Tashkent state university of oriental studies

LINGUISTIC-SEMIOTICAL MODEL OF CODED COMMUNICATION

Annotation. This study examines the dynamics of linguo-semiotic encoding and decoding, emphasizing the interplay between language, culture, and semiotics in human communication. Drawing on structural linguistics, gender studies, and theories of intercultural communication, the study demonstrates that messages are encoded through linguistic structures such as syntax and phonology and are reinforced by semiotic factors such as cultural markers and societal norms. Examples from English and Uzbek illustrate these processes and reveal the role of cultural and linguistic structures in the formation of idioms and hierarchical signs within the framework of etiquette. The decoding process, which is an alternative to encoding, is also shown to be influenced by cultural

background, prior knowledge, and interpretive methods. The study analyzes how the same message is interpreted differently under the influence of gender, social role, and media discourse. The results confirm the need for cultural competence and empathy for effective communication, especially in multilingual and multicultural contexts. This interdisciplinary approach allows for a deeper understanding of language as a dynamic system for encoding and decoding meaning and makes an important contribution to the study of media, interpersonal communication, and cultural identity.

Keywords: linguo-semiotics, encoding, decoding, intercultural communication, structural linguistics, gender studies.

Саидакбарова Саодат Пархаджановна
Кандидат наук, доцент,
Ташкентский государственный университет востоковедения

ЛИНГВИСТИКО-СЕМИОТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ КОДИРОВАННОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. В этом исследовании изучается динамика лингвосемиотического кодирования и декодирования, подчеркивая взаимодействие языка, культуры и семиотики в человеческом общении. Опираясь на структурную лингвистику, гендерные исследования и теории межкультурной коммуникации, исследование демонстрирует, что сообщения кодируются посредством языковых структур, таких как синтаксис и фонология, и подкрепляются семиотическими факторами, такими как культурные маркеры и общественные нормы. Примеры из английского и узбекского языков освещают эти процессы и раскрывают роль культурных и языковых структур в формировании выражений и иерархических знаков в рамках этикета. Доказано также, что процесс декодирования, являющийся альтернативой кодированию, подвержен влиянию культурной среды, ранее полученных знаний и методов интерпретации. В исследовании анализируется, как одно и то же сообщение интерпретируется по-разному под влиянием пола, социальной роли и медийного дискурса. Полученные результаты подтверждают необходимость культурной компетентности и эмпатии для эффективного общения, особенно в многоязычных и многокультурных контекстах. Этот междисциплинарный подход позволяет глубже понять язык как динамическую систему кодирования и декодирования смысла и вносит важный вклад в исследования средств массовой информации, межличностного общения и культурной идентичности.

Ключевые слова: лингвосемиотика, кодирование, декодирование, межкультурная коммуникация, структурная лингвистика, гендерные исследования.

Muloqot inson uchun asosiy ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, jamiyatning mavjudligi, o‘zaro tushunish va hamkorlik qilish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. U insonlar o‘rtasida axborotni almashish va qabul qilishni ta’minlab, bilimni oshirish, hayotiy tajribalarni boyitish va muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Til esa muloqotning asosiy vositasi bo‘lib, uning kodlash va dekodlash jarayonlari lingvistikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Muloqot ishtirokchilari bu mexanizmlardan foydalanib, axborotni jo‘natish (kodlash) va tushunish (dekodlash) jarayonlarini amalga oshiradilar. Ingliz va o‘zbek tillarida kodlash va dekodlash jarayonlarini tushunish turli lingvistik va madaniy kontekstlarda samarali muloqot olib borish uchun juda muhimdir. Kodlangan muloqot masalasi lingvistika, semiotika va madaniyatshunoslik chorrahasida joylashgan bo‘lib, axborotni yetkazish va talqin qilish jarayonlarini o‘rganadi. Muloqot xabarlari ma’lum lingvistik tizim yoki muayyan guruh yoki shaxslar uchun tushunarli bo‘lgan belgilar orqali yetkaziladi. Nutq yoki imo-ishoralar foydalanilayotgan kontekstga yoki guruhning maxsus kodlash tizimiga mos ravishda shakllanadi. Kodlangan muloqot ko‘pincha madaniy va ijtimoiy tuzilmalar asosida shakllanadi hamda muayyan guruhlarning o‘ziga xos kodlash tizimiga ta’sir qiladi. Muloqotdagi gender masalalari tahlillarining keng doirasini qamrab oladi, ayniqsa, gender identifikatsiyasi qanday shakllanishi, u muloqotda qanday aks etishi va jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishiga e’tibor qaratadi [2]. Lingvo-semiotik muloqot modeli lingvistik va semiotik elementlarni birlashtirgan holda gender bilan bog‘liq kodlash va dekodlash jarayonlarini o‘rganish uchun samarali usulni taqdim etadi. Til belgilari (so‘zlar, idiomalar, sintaktik tuzilmalar) va semiotik belgilar (vizual timsollar, imo-ishoralar, tana tili) qanday uyg‘unlikda ishlashini tahlil qilish orqali genderga oid xabarlarning muloqot amaliyotida qanday kodlanishi va auditoriya tomonidan qanday dekodlanishini chuqurroq tushunish mumkin. Ushbu bo‘lim genderning so‘z va vizual muloqotda qanday ifodalanishi va talqin qilinishini o‘rganishga yo‘naltirilgan lingvo-semiotik kodlangan muloqot modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Semiotika, sotsiolingvistika va gender tadqiqotlari nazariyalari asosida ishlab chiqilgan ushbu model gender identifikatsiyasi va rollari muloqotga qanday singdirilishini, jamiyat ichida qanday mustahkamlanishi yoki unga qarshi chiqilishini tahlil qilishga harakat qiladi. Ayniqsa, ushbu bo‘lim gender kodlash va dekodlash tushunchalariga e’tibor qaratib, genderli muloqotning ijtimoiy tuzilmalarni mustahkamlash, kuch dinamikasi, identifikatsiya shakllanishi va tengsizlikdagi rolini o‘rganadi hamda uni bu jarayonlarda vosita sifatida tahlil qiladi[1].

Asosiy qism: Til inson tafakkuri va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni shakllantiruvchi vosita bo‘lib, u individual va madaniy identifikatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat muloqotni osonlashtiradi, balki shaxsiy fikrlash jarayonlari va kengroq madaniy narrativlarni ham aks ettiradi. Tilning leksik tanlovi, gap tuzilishi va hikoya qilish uslublari kabi xususiyatlari ijtimoiy stereotiplar va kognitiv tarafkashliklarni aks ettiradi hamda mustahkamlaydi. Ushbu mexanizmlarni tushunish ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli kontekstlarda samarali muloqot uchun juda muhimdir. Matn tahlili va narrativ

psixologiyaning innovatsion usullari til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu yondashuvlar lingvistik shakllarda ifodalangan shaxsiy va ijtimoiy psixologik jarayonlarni o‘rganishni osonlashtiradi. Masalan, Bertil Malmbergning *Strukturaviy lingvistika va inson muloqoti* asari tilning strukturaviy mexanizmlarini o‘rganib, lingvistik metodologiyaning muhim jihatlarini yoritib beradi. Malmberg tilni muloqotning asosi sifatida talqin etib, strukturaviy lingvistika tilning qanday ishlashini tushunishga qanday yordam berishini o‘rganadi. Til mexanizmlari kodlash va dekodlash jarayonlari orqali axborot yetkazish va tushunishni ta’minlaydi[3].

Shuningdek, Tatyana Chernyshova (2021) media matnlarida istehzoni yaratishda ishlatiladigan lingvistik mexanizmlarni lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qiladi. U istehzoli tilda ikki qavatli ma’no mavjudligini ta’kidlaydi, bunda matnning aniq talqini uning asl niyatiga zid kelishi mumkin. Bu mexanizm hazil yoki tanqidiy fikrlarni ifodalash uchun kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Chernyshova *Kommersant* va *Moskovskiy Komsomolets* gazetalaridan misollar keltirib, istehzo nutqdagi tajovuzni yumshatish yoki tanqidiy fikrlarni yengilroq shaklda yetkazish uchun qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Ushbu ishlar tilning strukturaviy va kontekstual jihatlarini chuqur o‘rganishga imkon beruvchi analitik vositalarni taqdim etadi hamda lingvistik tadqiqotlar uchun amaliy metodlarni taqdim etadi. Ularning xulosalari tilning kognitiv va madaniy konstrukt sifatida qanday ishlashini, kontekst ta’sirida qanday shakllanishini va strukturaviy tahlil orqali qanday boyitilishini tushunishga hissa qo‘shadi[4].

Rasmiy muloqot aniq va strukturalangan lingvistik hamda grammatik me’yorlarga rioya qilishni talab etadi. Bunday muloqotda aniq terminologiya, rasmiy nutq shakllari (masalan, murojaatda "Siz" shaklidan foydalanish) qo‘llaniladi. Bundan tashqari, rasmiy muloqot yetkazilayotgan xabarni to‘g‘ri tushunish va talqin qilishni ta’minlash uchun o‘rnatilgan ijtimoiy va madaniy me’yorlarga rioya qilishni talab etadi. Og‘zaki muloqotda fikrlar so‘zlar va gaplar orqali ifodalanadi, yozma muloqot esa matn shaklida amalga oshiriladi, bunda nutqning tuzilishi va grammatikasi yanada qat’iy nazorat qilinadi. Bundan tashqari, maqolada nutqni individual psixologik fenomen sifatida va tilni ijtimoiy konstrukt sifatida ajratish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu farqlash til va nutqning shaxsiy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlashini tushunish uchun muhimdir.

Lingvo-semiotika

Semiotika, Ferdinand de Sossyur (1916) tomonidan taqdim etilgan va Roland Bart (1972) tomonidan kengaytirilgan nazariya sifatida, belgi tizimlarini va ma’no qanday yaratilishi hamda yetkazilishini o‘rganadi. Gender va muloqot kontekstida semiotika gender identifikatsiyasining lingvistik va lingvistik bo‘lmagan belgilar orqali qanday ifodalanishini tushuntiradi. Genderli muloqotda belgilovchi (signifier) turli shakllarga ega bo‘lishi mumkin: so‘zlar, tasvirlar va imo-ishoralar. Belgilangan (signified) esa gender tushunchasi yoki roli bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, "erkak", "ayol" yoki "androgin" kabi tushunchalarni anglatishi mumkin. Belgining talqini uni qabul qiluvchi madaniy va ijtimoiy kontekstga bog‘liq bo‘lib, individual tajriba, ijtimoiylashuv va kuch munosabatlari kabi omillar tomonidan shakllanadi. Lingvistika tilni belgi tizimi sifatida

o‘rganadi (Sossyur, 1916), semiotika esa barcha belgilash shakllarini (belgilar, timsollar, imo-ishoralar va boshqalar) qamrab oladi. Kodlangan muloqotda til shakllari (sintaksis, leksika, fonologiya) va vizual semiotika (tasvirlar, imo-ishoralar) birgalikda xabarni yetkazishga xizmat qiladi. Lingvo-semiotika esa til belgilarining madaniy, ijtimoiy va psixologik kontekstlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganadi[6]. Ushbu soha til ichidagi belgilar va kodlar muloqotni qanday osonlashtirishini va tushunishga qanday hissa qo‘shishini tadqiq qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *"Time is money"* iborasi vaqtni iqtisodiy jihatdan qadrli deb hisoblaydigan madaniy qarashlarni aks ettiradi, bu esa samaradorlikni yuqori baholovchi jamiyatning qadriyatlariga mos keladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, o‘zbek tilidagi *"Vaqt — qozi"* maqoli vaqt har qanday harakat, qaror yoki voqeaning natijasini aniqlab berishini bildiradi. Lingvo-semiotika kontekstida og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan elementlarning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilida matnlardagi bosh harflarning katta yozilishi muhimlik yoki rasmiylikni ifodalashi mumkin (*"I NEED this done now!"*). O‘zbek tilida esa bunday urg‘u sintaksis yoki maxsus qo‘shimchalar orqali berilishi mumkin (*"Men bunga hoziroq muhtojman!"*). Ushbu misollar lingvistik belgilar madaniy va kontekstual omillar ta’sirida shakllanib, so‘zlovchilar va tinglovchilar tomonidan qanday kodlanishi va dekodlanishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, lingvo-semiotika lingvistik shakl va madaniy ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, tillar va jamiyatlararo muloqotga chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi [5].

Til—bu asosiy aloqa vositasi bo‘lib, ijtimoiy, madaniy va shaxsiy ma’nolarni so‘zlar, iboralar va ramzlar orqali strukturalashgan shaklda kodlashga xizmat qiladi. Ushbu kodlash jarayoni ixtiyoriy emas, balki kontekst, auditoriya va muloqot maqsadiga bog‘liq holda til elementlarini tanlash orqali shakllanadi. Natijada, kodlangan xabar lingvistik, madaniy va semiotik omillar ta’sirida ma’no tashuvchiga aylanadi. Masalan, Rajapova va Jumaniyozova o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi rasmiy va norasmiy muloqotning farqlarini ta’kidlaydi. Rasmiy muloqot strukturaviy grammatika va madaniy jihatdan hurmat ifodalovchi atamalarga tayanadi, masalan, "Siz" (hurmat ifodalovchi "sen") so‘zi ijtimoiy iyerarxiya va odoblilikni kodlaydi. Norasmiy muloqot esa ko‘pincha lahja va og‘zaki nutq shakllaridan foydalanib, yaqinlik yoki hamjihatlikni ifodalovchi kodlarni ishlatadi (masalan, "Sen" norasmiy "siz" uchun). Ingliz tilida ham kodlash jarayoni nozik jihatlarga ega. Masalan, "Let’s circle back" iborasi biznes kontekstida mavzuni keyinroq qayta muhokama qilishni muloyim shaklda ifodalaydi. O‘zbek tilida bunga o‘xshash ma’no "Gapga qaytamiz" iborasi orqali beriladi, biroq u bevosita muloqot uslubiga ega bo‘lib, madaniy farqlarni aks ettiradi. Kodlash jarayoni faqat so‘zlar bilan cheklanmay, balki semiotik elementlarni ham qamrab oladi, jumladan ohang, imo-ishora yoki tinish belgilari. Masalan, Chernyshova (2021) media matnlarida istehzoni tahlil qilish orqali qanday qilib ziddiyatli matn elementlari (so‘zma-so‘z va yashirin ma’nolar) hazil yoki tanqidni kodlashini ko‘rsatadi. O‘zbek humorida istehzo ohang yoki ortiqcha ifodalar orqali kodlanishi mumkin, bu esa madaniy hikoyalash an’analariga mos keladi. Bakhtiari va Saadat (2015) o‘z tadqiqotlarida ingliz darsliklarida gender ifodalanishining semiotik tahlilini o‘rganib, tasvirlar va lingvistik tanlovlar orqali

gender rollarini qanday kodlash mumkinligini namoyish etadi. Masalan, erkak qahramonlar ko‘pincha "yetaklash" yoki "erishish" kabi faol fe’llar bilan tasvirlansa, ayol obrazlar "g‘amxo‘rlik qilish" yoki "yordam berish" kabi mehribonlik bilan bog‘liq harakatlar bilan ifodalanadi. Bu kodlash usuli gender stereotiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Popova (2024) lingvomadaniy kodlarga oid tadqiqotida kodlashning madaniy xususiyatlarga bog‘liqligini ta’kidlaydi [5]. Masalan, ingliz tilida "breaking the ice" (muzni sindirish) iborasi suhbat boshlashni anglatib, individuallikka asoslangan madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunga javoban, o‘zbek tilida "Salomlashish odobning belgisi" iborasi muloqotda jamoaviylik va hurmat tushunchalarini kodlaydi. Shuningdek, kodlash jarayoni ijtimoiy maqom va lingvistik mahorat darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, rasmiy vaziyatda o‘zbek tilida "Keling, maslahatlashamiz" (Keling, maslahat qilaylik) iborasi ishlatilsa, norasmiy vaziyatda "Qani, gaplashamiz" (Keling, gaplashamiz) shakli qo‘llanadi. Birinchi ibora hurmat va iyerarxiyani kodlasa, ikkinchisi do‘stona muhitni ifodalaydi.

Dekodlash—bu kodlangan xabarni madaniy muhit, oldingi bilim va tajribaga asoslangan holda talqin qilish jarayonidir. Turli guruhlar yoki shaxslar o‘zlarining interpretativ asoslariga qarab, bitta xabarni har xil tushunishlari mumkin. Xabar tarkibida madaniy ramzlar, metaforalar va me’yorlar bo‘lib, ularni to‘g‘ri talqin qilish uchun madaniy bilim zarur. Masalan, Popova (2016) lingvomadaniy kodlarni tahlil qilishida shuni ko‘rsatadiki, hatto oddiy ko‘ringan iboralar ham murakkab madaniy ma’nolarni anglatishi mumkin. Ingliz tilida "Break a leg" iborasi omad tilashni anglatadi, biroq madaniy bilimga ega bo‘lmagan kishi buni yomon tilak sifatida qabul qilishi mumkin. O‘zbek tilida esa "Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin" iborasi hamdardlik va taskin berishni anglatadi, biroq o‘zga madaniyat vakili buni tushunishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Reklama matnlaridagi vizual va lingvistik elementlar ko‘pincha yashirin madaniy xabarlarni o‘z ichiga oladi. Kumar va boshq. (2020) o‘z tadqiqotlarida reklamadagi semiotik elementlar jamiyat qadriyatlarini qanday aks ettirishini ko‘rsatadilar. Masalan, G‘arb reklamasida shaxsiy muvaffaqiyat va mustaqillikni ta’kidlagan individualistik yondashuv bo‘lsa, o‘zbek reklamalarida oilaviy va jamoaviy farovonlik asosiy e’tiborga olinadi. Dekodlash jarayoni shuningdek, shaxsning madaniy tajribasi va xabarning kontekstiga bog‘liq. Masalan, Tameryan va boshq. (2020) o‘z tadqiqotlarida G‘arb ommaviy axborot vositalarida "ishbilarmon ayol" obrazi mustaqillik va professional yutuqni ifodalaydi, biroq boshqa madaniyatlarda bu obraz turlicha talqin qilinishi, masalan, kasbiy va oilaviy majburiyatlarni muvozanatlashtirishga urg‘u berilishi mumkin [7].

Gender ham dekodlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Threadgold (2010) hamda Bakhtiari va Saadat (2015) lingvistik va semiotik elementlarning gender dinamikasini aks ettirishini va interpretatsiyaga qanday ta’sir qilishini tahlil qilgan. Masalan, ingliz tilidagi "She’s a natural caretaker" (U tabiiy ravishda g‘amxo‘r) iborasi an’anaviy gender rollarini mustahkamlashi mumkin, lekin bu ibora gender tenglikka oid madaniy pozitsiyalarga qarab turlicha talqin qilinadi. Xuddi shunday, o‘zbek tilida "Uy bekasi

sifatida..." iborasi ayollarning uy ishlaridagi roli bo‘yicha an’anaviy kutilmalarga ishora qiladi. Umuman olganda, kodlash va dekodlash jarayonlari lingvistik strukturalar, madaniy kontekst va semiotik belgilar orqali shakllanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya fanlari uchun ham muhim hisoblanadi [8].

Xulosa qismi: Til ko‘p qirrali hodisa sifatida nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy, madaniy va individual ma’nolarni kodlash va dekodlashning kuchli vositasi hamdir. O‘rganilgan materiallar ko‘rsatadiki, madaniy asoslar, ijtimoiy ierarxiyalar va semiotik tuzilmalar tilning kodlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, til, tafakkur va identifikatsiya o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqani shakllantiradi. Ushbu jarayon grammatika, sintaksis va madaniy jihatdan singdirilgan belgilar orqali shakllanadi, ingliz va o‘zbek tillariga oid misollarda ko‘rish mumkinki, til tuzilmasidagi farqlar madaniyatning xushmuomalalik va ierarxik tafovutlarni qanday aks ettirishini belgilaydi. Dekodlash esa, aksincha, madaniy bilimlar, oldingi tajribalar va gender dinamikasi asosida turlicha talqinlarni yuzaga keltiradi. Popova va Kumar va boshq. (2014) ishlarida ko‘rsatilganidek, bir xil lingvistik yoki vizual xabar turli madaniy yoki gender kontekstlarida har xil qabul qilinishi mumkin. Masalan, reklama strategiyalari va metaforik iboralar ko‘pincha jamiyat qadriyatlarini aks ettiradi va mustahkamlaydi, bu esa aniq talqin uchun madaniy kompetensiyani talab qiladi. Xalqaro madaniyatlararo muloqotda kodlash va dekodlash dinamikasini tushunish interpretatsion tafovutlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Struktur lingvistika, gender tadqiqotlari va semiotika bo‘yicha o‘rganishlar dekodlash jarayonlarida madaniy me’yorlar va shaxsiy qarashlarni inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli sharoitlarda samarali muloqot ushbu nozik jihatlarni anglash va xabarlarni talqin qilishda empatiya bilan yondashishga asoslanadi. Tilni kodlash va dekodlash dinamik tizim sifatida tushunish lingvistika, semiotika va madaniyatshunoslik bo‘yicha chuqurroq ilmiy tahlilga asos yaratadi. Bu esa media nutqidan tortib kundalik muloqotlargacha bo‘lgan turli kontekstlarda tilning faoliyat yuritish mexanizmini tushunishga yordam beradi hamda insoniy kommunikatsiyaning murakkabliklarini samarali hal qilish uchun muhim vositalarni taklif etadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1.Alok Kumar Jha, A., Raj, A., & Gangwar, R. (n.d.). (2017)A semiotic analysis of portraying gender in magazine advertisements. *Journal of Gender Studies*. Retrieved from DOI:10.9790/0837-2205110108.

2.Bakhtiari, S., & Saadat, M. (2015). Gender representation in Interchange (Third Edition) series: A social semiotics analysis. *Shiraz University Journal*. Retrieved from DOI:10.18869/acadpub.ijal.18.2.1.

3.Chernyshova, T. (2021). Ironik matnlarni qurishda til mexanizmlari va ularning lingvistik tadqiqoti. *Media Linguistics Journal*.

4.Malmberg, B. (1963). *Structural linguistics and human communication*. Springer. DOI: https://doi.org/10.1017/S0022226700001043

5.Popova, A. N. (2014). Взаимодействие лингвокультурных кодов в речеязыковом пространстве: на материале английского языка. *Journal of Intercultural Communication Studies*.

6.Radjapova, N. M., & Jumaniyozova, S. Z. (2022). Til va nutq birliklari. Nutqiy muloqot turlari. *Tashkent Linguistics Journal*.

7.Tameryan, T. Y., Zyubina, I. A., & Dzhigkaeva, A. V. (2021). Thematic representation and linguo-cognitive structure of the businesswoman image from the perspective of gender-professional axiology. *Linguistics and Literature Studies Journal*.

8.Threadgold, T. (2015). Language and gender. *Journal of Gender and Linguistics*. Retrieved from DOI:10.1002/9781118786093.iela0143.

9. Vinnik, E. I. (2015). Функциональная специфика герундия в аспекте лингвогендерологии (на материале современного англоязычного романа). *Journal of Language Studies*.

10. Parkhadjanovna S. S. The importance of idioms in learning English language by Uzbek students in EFL classrooms //Журнал: Yangilanayotgan O'zbekiston yangi avlod kadrlari Umid jamg'armasi bitiruvchilari xalqaro anjumani. Номер ISBN. – С. 978-99435904.

11. Parhadjanovna S. S. MASTERING THE ART OF READING: TECHNIQUES AND STRATEGIES TO ENHANCE READING SKILLS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 482-485.

12. Saidakbarova S. P. et al. The Role Of Speech Genres In The Communication Process //Educational Administration: Theory and Practice. – 2024. – Т. 30. – №. 5. – С. 2500-2503.

13. Dilafruz Bozorovna Botirova., Markhabo Raxmonkulovna Abdullayeva., Ilkhom Yusupovich Khaydarov., Ra'no Anvarovna Khaydarova., Shaxnoza Sharofovna Sharofova. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity. Journal Power System Technology ISSN: 1000-3673. Publication date 2024/12. Volume 48, Issue 4. Pages 3325-3334. Publisher: https://powertechjournal.com/index.php/journal

14. Saidakbarova S. Saodat SAIDAKBAROVA ETYMOLOGY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH DAIRY PROD-UCTS: MILK, BUTTER AND CHEESE //фм АДАБИЁТШУНОСЛИК. – С. 42.

“REPRODUKTIV XULQ PSIXOLOGIYASIDA OILADA FARZANDNING O‘RNI VA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI”

Abdullayeva Nasiba Ravshanbekovna
Urganch davlat unversiteti magistranti
abdullayevanasiba1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada reproduktiv salomatlik nima, reproduktiv xulq psixologiyasida farzandning o’rni, reproduktiv xulq psixologiyasida oilaviy qadriyatlarning psixologik mexanizmlari, oila o’zi nima degan savollarga javob beriladi. Oilada farzand tarbiyasiga qanday yondashish kerakligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: reproduktiv xulq-atvor, oila, farzand, oilada ayol va erkak huquqlari.

«РОЛЬ РЕБЕНКА В СЕМЬЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ В ПСИХОЛОГИИ РЕПРОДУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ»

Абдуллаева Насиба Равшанбековна –
магистрант Ургенчского государственного университета

Аннотация: Данная статья отвечает на вопросы о том, что такое репродуктивное здоровье, роль ребенка в психологии репродуктивного поведения, психологические механизмы семейных ценностей в психологии репродуктивного поведения, а также что такое сама семья. Объясняется, как подойти к воспитанию детей в семье.

Ключевые слова: репродуктивное поведение, семья, ребенок, женщина и мужчина в семье,права.

"THE ROLE OF THE CHILD IN THE FAMILY AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE PSYCHOLOGY OF REPRODUCTIVE BEHAVIOR"

Abdullayeva Nasiba Ravshanbekovna –
master’s at Urganch state university

Abstract: This article answers the questions of what is reproductive health, the role of the child in the psychology of reproductive behavior, the psychological mechanisms of family values in the psychology of reproductive behavior, and what is the family itself. How to approach child rearing in the family is explained.

Key words: reproductive behavior, family, child, woman and man in the family rights.

KIRISH

Ushbu maqolamizni kirish kismida Reproduktiv salomatlik nima o’zi, Reproduktiv salomatlikning oilada farzand tarbiyasiga qanday bog`liqliklari bor degan savollarimizga javob olamiz.

“Reproduksiya” so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, “re”- takroriy, qayta tiklash; “producto” - yaratish, ko‘paytirish degan ma’nolarni anglatadi. Reproduksiya — biologiyada organizmning o‘ziga o‘xshash organizmlarni qayta yaratishi, ko‘payish jarayonlarini nazarda tutadi.[1]

Reproduktiv salomatlik — bu bola tug‘ilishida ishtirok etuvchi erkak va ayolning jismoniy, ruhiy salomatligi va ijtimoiy farovonligi holati ham nazarda tutilgan. Reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog‘liq barcha masalalar borasida faqat kamchilik va kasalliklar yo‘qligi bo‘libgina qolmay, balki to‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati bo’lib ham hisoblanadi. Reproduktiv salomatlik nafaqat ayolning, balki erkakning ham o‘zidan sog‘lom zurriyod qoldira olish davridagi salomatligidir. Ayniqsa, bu borada o‘smir-yigit-qizlarning salomatligiga, sog’lom turmush tarziga va gigienaga jiddiy e’tibor qaratish zarur hisoblanadi. Bo‘lajak onaning qachon va qanday sharoitlarda ona bo‘lishini nazorat qilish, uning va tug‘ilajak bolaning ham salomatligi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish muhim. Hozirgi kunda bo‘lajak onalar bo‘lmish qizlarimiz, farzandini dunyoga keltirishdek o‘ta mas’ulyatli vazifaga tayyorgarlik ko‘rishda tibbiy jihatdan savodxonmi? Bu boradagi maxsus adabiyotlar, gazeta, jurnallar, shuningdek internetdan foydali bo‘lgan

ma’lumotlarni olish uchun xotin-qizlarimiz vaqt topa olishayaptilarmi? O‘zlarining salomatligi yo‘lida kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishmoqdami? degan savollarga o’rganilgan ma`lumotlarga asoslanib o’zlarimizni quydagicha javoblarimizni aytamiz.

Reproduktiv salomatlik masalasi faqatgina tug‘ruqlar oralig‘i uch yildan kam bo‘lmasligiga e’tibor qaratishdangina iborat emas. Balki u o‘z ichiga kengroq vazifalarni qamrab oladi. Bunda oila farovonligi (bir-birini tushunish, qo’llab – quvvatlash, hurmat qilish)ni ta’minlash, ularda ijobiy, sog’lom psixologik va fiziologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarning tom ma’noda mustahkamligini ta’minlash kabilar nazarda tutiladi. Albatta 16-17 yoshlardagi qiz bola organizmi hali to‘la yetilgan bo‘lmaydi. Erta farzand ko‘rish yosh ona salomatligiga ham, undan tug‘ilajak bola salomatligiga ham ma’lum darajada xavf tug‘dirishi mumkin bo’lshiga e’tibor qaratish.

O‘spirinlik – nozik davr. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar bu davrda bolalar bilan o‘zaro munosabatda do‘stona yo‘l tutishlari kerak. Bu davrda o‘spirin qizlar jadal o‘sgani bois ularning organizmida turli xil a’zolarning muvozanati buziladi. Qiz bolalar reproduktiv salomatliklarining shakllanishida jismoniy va psixologik sog‘lom bo‘lishi masalalariga e’tiborni qaratish va bu yo‘ldagi ishlarni ko‘paytirish tajribasi ijobiy natijalar berishi aniqlangan.[2]

O‘g‘il va qiz bolalarning reproduktiv salomatlikning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omillar qatorida ichki sekretsiya bezlari va moddalar almashinuv jarayonlarining buzilishi, vaqtida ovqatlanmaslik, vegetativ asab tizimi kasalliklari, allergik kasalliklardir. Ushbu kasalliklarning natijasida, qizlarda tez-tez charchash, holsizlik, kamqonlik, tezda asabiylashish, yig‘loqilik, quvvatning kamligi h.k. yuzaga keladi. Ularning oldini olishda oila va tibbiy xodimlar, pedagoglar tomonidan maqsadga qarab yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini uqdirib o‘tish joizdir. O’gil va qiz bola organizmiga bulardan tashqari tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlik kabi zararli odatlar o‘zining salbiy ta’sirini

ko‘rsatadi. Ko‘rsatib o‘tilgan xavf omillar keyinchalik qizalrda homiladorlikning fiziologik kechishiga to‘siq bo‘lib, turli xil patologik tug‘uruqlarga sabab bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, reproduktiv salomatlik faqatgina tug‘ruqlar oralig‘i uch yildan kam bo‘lmasligi masalasidan iborat emas. Yoshlarimizning, shuningdek tug‘ruq yoshidagi ayol-qizlarimizning reproduktiv salomatliklari uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ayollarimizning salomat bo‘lishi, millatning nasli jismoniy va ruhiy sog‘lom bo‘lishi, aynan reproduktiv salomatlik yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarga ham bog‘liqdir. Bu birgina davlatning vazifasigina bo‘lmay, balki har bir ota-onaning, jamiyat a’zosining ham ma’suliyatidir. Reproduktiv jihatdan xulq psixologiyasida yetakchi muammo bu-oila hisoblanadi. Oilada farzand tarbiyasi, ota-onalik burchlari yetakchi faoliyat turlari hisoblanadi. Oilada ajrimlarni oldini olish, “oila- kichik qo’rg’on”- ekanligini yoshlarga tushuntirish va tadqiqotlar natijasida oilalarni mustahkam qilish, oila farovonligini ta’minlash kabi dolzarb muammolarni yechish ko’zda tutilgan. “Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy, psixologik va ijtimoiy jihatdan sog’lomlik holati bo’lib, bu holat uning bola tug’ulishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizimi, ushbu tizimning funksiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog’liq bo’ladi.” [3] Oila-nikoh yoki tug’ishganlikka asoslangan kichik guruh. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo’sh vaqtini samarali uyishtirishdan iboratdir.Reproduktiv xulq psixologiyasi-oilada farzand tug’ulishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo’lgan. G’arb davlatlarida, jumladan hozirgi kunda bola tug’ish soni keskin kamayib ketmoqda.Oila va nikohning paydo bo’lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug’ulishidir. YUNESKO,YUNISEF oilada sog’lom bola tug’ulishi siyosati orqali Yer yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga katta e’tibor bermoqdalar. Reproduktiv xulq-bu oilada farzand tug‘ulishi bilan bog’liq xulqdir.[5] U oila a’zolarini o’z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita

bog’liq bo’lgan xatti-xarakatidir.Bu harakatlarning asl motivi, avvalo, insondagi o’zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo’lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi.O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib tahlil qilingan.O‘zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmushtarzini ko‘proq an’ana urf-odatlar orqali boshqarilishidir.O‘zbek xalqi oila qurish an’analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo‘lmish tomon xususida ma’lumotga ega bo‘lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o‘rnini va obro‘- e’tiborini hisobga oladi.Agar kuyov yoki kelin bo‘lmish tomonning aqli, odobi, husnimalohati bir hissa bo‘lsa, ularning qarindosh-urug‘lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda, hal qiluvchi omil vazifasini o‘taydi.Farzandlarni yaxshiga qo‘shish, bu borada xato qilib qo‘ymaslikda jamoa, jamiyat ra’yi, ko‘pchilikning kengashli fikri muhim rol o‘ynaydi.Shu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir.Shu o‘rinda “G‘arb qonunlari, sharq urf-odatlari bilan boshqariladi” degan iborani eslamoq joiz.Darhaqiqat, Sharqda, shu jumladan o‘zbeklarning turmush tarzida ham ko‘plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida, yoinki, keng jamoatchilik o‘rtasida o‘tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo‘lishi, qo‘ni-qo‘shnichilik an’analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko‘plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.G‘arbda shaxs jamoaga o‘zligini yuzaga chiqarish, iste’dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa insonning ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutloq aralashmaydi.Sharqda jamoaga asosiy e’tibor beriladi. Har bir urf-odat, marosim jamoa, mahalla ahli ishtirokida o‘tkaziladi. Jamoa insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi muntazam

ishtiroki uning umumiy ahloqiy me’yorlari doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ajralgan holda ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi. Xulosa qilib, aytish mumkinki, butun jahon bo‘yicha ulkan globallashuv jarayonlar kechayotgan bir vaqtda o‘zbek milliy mentalitetini tadqiq qilish, uning nechog‘lik umuminsoniy qadriyatlarga mosligini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, xalqimizning qadimiy an’analari, azaliy urf-odat hamda marosimlariga ega bo‘lishi bilan birgalikda, o‘ziga xos va o‘ziga mos milliy mentalitetga ega xalq ekanligidan dalolat beradi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak.Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba'zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek xalqining milliy mentaliteti haqida so‘z yuritishdan oldin shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek xalqi 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardo‘shtiylik, buddaviylik, islom, kommunistik) o‘z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta’sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarning millat fe’l-atvorida o‘chmas iz qoldirganini unutmaslik kerak.Bola ota-ona tomonidan q‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma'naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytsak, oila qurilishi, reproduktiv xulq tomonlama oila kamol topishi, oilada farzandning ro’li bular eng asosiy mavzulardir. Psixologlar tomonidan

oila mustahkam bo’lishi uchun trening mashg’ulotlar tashkil etiladi. Endigina oila qurmoqchi bo’lgan yigit-qizlarga psixolog huzurida bo’lish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to’g’risidagi”qonun.Lex.uz.sayti

2.H.I.Yodgorova “The family is the strong support of our society”. www.scientificprogress.uz.

3.wikipedia.uz

4.Vasila Karimova “Oila psixologiyasi”Toshkent 2007.

5. Abdullayeva Nasiba “Reproduktiv xulq psixologiyasida oilada farzandning o’rni, oilaviy qadriyatlarning psixologik mexanizmlari” Published March 31, 2024 | Version v1

6. Xadichai Kubro ayol-qizlar o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi direktori o‘rinbosari v.v.b M.Vaxidova BEST SCIENTIST Journal.

MAQOLA MAVZUSI: QALQONSIMON BEZ KASALLIGIGA CHALINGAN BEMORLARNI KASALLIKKA MUNOSABATINI EMPERIK O‘RGANISHI

Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti
“Umumiy psixologiya va boshlang ‘ich ta’lim pedagogikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: jumaniyozovashahnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorning fiziologiyasi va psixikasidagi o‘zgarishlar, kasallik sabab bemor psixoemotsional holatidagi buzilishlar, adabiyotlarda o‘rganilishi, amaliyotda qo‘llanishi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bemorlarning kasallikka munosabatini o‘rganish maqsadida mahsus ishlab chiqilgan so‘rovnoma asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari diagrammaga solib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yod tanqisligi, gipotiroidizim, psixoemotsional holat, depressiya, tushkunlik, hissiy labillik, letargiya, kognitiv buzilishlar, diqqatni jamlay olmaslik, xotira pasayishi.

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ БОЛЬНЫХ С ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ К ЗАБОЛЕВАНИЮ

Жуманиезова Шахноза Раджаббой кызы
Преподаватель кафедры «Общая психология и педагогика начального образования»
факультета «Начальное образование»
Ургенчского государственного педагогического института
E-mail: jumaniyozovashahnoza@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются изменения физиологии и психики больного с заболеваниями щитовидной железы, нарушения психоэмоционального состояния больного, обусловленные этим заболеванием, их изучение в литературе и применение на практике. Также были построены и проанализированы результаты исследования, проведенного на основе специально разработанной анкеты по изучению отношения пациентов к заболеванию.

Ключевые слова: дефицит йода, гипотиреоз, психоэмоциональное состояние, депрессия, эмоциональная лабильность, вялость, когнитивные нарушения, невозможность сосредоточиться, снижение памяти.

EMPIRICAL STUDY OF THE ATTITUDE OF PATIENTS WITH THYROID DISEASE TOWARDS THE DISEASE

Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy kizi,
teacher of the department of
“General Psychology and Primary Education Pedagogy”
of the faculty of “Primary Education” of the
Urgench State Pedagogical Institute
E-mail: jumaniyozovashahnoza@gmail.com

Annotation. This article analyzes the changes in the physiology and psyche of a patient with thyroid disease, disorders in the psychoemotional state of the patient caused by the disease, their study in the literature, and their application in practice. Also, the results of a study conducted on the basis of a specially developed questionnaire to study the attitude of patients to the disease were analyzed in a diagram.

Key words: iodine deficiency, hypothyroidism, psychoemotional state, depression, emotional lability, lethargy, cognitive disorders, inability to concentrate, memory loss.

Kirish. Bugungi kunda qalqonsimon bez kasalligiga chalinish yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Bu haqida Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, duyo aholisining 665 milliondan zid aholisiq qalqonsimon bez kasalligiga chalingan. 1,5 milliard odam esa yod tanqisligi xastaligi rivojlanish xavflga ega hisoblanadi [10]. Qalqonsimon bez kasalligini keltirib chiqaruvchi asosiy omil bu inson orgonizmida yod moddasining yetishmasligi hisoblansa, inson psixikasining ta’siri ham muhim axamiyat kasb etadi. Kasallikka chalinganda dastlab inson kasallangani bilmaydi. Keyinchalik vaqt o‘tishi bilan tashqi fiziologik va psixologik belgilar sezila boshlaydi. Kasallik natijasida tashqi belgilar bemor bo‘yin sohasining kattashishi, birdaniga ovozning bo‘g‘ilib do‘rillab chiqishi, oshqozon-ichak sohasidagi muammolar kabi boshqalar kuzatiladi. Qalqonsimon bez kasalligi natijasida bemor kognitiv jarayonlarining pasayishi, xotira susayishi, diqqatni jamlay olmaslik, tushkunlik, stressga moyillikning yuqoriligi, depressiya kabi psixik buzulishlar kuzatilishi tadqiqotchi olimlar ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan va o‘z isbotini topgan [4,B.555-562].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Qalqonsimon bez kaalligining inson psixikasiga ta’siri hususida qadimgi davrlardan ma’lumotlar keltirilgan. Dastlabki, ilmiy amaliy ma’lumotlar 1888 –yilda London Klinik Jamiyati Miksodem qo ‘mitasi olimlari tomonida qalqonsimon bez kasalligining turlaridan gipotiroidizimning inson psixikasiga ta’siri o‘rganish bo‘yicha ilmiy amaliy tadqiqotlar o‘tkaziladi [4,B.555-563]. Asher 1949-yilda qalqonsimon bez kasalligining inson psixoemotsional sohasiga ta’sirini o‘rganadi va “miksoedema aqldan ozish” atamasi bilan nomlaydi. Asher og‘ir darajadagi gipotiroidizim natijasida bemorlarning psixoemotsional sohasidagi buzilish aniqlaydi. xotira va intelelktning pasayishi, letargiya va hissiy labillik, depressiya, tushkunlik holatlarini kuzatgan. Qalqonsimon bez kasalliklari natijasida diqqatni jamlay olmaslik, idrok etish va tez fikrlash qobiliyatining pasayishi aniqlangan. Qalqonsion bez kasalligining bemor psixoemotsional

holatiga ta’siri F.Monzani [8], A.P.Kalinin, S.V.Kotov, I.G.Rudakov [7, B.488], E.R.Iyaseva [5,B.22], E.A.Grigorieva va E.A.Pavlova (2010) [6, B.57-60] larning

Mashxur psixolog K.Plleter o‘zining “Tafakkur davolaydi, tafakkur nobud qiladi” nomli asarida odamlarning o‘z o‘zini biror kasallikka chalinishi mumkin deb o‘ylamasliklari shart, ammo bu degani hech qanday kasallikka chalinishmaydi degani emas [9, B.250]. Fikrimizcha, nafaqat qalqonsimon bez kasalligi, balki boshqa kasalliklarning paydo bo ‘lishi, rivojlanishi va kasallikdan tuzalishda tez va samaradorlikka erishishda bemorning psixikasi, psixoemotsional holati, irodaviy sohasi, shuningdek intelektual sohasini boshqarishi juda katta ahamiyatga ega.

Psixosomatik kuzatishlar natijasi shu bo‘ldiki, gipertiroidizm kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar bir qator bo’lib ular orasida travma va kuchli hissiy buzilishlar eng asosiy omillardandir [1].

Yuqoridagi va boshqa ko‘plab adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlarda kasallik natijasida bemorlar psixoemotsional holatlarida buzilish sodir bo‘lishi aniqlangan. Shunisi xarakterliki, kasallikda tibbiy dorilar qabul qilib qalqonsimon bez gormonlari faoliyati normada ishlasa ham, ko‘pchilik bemorlarda davolanishdan oldingi psixoemotsional buzulishlar saqlanaib qolishi mumkin. Ayni shunday bemorlarga psixologik ko‘mak zarur hisoblanadi[2, B.43-47].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).

Ushbu tadqiqotda biz, qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemor bilan o‘z kasalligiga munosabatini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma o‘tqazdik. Ushbu so’ rovnoma D.A.Urazbayeva “Onkologiya sohasida psixogik xizmat” nomli asarida keltirilgan so ‘rovnomasi asos qilib olindi [3,B.10]. So‘rovnoma 10 ta savoldan iborat bo‘lib, respondet har bir savolni o‘qib chiqib, javoblarini yozishi kerak. Savollar yopiq turda bo’lib har bir savolni o’qib o’zidagi holatidan kelib chiqqan holda samimiy va to’g’ri javob yoziladi. So’rovnima savollari kasallikni aniqlangan vaqtidagi bemorning psixoemotsional holatidan tortib, o’z kasalligi haqida ma’lumotga ega ekanligi, hayotdagi maqsadlari kabi savollarni qamrab olgan. Savolnoma matni:

1.Kasalliginggizni bilganda qanday holatga tushgansiz?

2.Siz o’zingizning jismoniy qobiliyat va funksiyalaringizdan xavotirdamisiz

3.Siz o’zingizni zaif xis qilasizmi?

4.Siz o’zingizning kasalligingizm, uning kechishi, davolanish imkoniyatlari haqida qanchalik xabardorsiz?

5.Kasalligingiz haqida oila a’zolatingiz bilan bamaylixotir gaplasha olasizmi?

6.O’zingizni yolg’iz his qilasizmi?

7.O’zingizdagi barcha hislarni ochiq namoyon eta olasizmi?

8.O’z ehyiyojlaringizni ifoda etasizmi yokiyashirasizmi? Boshqalar uchun o’zingizni quron qilasizmi?

9. Kelajak siz uchun qorong’u va umidsizmi?

10.Siz uchun hayot mazmuni nima?

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning diagnostik qismi Respublika ixtisoslashtirilgan Endokrinologik ilmiy –amaliy Tibbiyot markazi Xorazm filialida ro'yxatga olingan 40 nafar bemorlar qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlarda o'tkazildi.

Tadqiqotda qalqonsimon bez kasalliggiga chalingan bemorlarning kasallikka munosabati o'rganildi tahlil qilindi.

So'rovnoma natijalari

So'rovnamani tahlil qiladigan bo'lsak, (1-savol bo'yicha) bemorlar kasalligini eshitgandan keyin bemorlarning 15% qo 'rquv, 13% yig 'lagani, 12% xavotir, 10% hadiksirash va tushkunlik emotsiyasini his qilishgani aniqlandi (1-jadval). 2-savolga "Siz o'zingizni jismoniy qobiliyat va funksiyalaringizdan xavotirdamisiz?" 57% "Ha", 38% "Yo'q" va 5% bemor esa "Unchalik emas" javobinni belgilashgan. 3- "Siz o'zingizni zaif his qilasizmi?" savoliga 45% bemor "Ha" Zaif his qilishi, 35%i "Yo'q" javobini, 10% i "Juda zaif his qilishi", 8% i "Ba'zan", 2% i "Unchalik emas" javobini belgilashgan (3-jadval). 4- "Siz o'zingizning kasalligingiz, uning kechishi,davolanish imkoniyatlari haqida qanchalik xabardodsiz?" savoliga 30 % bemor xabari yo' q ekanligini, 25% bemor esa xabardorligi, qolgan bemorlar esa ko 'p ma'lumotga ega emasligi aniqlandi (4-jadval). 5-" O'zingizni yolg'iz xis qilasizmi?" 35%"Ha", 45% "yo'q", 12% "Ba'zan"va 8% esa "Har doim" javobini belgilashgan. 6- "Kasalligingiz haqida oila azolaringiz bilan bamaylixotir gaplasha olasizmi?" 60% bemor gaplashib bilishi va 27 %i esa gaplasha olmasligini, 2% yig'lab gaplashishi aniqlandi (6-jadval). Demak , qalqonsimon bez kaslligiga chalingan bemorlarda kasallik sababli hissiy buzulishlar kuzatiladi.



1-jadval



2-jadval



3-jadval



5-jadval



4-jadval

6-jadval

7-“O'zingizdagi barcha xislarni ochiq namoyon qila olasizmi?” savoliga 44% bemor “yo‘q”, 41% bemor “Ha”, 8% bemor esa “Hamma vaqt ham emas” javobini berishgan (7-jadval). 8- “Jaxlingiz chiqqanda o'zingizni boshqara olasizmi?” bemorlardan 44% bemor “yo ‘q”, 38% bemor “Ha”, 10%i esa “Har doim emas”, 5%i “Ha, boshqara olaman”, 3%i “Xa, harakat qilaman” deb javob berishgan (8-jadval), 9-“O'z extiyojlaringizni ifoda etasizmi yoki yashirasizmi?” 36%i “Ha”, 23%i “Yo‘q”, 15%i “Qo ‘limdan kelganicha yashiraman”, 10%i “faqat oilam uchun” kabi javoblarni belgilashagan (9-jadval). 10-“Siz uchun hayot mazmuni nima?” savoliga 33%i “Sog’ liq, oilam borligi”, 23%i “Yashayotganimga, bergan kunimga shukr qilaman”, 8%i “Ish,farzandlarim borligi” va “kurash”, 5%i “oilam yonimdaligi”va “ota-onam, farzandlarim” javoblarini belgilashgan (10-jadval). Metodikani tahlilidan shuni aytish mumkinki, qalqonsimon bez kaslligiga chalingan bemorlarda kasalligi aniqlanganda qo‘rquv, xavotir, kelajak hayotidan tashvishlanish, o‘zini ojiz his qilish kabi salbiy hissiy kechinmalar kechar ekan.



7-jadval



8-jadval



9-jadval



10-jadval

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).

O‘tqazilgan tadqiqotdan shuni xuloa qilib aytishimiz mumkinki, qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlar dastlab, kasallikka chalinganini bilishganda e’tibor berishmaydi. Keyinchalik kasallik zo‘rayganidan keyin boshida bee’tibor munosabatda bo‘lishganidan afsuslanishadi. Kasallikning zo‘rayishi bemor fiziologik va psixologik holatiga ta’sir etishi natijasida zaiflik hissi kechiriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasallik sababli bemorlar jismoniy jihatdan zaiflikni his qilib, bu esa bemor psixoemotsional holatida xavotirni his qilishi yuzaga keltirgan. Shuningdek 44% bemor jahli chiqqan paytida o‘zini boshqara olmasligi aniqlandi. Bemorlarning katta ko‘pchiligi esa hayotni mazmuni sog‘liq ekanligi deb bilishi aniqlandi.

Demak, yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, turli kasalliklar xususan, qalqonsimon bez kasalliklari bemor psixoemotsianal holatiga o‘zining salbiy ta’sirlarini ko‘rsatadi. Kasallik natijasida inson xulq-atvori, hissiy sohasida o‘zgarishlar kuzatiladi. Shuning uchun ham bemorlar bilan ishlashda aniq maqsadli psixologik tadbirlarni qo’llashni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aleksandr.F. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение. /Пер. с англ. С. Могилевского. — М.:Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2002

2. Abdullayevna, U. D. (2022). ONKOLOGIK BEMORLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLARLARINI DIAGNOSTIKA QILISHNING O ‘ZIGA XOSLIGI. O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI, 1**(3), 43-47**

3. Abdullayevna D.U. Onkologiya sohasida psixogik xizmat. T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. - B.10 (Urazbayeva D.A. Psychological service in the field of oncology. T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. - P.10)

4. Asher R. Myxoedematous madness//British Medical Journal.-Vol.2.-№ 4627. – P. 555-562.

5. Исаева Е.Р. Совладающее со стрессом и защитное поведение личности при расстройствах психической адаптации различного генеза: Автореф. дис.... док. психол. наук. Санкт-Петербург: Психоневрологический ин-т им.В.М. Бехтерева, 2010. -22 с.

6. **Григорьева Е. А., Павлова Е. А.** Тиреотоксикоз и коморбидная депрессия // Доктор.Ру. — 2010. — Т. 55. — № 4. — С. 57–60.

7. Калинин А.П, Котов С.В., Рудакова И.Г Неврологические расстройства при эндокринных заболеваниях. Руководство для врачей. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ООО «Медицинское информационное агентство»,2009. — 488 с.

8. **Monzani F., Caraccio N., Kozakowa M**. et al. Effect of Levothyroxine Replacement on Lipid Profile and IntimaMedia Thickness in Subclinical Hypothyroidism: A Double-Blind, Placebo-Controlled Study // J. Clin. Endocrinol.Metab. — 2004. — Vol. 89. — № 5. — P. 2099–2106.

9. Плеттер К. Р. Мышление лечит, мышление убивает/Пер.сангл.Корвачов Л. М.- М.: Медицина, 1979. - 250 с

10. https://darakchi.uz/oz/125583?utm

Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MUSOBAQA JARAYONIDA SPORTCHILARNING EMOTSIONAL HOLATI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologik tayyorgarlikning sportchi emotsional holatiga ta’siri yuzasidan ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, psixologik tayyorgarlikning asosiy ta’siri, sportchilarning stressni boshqarish qobiliyatini oshirish, kutilmagan vaziyatlarga tezkor va samarali javob berishda zarur bo‘lgan psixologik intervensiyalarni rejalashtirish masalalari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: sport, sportchi, sport turi, emotsiya, musoboqa, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, motivatsiya.

Эшназарова Фарида Жўрақуловна
Доцент Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта, доктор философских наук (PhD)

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ СПОРТСМЕНОВ, ПРОЯВЛЯЮЩЕГО ВО ВРЕМЯ СОРЕВНОВАНИЙ

Аннотация. В данной статье представлена информация о влиянии психологической подготовки на эмоциональное состояние спортсмена. Также обсуждаются основные эффекты психологической подготовки, повышения способности спортсменов управлять стрессом, планирования психологических вмешательств, необходимых для быстрого и эффективного реагирования на непредвиденные ситуации.

Ключевые слова: спорт, спортсмен, вид спорта, эмоция, соревнование, психологическая подготовка, специальная подготовка, мотивация.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE EMOTIONAL STATE OF ATHLETES DURING THE COMPETITION

Eshnazarova Farida Juraqulovna

Associate Professor of the Samarkand Branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Annotation. This article presents data on the influence of psychological preparation on the emotional state of athletes. Also discussed were the main effects of psychological preparation, increasing athletes' ability to manage stress, and planning psychological interventions necessary for a quick and effective response to unexpected situations.

Keywords: sport, athlete, sport, emotion, competition, psychological preparation, special preparation, motivation.

Sportchilarning emotsional holatlarini boshqarishda qo‘llaniladigan nazariyalar turli sohalarni qamrab oladi va ular psixologiya va sport psixologiyasi sohalarida keng tadqiq qilinadi. Bu jarayonlarni tushunishda Mark Anshelning **“**Sport Psychology: From Theory to Practice**”** asaridagi g‘oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Anshel sportchilarning emotsional holatlarini tavsiflashda, ularning stress va bosim ostidagi reaksiyalarini boshqarish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, sportchilarning psixologik tayyorgarligi ularning jismoniy imkoniyatlari bilan bir qatorda, musobaqalar vaqtida ularning ish faoliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Sport psixologiyasi sohasida emotsional holatlarni boshqarish, asosan, sportchining stressli vaziyatlarga adaptatsiya qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Bu jarayon, sportchilarni tanqid va bosim ostida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rgatish orqali amalga oshiriladi. Anshel sportchilarning stressga chidamliligini oshirishda psixologik zo‘riqishlarni kamaytirish va emotsional barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan usullar yaratishga urg‘u beradi. Buning uchun sport psixologiyasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar, sportchilarning o‘zlarini anglashlarini va shu bilan birga ularning emotsional holatlarini nazorat qilish qobiliyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi[1].

Emotsional intelligentsiya nazariyalari ham sportchilarning emotsional holatlarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nazariyalarga ko‘ra, sportchilarning emotsional ongi, ularning his-tuyg‘ularini idrok etish va boshqarish qobiliyatlari, shuningdek ularning boshqalar bilan muloqot qilish mahorati kabi jarayonlar ularning umumiy ish faoliyatiga ta’sir qiladi. Emotsional holatlarni boshqara olish, sportchilarning stressli vaziyatlarda tez va samarali javob berish qobiliyatini oshirishga yordam beradi, bu esa ularga musobaqa paytida ruhiy barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Sportchilarning emotsional holatlarini tavsiflash va boshqarish usullarini ishlab chiqishda, ularning shaxsiy xususiyatlari va tajribalarini hisobga olish zarur. Ushbu yondashuv, sportchilarga ularning emotsional reaksiyalarini optimallashtirish va ularga moslashuvchan, o‘zgaruvchan sport muhitida yaxshi natijalar ko‘rsatish imkonini beradi [2]. Anshelning ta’kidlashicha, “Sportchilarning psixologik tayyorgarligi ularning umumiy ish faoliyatini sezilarli darajada oshiradi va bu o‘z navbatida, ularning sportdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir qiladi” deb yozadi. Shunday qilib, sportchilarning

emotsional holatlarini samarali boshqarish, ularga nafaqat musobaqa davrida, balki ularning sport faoliyati davomida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sportchilarning emotsiyalarga bo‘lgan munosabati va bu munosabatning ularning sportdagi ish faoliyatiga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali masala hisoblanadi. Sportchilar o‘z emotsiyalarini qanday qabul qilishlari va ularga qanday javob berishlari, ularning sportdagi samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Emotsional ongni rivojlantirish, sportchilarga o‘zlarining his-tuyg‘ularini aniqlash va ularni maqsadli tarzda boshqarish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida musobaqa davomida ularning psixologik va jismoniy ish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Sportchilar ko‘pincha yuqori bosimli vaziyatlarda ishlaydilar va bu vaziyatlar turli xil emotsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, muhim musobaqalar oldidan paydo bo‘ladigan qo‘rquv yoki hayajon, ularning diqqatini jamlay olish qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli, sport psixologiyasi sohasida emotsiyalarni boshqarish ustida ishlash, sportchilarning ruhiy mustahkamligini oshirishga qaratilgan. Richard Lazarusning ta’kidlashicha, “Sportchilar emotsiyalarga bo‘lgan munosabatlarini qanchalik yaxshi boshqara olishsa, o‘sha qadar samarali va natijali ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi”. Ushbu fikr sportchilarning emotsiyalarga munosabatini ularning umumiy ish faoliyatiga qanchalik muhim ekani haqida tasavvur beradi.

Emotsional boshqaruvda muhim jihatlar sportchilarning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bu ularning emotsiyalarni tan olish va ularni ijobiy yo‘nalishda ishlatish qobiliyatlarini oshiradi[3]. Shuningdek, sportchilarning jamoaviy sport turlarida emotsiyalarga munosabati, jamoa ichida muloqot qilish va o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Jamoa ruhiyatini yaxshilash va jamoa a’zolari o‘rtasidagi emotsional aloqalarni mustahkamlash, ularning bir-birlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi va jamoaviy ish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Bundan tashqari, sportchilar o‘zlarining emotsiyalarga munosabatini rivojlantirish orqali, bosimli vaziyatlarni boshqarishda ko‘proq moslashuvchanlikka ega bo‘ladilar. Bu moslashuvchanlik ularni yuqori darajadagi sport faoliyatida uzoq muddat davomida samarali ishlashga tayyorlaydi. Natijada, sportchilarning emotsiyalarga bo‘lgan munosabati, ularning sport kar’erasida muhim rol o‘ynaydi va ularning psixologik barqarorligi, ish faoliyatining sifatini belgilaydi.

Sportchilarning emotsional holatini ta’sirlaydigan omillar juda ko‘p qirrali va ularning sportdagi ishlashiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu omillar ichida psixologik, ijtimoiy va jismoniy faktorlar mavjud bo‘lib, ularning har biri sportchining umumiy ruhiy va jismoniy holatiga ta’sir qiladi[5].

Birinchi va eng muhim omil bu psixologik stressdir. Sport musobaqalari, ayniqsa yuqori darajadagi sport tadbirlari, sportchilarga katta miqdorda psixologik bosim yuklaydi. Bu bosim odatda natijalarga bo‘lgan yuqori kutishlar va musobaqalarning muhimligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Susan Kleinman tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning musobaqa oldidan boshdan kechiradigan psixologik stress ularning musobaqa vaqtidagi ishlash qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin.

Sportchilarning stressga qanday javob berishi ularning emotsional holatlarini boshqarish qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchi muhim omil ijtimoiy munosabatlardir. Sportchilar o‘z jamoalari va murabbiylari bilan qanday aloqada ekanliklari, shuningdek, oilaviy va do‘stlik aloqalari ularning ruhiy holatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i kuchli bo‘lgan sportchilar, stress va bosimni boshqarishda ko‘proq yordam oladilar va bu esa ularning umumiy emotsional barqarorligini oshiradi.

Uchinchi omil sifatida jismoniy holatni ko‘rsatish mumkin. Sportchilarning jismoniy holati, shu jumladan charchash darajasi, jarohatlar va umumiy sog‘liqni saqlash holati ularning emotsional javoblariga ta’sir qiladi. Jismoniy holatning yomonlashishi, masalan, jarohat yoki ortiqcha mashg‘ulotlar natijasida kelib chiqqan charchash, ularning emotsional holatiga salbiy ta’sir qiladi.

Shu bilan bir qatorda, musobaqa muhiti va tashkiliy omillar ham sportchilarning emotsional holatini ta’sirlaydi. Musobaqa sharoitlari, masalan, muxlislar bosimi, o‘yin joyining atmosferasi va tashkiliy masalalar, sportchilarning stress darajasini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Bu omillar sportchilarning musobaqa davomida qanday his qilishlarini va qanday ishlashlarini aniq belgilaydi.

Stress va emotsiyalar sportchilarning samaradorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu omillar sportchining ruhiy va jismoniy holatiga bevosita ta’sir qiladi. Sport sohasida stressni boshqarish va emotsiyalarni tartibga solish, sportchilarning musobaqa vaqtidagi ishlash qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy strategiyalardan biri hisoblanadi.

Stress, sportchilarning jismoniy va psixologik holatlarini keskin o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan bir omildir. Yuqori darajadagi stress, adrenalin va kortizol kabi stress gormonlarining ko‘payishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, sportchining diqqatini jamlay olish qobiliyatini va jismoniy ishlash ko‘rsatkichlarini pasaytirishi mumkin. Psixolog John S. Raglinning tadqiqotlariga ko‘ra, stressning haddan tashqari ko‘tarilishi sportchilarning diqqatini chalg‘itishi va ularning qaror qabul qilish jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Bu holat sportchilarning musobaqa davomida xatolarga yo‘l qo‘yish ehtimolini oshiradi.

Emotsiyalar ham sportchilarning ishlashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ijobiy emotsiyalar, sportchilarni ruhlantiradi va ularning ishonchini oshiradi, bu esa ularning jismoniy samaradorligini yaxshilaydi. Biroq, salbiy emotsiyalar, masalan qo‘rquv yoki hayajon, sportchilarning diqqatini chalg‘itishi va ularning psixologik barqarorligini buzishi mumkin, natijada ularning ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Stress va emotsiyalarning ta’sirini qanday boshqarish, sportchilarning musobaqa davrida qanday qilib o‘zlarining ruhiy va jismoniy holatlarini eng yaxshi darajada saqlab qolishlari mumkinligini belgilaydi. Bu jarayonda sport psixologiyasi, emotsiyalarni tartibga solish usullarini, shuningdek, stressni boshqarish texnikalarini qo‘llash orqali muhim rol o‘ynaydi. Sportchilarga o‘zlarining emotsiyalari va stress darajalarini tushunish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning musobaqalardagi ishlashini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Shunday qilib, stress va emotsiyalar sportchilarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi muhim omillar bo‘lib, ularning qanday boshqarilishi sportchilarning musobaqa natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Sport sohasidagi mutaxassislarning bu omillarni samarali boshqarish qobiliyati, sportchilarning eng yaxshi ishlashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурасулов Р.А. Спорт машғулотларининг ўқувчи-спортчилар шахсини шакллантиришдаги роли (яккакураш турлари мисолида): психология фан. доктори (DSc) ... диссертация автореферати: 19.00.06. Тошкент, 2018.

2. Абрамов С. П., Барский В. Л. Шахматы – первый год обучения. Методика проведения занятий. Москва, 2009.

3. Газиева З.Э. Спортда гуруҳий жипслик шаклланиши ва ривожланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари (футбол командалари мисолида): психология фан. бўйича фал. доктори (PhD)

... диссертация автореферати: 19.00.05. Тошкент, 2019.

4. Ғозиев Э. Умумий психология: Психология мутахассислиги учун дарслик / Э. Ғозиев. Тошкент, 2010.

5. Горбунов Г. Д. Психология физической культуры и спорта: учебник

для студ. высш. учеб. заведений / Г. Д. Горбунов, Е. Н. Гогунов. Москва, 2009.

6. Masharipov, Y. Sport psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Y. Masharipov, N. Jo‘rayev; mas’ul muharrir Sh. A. Aminjonov. Toshkent, 2010.

7. http://olympic.uz/olimpiyachilar/olimpiadaga-nomzod-sportchilar

8. https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sport-psixologiyasi-uz/

Kurbonova Shaxnoza Nimadovna
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali o‘qituvchisi

SPORTCHILARNI MUSOBAQA JARAYONIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sportchilarni musobaqa jarayoniga tayyorlashning psixologik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlash bosqichlari hamda sport faoliyatida ma’lum bir natijalarga erishish imkoniyatlarining psixologik mexanizmlari bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, sport, sportchi, musoboqa, psixologik tayyorgarlik, g‘alaba.

Курбонова Шахноза Нимадовна
Преподаватель Ферганского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ К СОРЕВНОВАТЕЛЬНОМУ ПРОЦЕССУ

Аннотация. В данной статье описаны психологические аспекты подготовки спортсменов к соревнованиям. Также описаны особенности спорта, этапы психологической подготовки спортсменов к соревнованиям и психологические механизмы возможностей достижения определенных результатов в спортивной деятельности.
Ключевые слова: Физическая культура, спорт, спортсмен, соревнование, психологическая подготовка, победа.

Kurbonova Shakhnoza Nimadovna
Teacher of the Fergana branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING ATHLETES FOR COMPETITION PROCESS

Annotation. This article describes the psychological aspects of preparing athletes for competition. Also, specific characteristics of sports, stages of psychological preparation of

athletes for competition, and psychological mechanisms of opportunities to achieve certain results in sports activities are described.

Keywords: Physical culture, sport, athlete, competition, psychological preparation, victory.

Bugungi sport musobaqalarida g‘alabaga erishish omillari tarkibida ham, shuningdek sportchining muvaffaqiyatsizlikka yuz tutishiga sabab bo‘ladigan omillar tarkibida ham psixologik tayyorgarlikning o‘rni tobora yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. Musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish sportchining nafaqat jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligining yuqori darajasiga, balki uning psixologik tayyorgarligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, sport musobaqalari oldidan sportchilar ruhiyatini jarayonga moslashishga o‘rgatish, ularni musobaqada g‘olib bo‘lishga imkon beradigan usullar bilan qurollantirish, musobaqa davomida o‘zini nazorat qila oladigan darajada mashq qilishga o‘rgatish zarur. So‘nggi yillarda respublikamiz sportchilari erishayotgan natijalar kun sayin yuqorilab bormoqda. Shundan ko‘rinib turibdiki, inson imkoniyatlari cheksiz. Sportchi ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘zining ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini safarbar qilish yo‘llarini bilishi lozim. Sportchilarda bunday bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, mutaxassislar va murabbiylarning doimo diqqat markazida bo‘lishi kerak. Ular sportchilarni jismoniy mashq va sport musobaqalariga psixologik tayyorlashning tavsiya etilayotgan quyidagi uslublaridan foydalansa, shogirdlari yanada natijalar yuqori bo‘lishi mumkin.

Insonni biror faoliyat sohasiga tayyorlash keng qamrovli, murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, turli usullar, vositalar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyatda sportchilarni jismoniy mashqlarga hamda sport musobaqalariga ruhan tayyorlash, musobaqada g‘alaba qilishga, yangi rekordlar o‘rnatishga yo‘llash usullari ham rang-barangdir. Sportchi yoki jamoa a’zolarining sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishi, birinchi navbatda, ularning ma’naviy, mafkuraviy, irodaviy, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligiga bog‘liq. Sport amaliyotida bo‘lajak aniq musobaqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko‘rgan sportchilarning ko‘pincha g‘alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiqdir.

Bir qator tadqiqotlar sport faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblangan sport musobaqalarining xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Sport psixologiyasining bu sohada o‘rganadigan masalalarida – sportchining musobaqa oldi emotsional holati, uning musobaqalarga ruhiy tayyorlanishi, musobaqalarda g‘olib chiqishi va mag‘lub bo‘lishi kabi masalalarni ruhiy tahlil qilishga katta e’tibor qaratilgan. [1,199].

Sportchilarning startdan oldingi ruhiy holatini murabbiylar, fiziologlar, psixologlar katta qiziqish bilan ko‘p yillardan buyon o‘rganib kelmoqdalar. Lekin sportchilarning startdan oldingi ruhiy tayyorgarlik holati haqidagi ko‘plab muammolar, masalalar shu kungacha yaxshi ishlab chiqilmagan yoki ilmiy hal qilinmagan. Faqat Z.Myuller ayrim

risola va maqolalarda xalqaro musobaqalarida sportchilarning yomon ko‘rsatkichlari faqat ularning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ularning musobaqadan oldingi tayyorgarlik holatiga ham bog‘liq ekanligini batafsil tushuntirib berishga erishgan.[2,110].

Sportchilarning psixologik tayyorgarligi deganda sportchining yuqori tashkiliy va ijro etuvchi amalga oshirish jarayoni tushuniladi, uning imkoniyatlari uning potentsial imkoniyatlari natijasiga teng. Shuning uchun psixologik tayyorgarlik umumiy tizim - sport mashg‘ulotlarining ikkinchi darajali qismi bo‘lib, uning jismoniy, texnik, taktik kabi boshqa turlariga bog‘liq bo‘ladi. Agar jismoniy daraja past bo‘lsa, uning ruhiy tartibga solishga ijobiy ta’siriga qaramay, jamoa yoki sportchi yuqori ko‘rsatkichlarga erisha olmaydi. Bunday holda, natija ehtimolga yaqin bo‘ladi lekin yuqori natija emas.

Insonning ruhiyati, ongi va shaxsiy fazilatlari faoliyat jarayonida nafaqat namoyon bo‘ladi, balki shakllanaib ham boradi. Raqobat faoliyati inson faoliyatining alohida turi bo‘lib, u faqat ma’lum sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin. Tabiiyki, eng yaxshi psixologik tayyorgarlik maktabi sportchining musobaqalarda ishtirok etishidir.

Sportchining musobaqaga umumiy psixologik tayyorgarligi uning ishtirok etish imkoniyatlaridan boshlab, final ishtiroki bilan yakunlanadi. Ushbu davrni tizimli ravishda uchta davrga bo‘lish mumkin:

1-bosqich. Bo‘lajak o‘yinlar haqida bildirishnoma olishdan boshlab, qur’a jadvalini olishgacha bo‘lgan davr.

2-bosqich. Qura natijalari bilan tanishishdan, tanlovning birinchi bosqichi boshlanishigacha bo‘lgan davr.

3-bosqich. Musobaqa boshlanishining birinchi bosqichidan oxirigacha bo‘lgan davr.

Sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashda zamonaviy metod va usullardan keng foydalanish, shuningdek, sportchining musobaqaga ruhan tayyorlash bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilish lozim.

Sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarini ko‘rish mumkin:

1. Sportchilarga bo‘lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma’lumotlar berish;

2. Sport musobaqalari haqida olingan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqtini aniqlash;

3. Musobaqadan oldin sportchiga yoki jamoaga g‘alaba keltirish imkoniyatlarini o‘rganish;

4. Sportchilarga musobaqada qatnashishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko‘rsatmalar berish;

5. Sportchining musobaqaga ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash.

6. Sportchining bo‘lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligi darajasini takomillashtirish;

7. Sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to‘siqlar vujudga keltirish, sportchilarda bu to‘siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko‘nikmalar hosil qilish uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar uyushtirish;

8. Sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo‘ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o‘rgatish;

9. Sportchini musobaqa boshlanishida ruhiy ko‘tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish;

10. Musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash va o‘ziga ishinchni shakllantirish.

Mashg‘ulotlar paytida sportchilarning ekstremal sharoitlarga duchor bo‘lishi asabiy buzilishlarni keltirib chiqaradi. Shunday vaziyatlarda musobaqa jarayonida o‘z mahoratini isbotlash uchun sportchi quyidagilarni bajarishi lozim:

1. Boshqa odamlarning bosimiga berilmasdan turli vaziyatlarda harakat qilish.

2.Xatolar sonini kamaytirish uchun kerakli mashqlar va harakatlarni eng yuqori aniqlik bilan bajarish.

3. Musobaqa paytida vaziyatlarni va qarorlarni tez va to‘g‘ri baholashda ko‘p o‘ylamaslik.

4. Nerv tizimidagi o‘zgarishlarni mustaqil nazorat qilish.

Bunday natijaga faqat to‘g‘ri psixologik tayyorgarlik orqali erishish mumkin. Sportchilarni bu tarzda tayyorlashdan maqsad ularning ruhiy holatini eng yuqori darajaga olib chiqish, shuning uchun ular musobaqalarda funksional va maxsus tayyorgarligining maksimal salohiyatiga erishishlari mumkin.

Shartli ravishda psixologik tayyorgarlikning uch turi aniqlanadi:

- umumiy psixologik tayyorgarlik;
- musobaqalarga maxsus psixologik tayyorgarlik;
- muayyan raqobatda salbiy ta’sirga qarshi psixologik yordam.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sport faoliyatida ma’lum bir natijalarga erishish quyidagi jihatlar bilan uzviy bog‘liq:

birinchidan, maxsus jismoniy mashqlarni bajarish davrida turli shakldagi muskullar faolligi namoyon bo‘lib, sport faoliyati mobaynida inson kerakli darajada jismonan chiniqadi, umumiy jismoniy tayyorgarlikga ega bo‘ladi;

ikkinchidan, sportchini tanlagan sport turi bilan bog‘liq bo‘lib, sportchidan muayyan ko‘nikma, malakalarini takomillashtirib borishga intilishi jismoniy mashqlarni bajarishda eng yuqori natijalarni ko‘rsatishga yo‘naltirilgandir;

uchinchidan, sportchini tanlagan sport turiga oid jismoniy mashqlarni bajarishda yuqori texnikasini egallash bilan bog‘liq bo‘lib, sportchidan maxsus va izchil tarzda davom etadigan uzoq vaqtli mashg‘ulotlarni talab etadi. Bu jarayonda sportchi muayyan harakat malakalarini o‘zlashtiradi va takomillashtirib boradi, shu bilan birga ayni sport turi bo‘yicha shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan kuch, chidamlilik, tezkorlik, harakatlanishdagi chaqqonlik, epchillik va xarakterdagi irodaviy sifatlarga mardlik, jasurlik, qat’iyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqqillik, irodalilik, g‘alabaga ishonch va hokazo ega bo‘ladi;

to‘rtinchidan, sport faoliyati sport ko‘rashi bilan bog‘liqligi ya’ni, bu holat sport musobaqasi jarayonida alohida xarakterga ega bo‘lib, sportchida jismoniy kuchlarini yuqori zo‘riqtirishga, katta kuch va hissiy-irodaviy kechinmalarining chuqurligi, psixik jarayonlarning keskin faoliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi, sport faoliyatining zarur tarkibiy qismi bo‘lgan, sport musobaqalari jarayonida keskin tus oluvchi bellashuvlar bilan bog‘liq;

beshinchidan, jismoniy va ma’naviy kuchlarni namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqligi ya’ni, sport faoliyatini murakkab tuzilishga egaligini maxsus malaka va ko‘nikmalarni maksimal darajada aniqlash, motorharakatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni doimiy ravishda yuqori darajada saqlab turish zarurligi. [3,12].

Shu nuqtai nazardan sport faoliyati nihoyatda murakkab tarkibga ega bo‘lib, o‘ziga nafaqat musobaqalarda ishtirok etishni, balki izchil ravishda olib boriladigan tayyorgarlik mashg‘otlarini ham qamrab oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.X.Jabborov, O.R.Avezov, N.Z.Jumayev. Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Durdona” nashriyoti.2014 y -324 b.
2. Xalbayeva.G.A. Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma – Samarqand: SamDU nashri, 2021 y. - 296 bet.
3. Hayitov O.E. Sport faoliyati psixologiyasi. [Matn] : darslik / O. Hayitov.-Toshkent : “Umid Design”, 2021.-196 b.
4. Машарипов Й. Спорт психологияси. - Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2010. - 144 б.

Toshpulatova Aziza Toyirovna
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxasislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, yangi metodikalar, umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari bayon qilingan.

Shuningdek, umummadaniy kompetensiyaning ma’nosini, rivojlanish bosqichlari, ta’lim olish jarayonida namoyon bo‘lishi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, talaba, shaxs, pedagogika, texnologiya, metodika.

Тошпулатова Азиза Тойировна
Преподаватель Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБЩИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и психологические особенности развития общекультурных компетенций студентов высших учебных заведений, изменения в системе образования, новые методики формирования общекультурных и профессиональных компетенций. Также обсуждается значение межкультурной компетентности, этапы ее развития и проявление в образовательном процессе.

Ключевые слова: образование, воспитание, ученик, личность, педагогика, технология, методика.

Tashpulatova Aziza Toyirovna
Teacher of the Samarkand branch of the Institute of Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. This article describes the pedagogical psychological features of the development of general cultural competencies of students of higher educational institutions, changes in the education system, new methodologies, the formation of general cultural and professional competencies. The meaning of intercultural competence, its stages of development, and its manifestation in the educational process are also discussed.

Keywords: education, upbringing, student, personality, pedagogy, technology, methodology.

Kirish.

Kompetensiya tushunchasi mano jihatidan ko‘nikma, muayyan bilim va yohud malakalar majmuasi. Kompetensiya – biror bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, kompetensiya o‘quvchi yoki ishchining muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqqib, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Mavzumizdan kelib chiqgan holatda umummadaniy kompetensiya deganda - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. O‘zaro bog‘liq va rangbarang dunyoda talabalarni milliy va madaniy kompetentsiyalar bilan jihozlantirish juda muhimdir. Ushbu imkoniyatlar talabalarga turli xil madaniy kontekstlarni tushunish, qadrlash va navigatsiya qilish, o‘zaro hurmat va samarali muloqotni rivojlantirishga imkon beradi.[1].

Pedagogik kompetentsiyalar deganda o‘qituvchilar o‘rganishni samarali osonlashtirish va o‘quvchilarning rivojlanishiga ko‘maklashish uchun ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar tushuniladi. Ushbu vakolatlar keng imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan o‘qitish dizayni, sinfni boshqarish, baholash va fikr-mulohazalar, aloqa va ijobiy o‘quv muhitini rivojlantirish. Bu erda o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan ba’zi asosiy pedagogik vakolatlar mavjud: Mustahkam poydevor qo‘yish uchun milliy va madaniy vakolatlarni targ‘ib qiluvchi pedagogik strategiyalar bo‘yicha tegishli adabiyotlarni o‘rganish juda muhimdir. Ilmiy asarlar talabalarning madaniy ongi va sezgirligini tarbiyalashda ko‘p madaniyatli ta’lim, madaniyatlararo kompetentsiya va madaniy ta’sirchanlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ular talabalarning turli madaniyatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirishda va o‘z milliy o‘ziga xosligini hurmat qilishda inklyuziv o‘quv dasturlari, madaniy jihatdan tegishli o‘quv materiallari va tajribaviy ta’lim imkoniyatlarining rollarini ta’kidlaydilar.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kompetentsiyalarni turli usullar va yondashuvlar orqali rivojlantirish hamda yanada takomillashtirish mumkin. O‘qituvchilarda

pedagogik kompetentsiyalarni tarbiyalashning ba’zi samarali usullariga quidagilarni misol qilamiz: Malaka oshirish bo‘yicha seminarlar va kurslar: seminarlar, seminarlar va malaka oshirish kurslarida qatnashish o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik kompetentsiyalarni egallashning samarali usuli hisoblanadi. [2]. Bu kabi imkoniyatlar aniq o‘qitish strategiyalari, o‘qitish texnologiyalari, sinflarni boshqarish texnikasi, baholash usullari va boshqa aloqador mavzular bo‘yicha chuqur o‘qitishni ta’minlaydi. Kasbiy rivojlanish o‘qituvchilarga ta’lim sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar va ilg‘or tajribalar bilan rivojlanishga imkon beradi.

Tengdoshlarni kuzatish va fikr-mulohazalar: tengdoshlarni birgalikda kuzatish va fikrmulohazalar pedagogik kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun samarali usul bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘z hamkasblarining o‘qitish amaliyotini kuzatishi va kelishilgan mezonlar asosida konstruktiv fikr bildirishi mumkin. Tengdoshlarni kuzatish o‘qituvchilarga yangi istiqbollarni egallashga, samarali o‘qitish strategiyalarini baham ko‘rishga va o‘zlarining o‘qitish amaliyotlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarni olishga imkon beradi. Bu kollegiallik madaniyatini targ‘ib qiladi va doimiy kasbiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu usullarni birlashtirib, o‘qituvchilar o‘zlarining pedagogik vakolatlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari va takomillashtirishlari mumkin.[3]. Bu davom etayotgan professional o‘sishini rag‘batlantiradi qo‘llab-quvvatlovchi va hamkorlikdagi muhitini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega, bu muhit bizga mulohaza va ta’limni beradi. Oxir oqibat, ushbu sa’y-harakatlar yuqori sifatli o‘quvtajribalarini yaratishga va talabalarning ijobiy natijalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy kompetentsiyalarni targ‘ib qilish uchun o‘qituvchilar o‘z mamlakatlari tarixi, an’analari va qadriyatlarini o‘rganadigan tadbirlarni loyihalashlari ham samaralidir. Milliy o‘ziga xoslik va fuqarolik bo‘yicha tanqidiy fikrlash va muloqotni rag‘batlantirish tegishlilik hissi va faol fuqarolik faolligini oshiradi.[4]. Xuddi shunday, madaniy kompetentsiyalar talabalarni turli xil madaniy amaliyotlar, bayramlar va tillarga ta’sir qiladigan, ularga turli xil madaniy meroslarni qabul qilish va qadrlash imkoniyatini beradigan tadbirlar orqali ham rivojlanishi mumkin.

Umummadaniy kompetensiya ko‘plab zamonaviy pedagog va psixologlarning asarlarida qayd etilgan. Ular bilim olishning ma’nosini izlash va o‘qitish usullarini tanlashda ma’lum bosqichlar muhim ekanligiga ishonch hosil qilishadi: Bolaning o‘rganilayotgan tabiiy yoki ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan shaxsiy ijodi, ular turli ta’lim sohalariga muvofiq taqsimlanadi.

Talabaning o‘z tajribasi, umumiy madaniy ob’yektlar va qadriyatlarni o‘rganish jarayonida olgan bilimlaridan xabardorligi.

Lavozim, shuningdek, ijtimoiy tajriba va umumiy madaniy bilimlarga shaxsiy munosabat.

Umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bolaga jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishga intilishga yordam beradi. [5].

Ta’limga kompetentsiyalar kabi elementlar kiritilgandan so‘ng, ikkinchi avlod ta’lim standartlari ishlab chiqilgani bizga ma’lum.

Xulosa qilib aytganda talabalarning umummadaniy kompetentligini innovatsion ta’lim muhitida shakllantirishning integrativ modeli o‘zining umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan maqsadli, tashkiliy-texnologik, baholash natija bloklarining birligida quriladi va ilmiylik, faoliyatga qaratilganlik, tizimlilik, integrativlik, ko‘rgazmalilik, individualizatsiya tamoyillari asosida quriladi, kompetentlikka asoslangan, aksiologik, sinergetik, ijtimoiy-pedagogik, o‘quv-metodik yondashuvlar, va tashkiliypedagogik, o‘quv-metodik, texnologik va psixologik asosiy pedagogik shart-sharoitlar asosida amalga oshiriladi. Ta’limning har bir bosqichida o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda talablarning o‘ziga xos variantlari ajratiladi. Umumiy madaniy kompetentsiya milliy xususiyatlar va umuminsoniy madaniyat, inson hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari bilan bog‘liq. U alohida xalqning va butun insoniyatning oilaviy, ijtimoiy, ijtimoiy an’analari va urf-odatlari asoslarini ko‘rib chiqadi. Aynan shu kompetensiya dinning jamiyat taraqqiyotiga, aholi o‘rtasida ma’naviyat shakllanishiga ta’sirini tushuntirish bilan bog‘liq. Bundaymilliy va umummadaniy kompetensiyalar talabaning kelajak hayotda o‘z o‘rnini topishiga, milliyligini unutmagan holda rivojlanishiga yordam beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Л.В. Формирование профессионального самосознания юристов в условиях деятельностной образовательной среды : Дис. ... канд. пси- хол. наук : 19.00.07, 19.00.03 Казань, 2000. - 196 с.

2. Борлакова З.А. Формирование общекультурных компетенций будущих бакалавров в образовательной среде вуза // Образование. Наука. Инновации. Южное измерение. Научно - образовательный журнал. №1 (27). - Ростов-на- Дону: ЮФУ, 2013. - С.101- 108.

3. Холиқов А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик / А.А. Холиқов; ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. - Т.: «Иқтисод-молия», 2011, - 420.

4. Hamidovna, M. K. (2023). ABU NASR FOROBIYNING TA’LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI. Journal of new century innovations, 35(1), 71- 73.

5. https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-lim-muassasasi-talabalarining-kommunikativ-kompetentligini-rivojlantirishning-ayrim-jihatlari

Туракулова Ирода Худайназаровна
Узбекско-финский педагогический институт
Кафедра психологии

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические аспекты подготовки молодежи к семейной жизни. Особое внимание уделяется развитию коммуникативных и эмоциональных навыков, влияющих на устойчивость семейных отношений. Анализируется роль образовательных программ и родительской поддержки в формировании у молодежи необходимых для брака компетенций.

Ключевые слова: подготовка к семейной жизни, психологические аспекты, эмоциональная зрелость, коммуникативные навыки, семейные отношения.

Turakulova Iroda Khudainazarovna
Uzbek-Finnish Pedagogical Institute
Department of Psychology

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE

Annotation. The article examines the psychological aspects of preparing young people for family life. Particular attention is paid to the development of communication and emotional skills that affect the stability of family relationships. The role of educational programs and parental support in developing the necessary competencies for marriage in young people is analyzed.

Keywords: preparation for family life, psychological aspects, emotional maturity, communication skills, family relationships.

Turaqulova Iroda Xudaynazarovna
O‘zbekiston-Fin Pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Oilaviy munosabatlarning barqarorligiga ta’sir qiluvchi muloqot va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Yoshlarda turmush qurish uchun

zaruriy kompetensiyalarni shakllantirishda ta’lim dasturlari va ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oilaviy hayotga tayyorgarlik, psixologik jihatlar, hissiy yetuklik, muloqot qobiliyatlari, oilaviy munosabatlar.

Введение.

Самоопределение - сложный и длительный процесс. Он означает определение себя в мире, предполагает, что перед человеком открываются разные возможности самоосуществления, свободы выбора своего пути в жизни. Понятие «самоопределение» заключает в себе и значение «предела» (Е.А. Климов), то есть границы, ограничения, и потому может осмысливаться как самоограничение, создание для себя пределов, границ. Здесь самое главное то, как человек сам понимает и определяет целесообразность, возможности и ограничения своего жизненного выбора. В этом, собственно, и состоит выбор, а его позитивное осуществление требует определенного уровня развития личности.

Самоопределяться молодому человеку приходится во многом: в своих отношениях к миру, в вопросах смысла существования, в проблемах собственного самосознания (общечеловеческое, этническое, религиозное, историческое, нравственное, профессиональное и пр.), в социальных и культурных ценностях, в своих чувствах, в идеалах. Можно сказать, что в самоопределении взрослеющего человека рождается смысл его последующей жизни. [1].

Признавая большое значение подготовки молодежи к жизни, педагоги, родители, психологи основное внимание уделяют формированию мировоззрения юношей и девушек, их профессиональным намерениям, выбору будущей профессии. Вопросы «куда пойти учиться», «как стать хорошим специалистом», «как установить хорошие отношения в коллективе» и пр. - центральные в разработке проблемы самоопределения и подготовки молодежи к жизни.

Но есть еще одна очень важная сторона жизни человека - жизнь семейная. Современная семья - самый чувствительный показатель духовного и социального здоровья общества. Семья является сложнейшим социальным объединением, с которым так или иначе связана жизнь каждого из людей. Поэтому один из важных аспектов самоопределения взрослеющего человека - формирование его готовности к созданию в будущем собственной семьи. Самоопределение в этой сфере жизни, как и во всех других, - сложный и длительный процесс. Он предполагает, что перед человеком открываются разные возможности самоосуществления, выбора своего пути в этом направлении жизни. [2].

В последние десятилетия социальные установки и образы жизни претерпели значительные трансформации, что делает тему подготовки молодежи к семейной жизни все более актуальной. Теоретики и практики семейных отношений подчеркивают, что стабильно высокий уровень разводов во многих странах требует активного поиска эффективных стратегий формирования у молодежи необходимых

навыков для создания устойчивых и гармоничных браков. Психологические аспекты занимают важное место в этой подготовке, играя ключевую роль в закладке основ для крепких семейных союзов.

Эмоциональная зрелость, способствующая взвешенному подходу к семейным обязанностям и вызовам, представляет собой одну из первостепенных компетенций, которые необходимо развивать у молодежи. Способность к эмпатии и саморегуляции эмоциональных состояний выступает не только как гарант личного благополучия, но и как основа гармоничных взаимоотношений с партнером. [3].

Другим значительным элементом подготовки к семейной жизни является овладение коммуникативными навыками. Умение слушать, выражать свои мысли и желания, а также эффективно решать конфликты позволяет существенно укрепить доверие и взаимопонимание в паре. Все это подчеркивает важность комплексного подхода к подготовке молодежи к семейной жизни с акцентом на развивающие и поддерживающие психологические факторы, что в конечном итоге может способствовать снижению уровня разводов и укреплению социального института брака.

Теоретическая часть

Развитие психологических компетенций является основополагающим элементом в подготовке молодежи к семейной жизни. Эти компетенции включают в себя эмоциональную зрелость, коммуникативные навыки и способность к совместному принятию решений, каждый из которых вносит значительный вклад в создание и поддержание здоровых семейных отношений.

Во-первых, эмоциональная зрелость выступает как фундаментальное качество, содержащее в себе элементы самосознания, управления собственными эмоциями и способности к эмпатии. Согласно исследованию Джонса и Харриса, супруги, обладающие этими качествами, демонстрируют более устойчивые и удовлетворяющие отношения. Эмоциональная зрелость позволяет партнерам справляться с изменениями и кризисами, которые неизбежно возникают в семейной жизни, поддерживая гармонию и взаимопонимание [1].

Во-вторых, наличие развитых коммуникативных навыков критически важно для эффективного взаимодействия в браке. Способность вести конструктивный диалог помогает не только передавать свои мысли и чувства, но и лучше понимать партнера, что ведет к уменьшению конфликтов и усилению чувства доверия. Исследование Смита и Кларка подтверждает, что пары, владеющие этими навыками, способны успешно преодолевать многие трудности во взаимоотношениях [2].

В-третьих, навык совместного решения проблем и принятия решений является необходимым компонентом для построения равноправных и устойчивых отношений. Уильямс отмечает, что пары, которые активно развивают эти способности, демонстрируют большую удовлетворенность браком, так как они лучше всего справляются с бытовыми и эмоциональными вызовами, с которыми сталкивается любая семья [3].

Таким образом, формирование у молодежи этих психологических компетенций должно стать одной из приоритетных задач в рамках образовательных и семейных программ, направленных на подготовку к семейной жизни. Эти навыки создают прочный фундамент для развития здоровых и долгосрочных семейных отношений.

Практические рекомендации

Для успешной подготовки молодежи к семейной жизни необходимо внедрять различные стратегии, направленные на развитие психологических компетенций. Ниже приведены несколько практических рекомендаций, которые могут стать частью комплексной программы подготовки:

1. Интеграция психологических тренингов в образовательные программы: Учебные заведения могут включать в учебные планы специализированные курсы, направленные на развитие эмоциональной грамотности, управления эмоциями и навыков эффективного общения. Такие занятия помогут студентам лучше понимать и регулировать свои эмоциональные состояния, а также развивать эмпатию и способность строить продуктивные взаимоотношения с партнерами.

2. Поддержка родителями формирования у молодежи необходимых психологических навыков: Родителям следует активно участвовать в формировании у детей здоровых взглядов на семейную жизнь. Это может включать в себя демонстрацию примеров конструктивного взаимодействия в семье, обсуждение сложных тем, касающихся брачных отношений, а также поддержку эмоциональной зрелости детей через открытые и доверительные беседы.

3. Создание групп поддержки и наставничества: Организация клубов или сообществ, где молодые люди могут общаться и обмениваться опытом, является важным шагом в обучении практике построения отношений. Наставничество со стороны более опытных пар может предоставить молодым людям ценную перспективу и советы, основанные на реальных жизненных примерах. Это способствует осознанию и развитию необходимых для семейной жизни навыков на практике.

Эти меры в совокупности помогут молодым людям подготовиться к жизненно важной роли, которую они будут выполнять в своих будущих семьях, и значительно снизят риск возникновения серьезных конфликтов и разводов в браке.

Выводы. Подготовка молодежи к семейной жизни, фокусирующаяся на развитии психологических аспектов, играет важнейшую роль в формировании устойчивых и гармоничных брачных отношений. Эмоциональная зрелость, вместе с умением эффективно общаться и решать проблемы, выступают основой для успешного преодоления вызовов, характерных для супружеской жизни.

Интеграция таких навыков в образовательные процессы через специализированные тренинги и курсы может стать решающим шагом в улучшении качества семейных отношений будущих поколений. Одновременно, вовлечение родителей в формирование этих компетенций у молодых людей дополнительно

укрепляет этот процесс, создавая поддерживающую среду, в которой молодые пары могут развиваться и совершенствоваться.

Комплексный подход, объединяющий образовательные инициативы и родительскую поддержку, способен существенно снизить уровень разводов, способствуя более глубокому взаимопониманию и принятию в паре. Эти меры формируют прочный фундамент для позитивной динамики в семейной жизни, способствуя укреплению социального института семьи в целом.

Список литературы

1. Портал психологических изданий PsyJournals.ru - https://psyjournals.ru/journals/bppe/archive/2015_n3/ Dubrovina [Подготовка молодежи к семейной жизни, или «Забытое» самоопределение // Вестник практической психологии образования - 2015. Том 12. № 3]

2. Джонс П., Харрис Л. Эмоциональная зрелость как фактор устойчивости брака. Journal of Family Psychology, 2018, 32(4), 215-228.

3. Смит А., Кларк, Дж. Коммуникативные навыки и семейная гармония: экспериментальные данные. Relationship Studies, 2020, 14(6), 345-362.

4. Уильямс Т. Совместное принятие решений и удовлетворенность в браке. Journal of Marriage and Family, 2019, 81(2), 377-389.

Axmedova Muyassar Xadimatovna psixol.f.d.,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Psixologiya kafedrasi prof v/b.,
E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

KOMMUNIKATIV IMO-ISHORALARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola muloqot jarayonida noverbal vositalar yordamida so‘zlarning turli ma'nolarni ifoda etishiga e'tibor qaratilgan. Muloqotda so‘zlar orqali emas, balki imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana harakatlari va boshqalar orqali uzatiladigan noverbal signallar muhim hisoblanadi. Ushbu signallar axborot almashuvda his-tuyg‘ularni, niyatlarni va boshqa ko‘plab ijtimoiy xususiyatlarni ifodalashga qodir. Bunda o‘zbek tilidagi imo-ishoralarning milliy, ijtimoiy, yoshga xos xususiyatlari hamda farqlari ilmiy bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: imo-ishoralar, psixolingvistika, noverbal muloqot, verbal muloqot, tana tili, kinesika, milliy imo-ishoralar.

Ахмедова Муяссар Хадиматовна
Ташкентский университет прикладных наук
и/о. профессор кафедры психологии,
доктор психологических наук
E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОММУНИКАТИВНЫХ ЖЕСТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена выражению различных значений слов с помощью невербальных средств в процессе общения. Невербальные сигналы, передаваемые не словами, а жестами, мимикой, движениями тела и т. д., считаются важными в общении. Эти сигналы способны выражать эмоции, намерения и многие другие социальные характеристики при обмене информацией. В нем научно изложены национальные, социальные, возрастные особенности и различия жестов узбекского языка.

Ключевые слова: жесты, психолингвистика, невербальное общение, вербальное общение, язык тела, кинесика, национальные жесты.

Ahmedova Muyassar Hadimatovna
Tashkent University of Applied Sciences
Associate Professor Department of Psychology,
Doctor of Psychological Sciences

E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF COMMUNICATIVE GESTURES

Annotation. This article is devoted to the expression of various meanings of words using non-verbal means in the process of communication. Non-verbal signals transmitted not by words, but by gestures, facial expressions, body movements, etc., are considered important in communication. These signals are able to express emotions, intentions, and many other social characteristics when exchanging information. It scientifically describes the national, social, age-related features and differences in the gestures of the Uzbek language.

Keywords: gestures, psycholinguistics, non-verbal communication, verbal communication, body language, kinesics, national gestures.

Kirish.

Bugungi kunda fan-texnikaning taraqqiyoti, globallashuv jarayoni inson ong faoliyatini yuksak darajada takomillashganligidan dalolat beradi. Demak, bunga mos ravishda insoniy muomala-munosabatlar ham mukammallashgan. Kishilik jamiyati rivojlanib borar ekan ma'lumotlarni qabul qilish, saralash va ularga javob qaytarish jarayoni shubhasiz kengayadi, tezlashadi, o‘zgaradi.

Verbal muloqot jarayonida noverbal ko‘rinishlar doimo mavjud bo‘lib, ular bir qarashda ikkinchi darajali ma'lumot manbai bo‘lib ko‘rinsada ko‘pincha muloqotning muvaffaqiyati va samaradorligi ularga bevosita bog‘liqdir. Ular suhbatdoshning niyatlari, hissiy holati, xarakteri va biror narsaga yoki kimgadir munosabati kabilar haqida muhim axborotlarni beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Inson fikrini ifodalashda tildan foydalanar ekan, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida tilga yordamchi bo‘lgan noverbal vositalardan foydalanadi[5. 213].

Har qanday kishilik jamiyatida noverbal vositalar muloqot jarayonida tabiiy ravishda nutqni kuzatib boruvchi va to‘ldirib keluvchi ikkilamchi vosita bo‘lib kelgan. Noverbal vositalar nutqiy muloqot bilan birga ma'lumot, xabar, maqsadni ifodalashda qatnashuvchi imo-ishora, ohang, mimika, tana harakatlari kabi vositalarni o‘rganadigan soha hisoblanadi. Ular odatda vaziyatga qarab nutqni ma'lum me'yorga keltirish, ixchamlashtirish, shuningdek, kishining holatini, ruhiyatini aniq ifodalash vazifasini bajaradi.

Noverbal vositalar nutqiy muloqotda nutqiy ifodaning o‘rnida qo‘llanishi, verbal ifodani kuzatib borishi va verbal vosita bilan birga qo‘llanishi mumkin. Ular nutqiy muloqotning tabiiyligini ta'minlovchi vositalar bo‘lib, uning mazmuni real nutqiy vaziyatda oydinlashadi va nutqiy muloqotda quyidagi holatlarda ishlatiladi: 1) adresant va adresatlarning aloqa tili bir-biriga tushunarsiz bo‘lganda; 2) nutqiy muloqotning yuzaga chiqishi uchun to‘sqinlik bo‘lganda; 3) adresant va adresat o‘z fikrlarini boshqalardan

yashirin ifodalaganlarida; 4) kommunikantlardan birining holati talab qilganda; 5) nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida[4. 82].

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘tgan asrning 60-yillarida eng yirik sotsiologik harakatlardan biri bo‘lgan ramziy interaktsionizm doirasida R.Birdwhistel kontseptsiyasi taqdim etildi. Shuningdek birinchilardan bo‘lib tana harakatlari, imo-ishoralari va pozitsiyalarini hisobga olgan holda muloqotni o‘rgangan. U noverbal muloqotni o‘rganish yo‘nalishini yaratdi. Uni "kinesika" (qadimgi yunoncha - harakat) deb atadi [10]. Tadqiqotchi "kin" yoki kinemani elementar semantik birlik sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi (tilshunoslikdagi fonemaga o‘xshash(analogi)). R.Birdwhistel odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xilma-xilligiga qaramay, barcha ramziy o‘zaro ta'sirlar bir xil cheklangan ko‘rinishga ega bo‘lib, inson tanasining elementar harakatlarini 50-60 foyizi imo-ishoralar yoki tana holatidan iborat, degan fikrni ilgari surgan. Mutaxassislarning ushbu g‘oyalari tadqiqot metodologiyasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Muloqot jarayonida imo-ishoralardan jonli foydalanish nutqning hissiy boyligini oshirishga yordam beradigan va uni unutilmas holga keltiradigan vositadir. Qo‘l harakati ya’ni imo-ishoralar nafaqat aytilgan fikrning mazmunini ifodalashga, balki so‘zlovchining barcha his-tuyg‘ularini yetkazishga yordam beradi. Bu esa tinglovchilar tomonidan axborotni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi. Biroq, haddan ziyod ishlatilgan imo-ishoralar tinglovchilarni aytilayotgan gaplarning mohiyatidan chalg‘itishi mumkin. Haddan tashqari imo-ishoralar vizual idrokni kuchaytiradi va uzatilgan axborotni tushunishni qiyinlashtiradi. Imo-ishoralarning optimal soni yanada muvozanatli taassurot yaratadi va muloqot samaradorligini oshiradi.

So‘zga hamroh imo-ishoralar noverbal ham deb yuritiladi. U so‘zlovchi muhim deb hisoblagan gapning elementi bilan hamohang tarzda namoyon bo‘ladi. Imo-ishora va so‘z bir vaqtning o‘zida bir xil fikrni aks ettiradi, lekin bir xil jihatlarni ifodalash shart emas. Vizual ma'lumotni yetkazish uchun imo-ishoralardan foydalanish juda keng tarqalgan. Yosh bolalar yangi va ayniqsa murakkab noverbal axborotlarga e'tiborliroq bo‘lishadi, agar ularga imo-ishoralar hamroh bo‘lsa yaxshi tushunishadi.

Muloqotda imo-ishoralarning izchilligini tushunish muhim hisoblanadi. Bu izchillik orqali muloqot qilayotgan odamning pozitsiyasini aniqroq ko‘rishga imkon yaratadi. Odatda noverbal vositalar orqali so‘zlarni suhbatdosh qanday qabul qilinayotganligini ya'ni ma'qullash yoki dushmanlik, ochiq yoki yopiq, zerikish kabilar bilan tushunish mumkin. Masalan, noverbal muloqot bo‘yicha yetakchi mutaxassislaridan biri Stiven Bunard Fransiya prezidentlarining o‘ziga xos imo-ishoralarini o‘rganar ekan, quyidagi xulosaga keldi: “Fransua Olland va Nikola Sarkozi o‘ng qo‘l bilan gapirishga moyil bo‘lgan bo‘lsa, Emmanuyel Makron chap qo‘l bilan gapiradi: "O‘ng qo‘l ishontirish uchun ishlatiladi, chap qo‘l esa rahmdillik va samimiylikni ifodalaydi"[7. 94].

Ko‘pgina asosiy imo-ishoralar butun dunyoda bir xil ekanligiga ishoniladi. Biroq, o‘ziga xoslik "milliy imo-ishoralar" ham mavjud bo‘lib bu turli madaniyatlar bir xil tushunchalarni ifodalash uchun har xil xatti-harakatlarni qo‘llashida namoyon bo‘ladi.

Ammo har xil madaniyatlarda individual imo-ishoralarning o‘ziga xos ma'nosi har xil bo‘lishiga qaramay, barcha madaniyatlarda o‘xshash imo-ishoralar mavjud bo‘lib, ularni N.I.Smirnov quyidagicha tasniflaydi:

- kommunikativ (salomlashish, xayrlashish imo-ishoralari, diqqatni jalb qilish, taqiqlash, tasdiqlovchi, salbiy, so‘roq va boshqalar); Bu informatif bo‘lib turli axborotlarni beradi. I.Kant qo‘lni "miyaning ko‘rinadigan qismi" deb ataganligi bejiz emas. Masalan biznes olamida qo‘l siqish nafaqat salomlashish, balki kelishuv ramzi, biznes sherigiga ishonch va hurmat belgisi sifatida ham qo‘llaniladi.

- modal, ya'ni, baholash va munosabat bildirish (ma'qullash, qoniqish, ishonch va ishonchsizlik imo-ishoralari va boshqalar); Masalan, qo‘llarini orqasiga qo‘yib, bilaklarini bog‘lash - o‘zini ustunligini his qilish; burun yuqori qismini "chimchilash" - bu uning diqqatini chuqur jamlaganligining belgisi va hokazo.

- nutq kontekstidagina ma’noga ega bo‘lgan tasviriy imo-ishoralar. Masalan, qo‘lingiz bilan yo‘nalishni ko‘rsatish [8. 210-247].

O‘zbek milliy madaniyatida salomlashishning individual ma'nosi o‘ziga xos bir xil bo‘lishiga qaramay imo-ishoralarning bajarilishi turlicha bo‘ladi. Unda yosh davri, jinsi, mavqei, ijtimoiy-iqtisodiy holati kabilarni farqlash mumkin.

Katta yoshdagi ayollarni salomlashishi ularning yoshini ulug‘ligi, hurmat, ehtirom xususiyatlarini ustunligi bilan farqlanadi. Qari, keksa ayollar ikkala qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, qarshisida salomlashmoqchi bo‘lgan odamning yelkasiga bir necha marta kaftlarini yengil qoqib so‘rashadi. Lekin salomlashayotgan kishiga nisbatan xatti-harakatlarda qisman o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Agar o‘zi qatori keksa ayollar, kampirlar o‘zaro salomlashsa, imo-ishoralar bir-biriga o‘xshash holda tarorlanadi. Ikkala kampir ham qo‘llarini yuqoriga ko‘taradi. Odatda keksaroq ayol ikkinchi odamning yelkasiga kaftlarini yengil qoqib, boshining yelkasini u tomoni va bu tomoniga burib, salomlashadi. So‘rashayotgan ikkinchi odam ham xuddi shu harakatlarni ketma-ketlikda bajaradi. Bu harakatlar bir vaqtda so‘zlar bilan ham ifodalanadi. Assalomu-alaykum iborasi: yaxshimisiz, sog‘lig‘ingiz yaxshimi, xonadonlar tinchmi, bolalar, nevaralar, kelinglar va shu kabilar hammasi batafsil aytib o‘tiladi. Ancha uzoq vaqt so‘rashiladi.

Agar xuddi shu keksa yoshdagi ayol yoshroq o‘g‘il bola, yoki yoshroq erkak kishi bilan salomlashganda xatti-harakatlar qisman o‘zgaradi. Unda ayol bir qo‘li bilan yigitning o‘ng yoki chap yelkasiga kaftlari bilan qoqib salomlashishi mumkin. Lekin bu vaqtda erkar kishi yoki yigit o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, boshini va yelkasini oldinga egib turadi. Ular keksa insonning so‘zlariga “raxmat”, “yaxshi”, “ha”, “tuzuk” kabi qisqa javoblarni aytishadi.

Katta yoshdagi erkaklarni salomlashishi ayollardan farqli bo‘ladi. Keksa yoshdagi erkaklar, chollar gavdalarini oldiga egib, boshlarini pastga-tepaga qimirlatib, yoki silkib

so‘rashadi. So‘zlari qisqa, lo‘ndaroq bo‘ladi. Assalomu alaykum, salomatmisiz, yaxshimisiz kabilar bilan cheklanadi.

Agarda munosabatlari yaqin bo‘lgan qarindoshlar, qadirdonlar, hurmatli insonlar bo‘lsa, salomlashish imo-ishoralari ko‘proq, so‘zlarni ifodalanishi nisbatan uzoqroq bo‘ladi. Bunday chollarning imo-ishoralari o‘zaro o‘xshash bo‘ladi. Boshi va gavdalarini oldiga sal egib, ikkala qo‘lini oldinga cho‘zib salomlashayotgan odamning o‘ng qo‘lini kaftlari orasiga olib so‘rashadi. Salomlashish xatti-harakatini so‘z bilan tasdiqlab gapirganda ayollar kabi uzoq cho‘zmaydi. Ular qisqaroq va lo‘nda so‘zlar bilan yakunlaydi. “Ahvollar yaxshim”, “tinch, omonmisiz” kabilar aytilishi mumkin.

Chollar yoshroq erkaklar bilan salomlashganda ham qisman o‘zgarish kuzatiladi. Unda qari odam faqat bir qo‘lini (odatda o‘ng qo‘lini) oldinga cho‘zib salomlashadi. Bu vaqtda yoshroq erkaklar boshi va gavdalarini oldiga egib, ikkala qo‘lini cho‘zib salomlashayotgan chollarning qo‘llarini kaftlari orasiga olib so‘rashadi. Bu joyda qariroq yoshdagi odam kamroq gapiradi. “Omon-esonmisan”, “yaxshimisan”, “tinchmisan” kabi so‘zlarni aytishi mumkin. Lekin yoshroq yigitlar, erkaklar nisbatan ko‘proq so‘zlarni aytib so‘rashadi. “Otaxon”, “doda”, “amaki”, kabi so‘zlar bilan murojatni boshlaydi. Qari odamni hol-axvolini batafsil so‘raydi. Hurmat va ehtirom ko‘rsatadi.

Mana shu salomlashish holatiga chuqurroq nazar nashlansa, shaxslarning yosh davriga xos xususiyatilaridan tashqari ijtimoiy, iqtisodiy holati, mavqei, mansabi kabi hususiyatlarini ifodalanishini kuzatish mumkin. Bunda moddiy ta'minoti, mavqei, mansabi kabilarning yuqori bo‘lishi “yoshi kattaroq” odamlardagi holat kabi xatti-harakatlari, imo-ishoralari kamroq, kuzatuvchanligi yuqoriroq bo‘ladi. Aksincha, kambag‘alroq, tobe bo‘lgan kishilar “yoshroq erkaklar” kabi mulozamatni imkon qadar yaxshiroq bajaradi.

Lekin barchaga ma'lumki, ma'naviyati yuqori bo‘lgan kishi har qanday holatda o‘zining samimiyligini yo‘qotmaydi. Bunday insonlarning bilimini darajasi, iqtisodiy ta'minoti, mavqei qanday bo‘lishidan qatiy nazar insoniylik xususiyati yuqori turadi.

Hozirgi kunda ayniqsa o‘smir va o‘spirin yoshidagi o‘g‘il bolalarni salomlashishida juda qiziq holatni kuzatish mumkin. Qalin do‘sti yoki yaqin o‘rtog‘i, sinfdoshi, kursdoshi kabilar bilan o‘zaro salomlashganda ular o‘ng qo‘llari bilan kafti va barmoqlari ishtirokida bir qancha harakatlarni bajarishadi. Qo‘llarini mushtlab, qarama-qarshi bir-biri bilan to‘qnashtirishadi; mushtlangan qo‘llar bilan yuqoridan-pastga tushirib va aksincha, pastdan yuqoriga ko‘tarib to‘qnashtiradi, bosh barmoq, o‘rta barmoq, kaftlarini to‘qnashtirib salomlashadi, so‘ngida boshlarini oldinga egib peshanasini yon tomonlarini to‘qnashtirishadi. Bu xatti-harakatlar do‘stlarda o‘zaro qadirdonlik, yaqinlik, sog‘inch, hurmat kabi xususiyatlarini ustunligini anglatadi. Yana e'tiborli joyi shundaki, bu do‘stlarning so‘z boyligi juda kam va qisqa. “Salom”, “qalaysan”, “bormisan” kabi so‘zlar xolos.

Shu yoshdagi, ya'ni o‘smir, o‘spirin yoshdagi qiz boalarda esa juda oddiy holatdagi salomlashishni kuzatish mumkin. Ular o‘ng qo‘llarini oldinga cho‘zgan holda dugonasi yoki do‘stini kaftlarini siqib salomlashadi, xolos. Lekin ular ham o‘g‘il bolalar kabi qisqa so‘z bilan ifodalashadi. “Salom”, “qalaysan”, “yaxshimisan” kabi so‘zlar bo‘lishi mumkin.

Endi kichik yoshdagi bolalarni o‘zaro salomlashish jarayoniga e'ьtibo qatatilsa, yuqoridagi ifodalar kuzatilmaydi. Ular qo‘l ishtirokida ham, so‘zlar bilan ham salomlashmaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar faqat ko‘z qarashlari, nigoh bilar salomlashadi. Ular bir-birlariga tikilib qarab, bir-birini kuzatishadi. Keyin gap-so‘zsiz, xatti-harakatlarini moslashtirib o‘yin bilan mashg‘ul bo‘lishadi.

Salomlashishga oid imo-ishoralarning jinsiy farqi o‘zbek milliy xususiyatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Erkaklar tanish-notanish bo‘lishidan qat'iy nazar o‘zaro doim qo‘l berib salomlashadi. Ayollar erkaklar bilan deyarli qo‘l berib so‘rashmaydi. Faqat yaqinlari bilan qo‘l berib, yoki yelkasini qoqib salomlashishi mumkin. Urf-odat bo‘yicha boshini pastga egib, so‘z bilan salomlashadi. Shuningdek, yana o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, boshini egib salomlashadi.

Ayollar o‘zaro salomlashganda yaqinlar quchoqlashib, o‘pishib qo‘rishadi. Ba'zilar bir-birlarini yelkasini qoqib yoki belini ushlab salomlashadi. Faqat ularda salomlashish nutqi ko‘p bo‘ladi. Unda kishining sog‘lig‘i, ishi, uyi, oila a'zolari batafsil so‘raladi.

Demak yuqorida aytib o‘tilganidek, har bir odamning yosh darajasi, jinsi, mavqei, ijtimoiy-iqtisodiy holati kabilari asosida salomlashish imo-ishoralari turlicha bo‘ladi. Masalan yangi kelinni oila a'zolari bilan salomlashishi, shogirdni ustozi bilan salomlashishi, bemorni do‘xtir bilan salomlashishi kabilarni aytish mumkin.

O‘zbek tilida u yoki bu imo-ishorani nomlaydigan erkin iboralar asosida paydo bo‘lgan juda ko‘p barqaror iboralar mavjud. Ular frazeologik birliklarga aylanib, odamning holatini, uning hayratini, befarqligini, xijolatini, noroziligini va boshqa his-tuyg‘ularini, shuningdek, turli harakatlarni ifodalaydi. Masalan: boshni pastga egish, boshni aylantirish, boshni ko‘tarish, qo‘lni ko‘tarish, qo‘lni yoyish, qo‘lni tushirish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish, barmoqni silkitib qo‘rqitish kabilar.

Noverbal muloqot - shaxs o‘zining "men"ini ifodalash, shaxslararo ta'sir va munosabatlarni tartibga solish, aloqa hamrohining qiyofasini yaratish va verbal xabarni aniqlashtirish vazifasini bajaradigan vositalardan biri bo‘lib imo-ishora tilini o‘rganish nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki professional sohada - muzokaralar, savdo, vositachilikda ham yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Noverbal signallardan xabardor bo‘lish suhbatdoshingizni yaxshiroq tushunishga, o‘zaro tushunishni yaxshilashga va pirovardida nizolarga yanada samaraliroq yechim topishga imkon beradi. Shunday qilib, tana tilini talqin qilish mahoratiga ega bo‘lish bizning muloqotimizni boyitib, yanada uyg‘un munosabatlarni yaratishga yordam beradigan qimmatli mahoratdir.

Xulosa qilib aytganda, psixolingvistik tahlil imo-ishoralarning muhim jihatini ifodalaydi. Bu nafaqat muloqotni, balki axborotni tushunish, qayta ishlash va uzatishni ham osonlashtiradi.

Shuning uchun imo-ishoralarning ma'no-mazmunidan xabardor bo‘lish va e'tiborliroq yoki sinchkovroq bo‘lish foydadan holi bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedova M.X. Jamiyat taraqqiyotining tildagi o‘zgarishlarga ta'siri // Ilmiy tadqiqot va innovatsiya. 2023/4/10 №2. B 21-26

2. Axmedova M.X. Milliy tilning etimologik va psixolingvistik xususiyatlari // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2021. Б.49-54

3. Axmedova M.X. Jamiyat taraqqiyotida til madaniyatini takomillashtirish masalalari // Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba. Konferensiyalar, Vol. (2024): 1(10), 680-683.

4. Axmedov B.R. Nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning o‘rni // O‘zbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik elektron jurnal. № 5/2019 B.74-83.

5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. — T.: Akademnashr, 2012. — 1 jild. 416 bet.

6. Piz A. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2015. B.4.

7. Рузибоева Н.К. Исследование психолингвистических параметров невербальной коммуникации на материале узбекского и французского языковых континуумов // Журнал гуманитарных и естественных наук 2024. – № 9 (04). – С. 90-100

8. Смирнова Н.И. Сопоставительное описание элементов русской и английской кинетической коммуникации. В кн.: Национально-культурная специфика речевого поведения. - М.: Наука, 1977. - С.210-247.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008) 203bet. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

10. Фролова М.М. Психология. Учебное пособие для ВУЗов - М.,2008.

11. Akhmedova M. Kh. Psycholinguistic Features of Slang Vocabulary in the National Language // **Eurasian Scientific Herald (ESH)** is an Open Access. Vol. 7 (2022): ESH. S.205-208

12. David McNeill, Hand and Mind: What gestures reveal about thought, Chicago, The University of Chicago Press, 1992.

Xayrullayev Qodir Zarfulla o‘g‘li
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Elektron pochta: qodirxayrullayev95@gmail .com
https://orcid.org/0009- 0003-0481-3439

TALABALARNING O‘QUV JARAYONIDA FRUSTRATSIYA HOLATI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. ushbu maqolada o‘quv jarayonida talabalar o‘rtasida frustratsiya paydo bo‘lishi bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar o‘rganiladi. Frustratsiya o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi, ularning motivatsiyasi, faolligi va umumiy akademik samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Maqolada frustratsiyagaa olib keladigan asosiy omillarni, masalan, akademik bosim kabilar ham tahlil qilinadi. Natijalar ushbu psixologik jihatlarni hal qiluvchi, o‘quvchilar o‘rtasida chidamlilik va moslashuvchan kurash strategiyalarini rivojlantiruvchi ta’lim tadbirlari zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: psixologik xususiyatlar, frustratsiya, ta’lim jarayoni, akademik natijalar.

Хайруллаев Кадир Зарфулла угли
Ташкентский международный университет финансового менеджмента и технологий Преподаватель кафедры «Педагогика и психология»
Электронная почта: qodirxayrullayev95@gmail .com
https://orcid.org/0009- 0003-0481-3439

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ФРУСТРАТSIИ У СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. в данной статье рассматриваются психологические особенности, связанные с возникновением у студентов фрустрации в образовательном процессе. Разочарование может существенно повлиять на обучение учащихся, повлиять на их мотивацию, вовлеченность и общую успеваемость. В статье также анализируются основные факторы, приводящие к фрустрации, такие как академическое давление. Результаты указывают на необходимость образовательных вмешательств, которые затрагивают эти психологические аспекты и развивают у учащихся устойчивость и адаптивные стратегии преодоления трудностей.

Ключевые слова: психологические особенности, фрустрация, образовательный процесс, академические результаты.

Khairullaev Kadir Zarfulla ugli

Tashkent International University of Financial Management and Technologies
Teacher of the "Pedagogy and Psychology" department
Email: qodirxayrullayev95@gmail .com
https://orcid.org/0009- 0003-0481-3439

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE APPEARANCE OF FRUSTRATION AMONG STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article examines the psychological characteristics associated with the emergence of frustration among students in the educational process. Frustration can significantly affect students' learning, affect their motivation, engagement, and overall academic performance. The article also analyzes the main factors that lead to frustration, such as academic pressure. The results indicate the need for educational interventions that address these psychological aspects and develop resilience and adaptive coping strategies among students.

Key words: psychological characteristics, frustration, educational process, academic results.

KIRISH

Hozirda o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, kommunikativ qobiliyat borasida ham pedagogik mahoratga, yuqori intellektual salohiyatga, yuksak ma’naviy - axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chuqur dunyoqarashga ega bo‘lishi, ta’lim - tarbiya ishlarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olishlarini davr talab etmoqda. Ayniqsa, talabalardagi kommunikativ qobiliyatlar ularning kasbiy kompetentligining tarkib topishida muhim didaktik asos bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim - tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish ham o‘qituvchidagi kommunikativ qobiliyatining mustahkam tarkib topganligiga bog‘liqdir. Ma’lumki, kommunikativ qobiliyat – o‘qituvchining ta’lim oluvchilar va ularning ota-onalari, shuningdek, hamkasblari hamda ta’lim muassasalari rahbarlari bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarga kirishish mahoratidir. Shu sababli ham zamonaviy o‘qituvchi oldiga pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro faol muloqotda bo‘lish mahorati va san’atiga ega bo‘lishdek muhim vazifani qo‘ymoqda. Bu vazifa o‘qituvchilarni muomala va muloqot etikasiga o‘rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib ko‘ymoqda. Bu boradagi faoliyat dolzarbligini ko‘pgina mutaxassis - olimlarimiz ham ta’kidlab o‘tmoqda**.** Frustratsiya – bu turli xil ta’lim sharoitlarida o‘quvchilar tomonidan boshdan kechiriladigan umumiy hissiy reaksiya bo‘lib, umidlar va intilishlar bajarilmaganda namoyon bo‘ladi. Ayrim shevalarda ushbu so‘z “ko‘ngilning qolishi” shaklid ham ishlatiladi. Ushbu hodisa o‘rganishga sezilarli darajada to‘sqinlik qilishi mumkin, bu esa motivatsiyaning pasayishiga, aloqani yo‘qotishga va salbiy psixologik ta’sirga olib keladi. Talabalar orasida frustratsiyaning paydo bo‘lishiga yordam beradigan psixologik xususiyatlarni tushunish o‘qituvchilar va ruhiy salomatlik mutaxassislari (psixologlar) uchun juda muhimdir. Maqolada ushbu psixologik xususiyatlarni o‘rganiladi, ularning o‘quvchilarning xatti-harakati va ta’lim jarayonidagi

faoliyatiga ta’sirini o‘rganadi. Frustratsiyaning ildizlarini aniqlash orqali biz hissiy barqarorlikni rag‘batlantiradigan va talabalarning akademik tajribasini oshiradigan proaktiv strategiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilganmiz.

ASOSIY QISM

Keyingi yillarda mutaxassislar tomonidan nafaqat jismoniy salomatlik, balki har tomonlama, xususan ruhan salomatlikka erishish lozimligi ko‘p bora qayd etilmoqda. Kishi ruhan sog‘lom bo‘lishi uchun uning o‘z ruhiyatini asrash yo‘lida amalga oshiradigan ishlari nazarda tutiladi, buning uchun esa shaxsdan ma’lum ma’noda psixologik savodxon bo‘lish talab etiladi. Buni qanday tushunish mumkin? Bilamizki, har qanday shaxs o‘z hayotida ko‘plab marotaba stress va frustratsiya kabi salbiy psixologik holatlarga duch kelishi tabiiy holat, lekin aksariyat kishilar bunday holatlardan chiqib keta olish yuzasidan psixologik bilim, ko‘nikma va malkalarga ega bo‘lmaganligi tufayli o‘z ruhiyatini salbiy ta’sirlardan asray olmaydi. Frustratsiya - bu odamlar o‘z maqsadlariga to‘sqinlik qilganda boshdan kechiradigan psixologik holat. Ta’lim kontekstida talabalar ko‘pincha frustratsiya tuyg‘ularini keltirib chiqaradigan turli xil to‘siqlarga duch kelishadi, bu ularning akademik faoliyati va umumiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Talabalar o‘rtasida frustratsiyaning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq psixologik xususiyatlarni tushunish o‘qituvchilar va ota-onalar uchun juda muhimdir, chunki bu muammolarni bartaraf etish va samaraliroq o‘quv muhitini yaratish strategiyalarini bildirishi mumkin [1]. Frustratsiya bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy psixologik xususiyatlardan biri bu talabaning muvaffaqiyatga erishishini kutishidir. Ko‘pgina talabalar ta’lim muassasalariga ko‘pincha ularning oldingi tajribalari, ota-onalarning kutishlari va jamiyat standartlari ta’sirida ishlashlari haqida bir qator umidlar bilan kiradilar. Talabalar doimiy ravishda yuqori natijalarga erishish uchun harakat qilsalar, har qanday muvaffaqiyatsizliklar chuqur frustratsiya hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bu tuyg‘u yuqori bosimli akademik muhitda kuchayadi, bu yerda baholar muvaffaqiyatning yakuniy o‘lchovi sifatida qaraladi. Ko‘pchilik uchun muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi o‘z qadr-qimmati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘z xohish-irodasini pasayishiga va nochorlik tuyg‘usining kuchayishiga olib keladi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak kadrlarning nafaqat o‘z mutaxassisligi doirasida bilim olishiga, balki ularning salomatligi masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa ularning ruhiy jihatdan salomatligini ta’minlash uchun ularning psixologik savodxonligini oshirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan muammoning talabalar jamoasida o‘rganilganligini ham tahlil qilishga urindik. Adabiyotlarda shaxs bajarayotgan faoliyatining funksional ishonchliligi u boshqarayotgan ob’ektning holatiga qanchalik to‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kirita olishiga bevosita bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Bu muammoni talabalik davri bilan bog‘lagan holda o‘rgangan rus olimalaridan biri O.N.Stolpovskayaning fikricha, talaba o‘qish faoliyati davrida o‘zining kasbiy kelajagini ko‘ra bilsa, uning uchun o‘qishda yuqori natijalarga erishish istagi va shuning natijasida yutuqlarga erishish imkoniyati ham muhim bo‘ladi. Chunki o‘qishda yuqori natijalarga erishish istagini amalga oshirish uchun talabadagi optimistik kayfiyat muhim rol o‘ynaydi. Agar talabada optimistik ruh ustun bo‘lsa, u hayoti

mobaynida erishib kelayotgan muvaffaqiyatlari o‘z kuchi va imkoniyatlarining natijasi ekanligiga ishonsa, bunday talabaning yutuqlarga erishishi oson bo‘ladi. Bunday talaba omadsizlik va muvaffaqiyatsizliklarga uchraganida ham bu holat vaqtinchalik, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati esa doimiy ekanligiga ishonadi.

